

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**O`LKA MODDIY MADANIYATI TARIXI
(SIRDARYO O`LKASI)**
O`quv qo`llanma

Guliston – 2020

Guliston davlat universiteti “5120300 - Tarix (jahon mamlakatlari bo`yicha)” ta`lim yo`nalishi ishchi o`quv rejasining Umumkasbiy fanlar (tanlov fanlar) blokiga kiruvchi 3.15.-“O`lka moddiy madaniyati tarixi” nomli fan uchun tayyorlangan o`quv qo`llanma Guliston davlat universiteti Guliston davlat universiteti Kengashi tomonidan 2020 yil “4” “iyundagi” (№ 10 sonli bayonnomma) muhokama etildi va ma`qullandi.

Tuzuvchi:

T.f.n. dots. To`ychiboev B.B.

Taqrizchilar:

O`z MU professori, t.f.d., Z. Ishanxadjaeva

JDPI dotsenti. t.f.n. F. Toshboev

Gul DU dotsenti. t.f.n. S. S. Qudratov

Sirdaryo o`lkasining qadimgi va o`rta asrlar tarixi uzoq vaqtlar davomida e`tibordan chetda qolib kelayotgan hudud edi. Guliston davlat universiteti “5120300 - Tarix (jahon mamlakatlari bo`yicha)” ta`lim yo`nalishi talabalari uchun tayyorlangan “O`lka moddiy madaniyati tarixi” o`quv qo`llanmasi talabalarga o`zları yashab turgan o`lka, o`rta Sirdaryo havzasasi chap qirg`og`i hududining qadimgi va o`rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi xaqida atroflicha ma`lumot beradi. O`quv qo`llanma GulDU “5120300-Tarix (jahon mamlakatlari bo`yicha)” bakalavriat ta`lim yo`nalishi talabalari, magistrlar va Sirdaryo o`lkasi qadimgi va o`rta asrlar tarixi bilan qiziquvchilar uchun mo`ljallangan.

KIRISH.

Mustaqilligimizning xalqimizga bergen eng buyuk ne`matlaridan biri bu qadim va shonli tariximiz borasida ro`yi-rost va xolis fikr bildirish imkoniga ega bo`lganligimizdadir. Aynan shu sabab so`nggi yillarda O`zbekiston tarixini o`rganish borasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Farg`ona vodiysi tarixi borasida yangidan-yangi ma`lumotlarga ega bo`lmoqdamiz. Biroq bugungi yangilanayotgan O`zbekistonda shiddat bilan o`z o`rnini topib borayotgan Sirdaryo viloyati tarixini hammamiz ham yaxshi bilamiz deb ayta olmaymiz. Bunga ma`lum ma`noda Sirdaryo qadimda va o`rta asrlarda kimsasiz cho`l bo`lgan va bu erlar «sho`ro»lar hukmronligi davridagina o`zlashtirilgan degan noto`g`ri tushunchalar ham sabab bo`lmoqda. Vaxolanki, “Sirdaryo viloyati garchi O`zbekiston tarkibidagi ma`muriy hudud sifatida ancha yosh bo`sada, bu zaminning necha ming yillik tarixi, madaniyati bor”¹.

Sirdaryo viloyati hududi qadimda va o`rta asrlarda “Buyuk ipak” yo`lining muhim qismida joylashgan bo`lgan. O`rta er dengizidan chiqib, Buxoro va Samarqand orqali qadimgi Chin(Xitoy) sari yo`l olgan savdo karvonlari albatta bizning hududdan o`tishgan. Shuningdek, qadim Choch (Toshkent)ga ham olib boruvchi savdo yo`llari aynan viloyatimiz hududidan o`tgan. Demakki, viloyatimiz hududi qadimda va o`rta asrlarda mamlakatimizning qadim o`lkalari – So`g`d(Samarqand), Dovon(Farg`ona) va Choch(Toshkent)larni bir-birlari bilan bog`lab turgan. Shu sababli Sirdaryo viloyati tarixini chuqur o`rganmasdan turib, u bilan chegaradosh qadimgi So`g`d, Farg`ona, Choch tarixini to`liq bilib bo`lmaydi. Zero, ular bir-birlari bilan Sirdaryo orqali bog`langan. Yuqoridagi hududlar tarixiga oid xanuz o`z echimini topmayotgan ko`plab muammolarni bizning nazarimizda Sirdaryo tarixini o`rganish orqaligina echish mumkin bo`ladi.

¹ Шавкат Мирзиёев. Сахро бағрида мўъжизалар яратоётган эл (Сирдарё вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ). “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2017, 375-376 бб.

Muhim savdo yo`llarida joylashganligi sababli viloyatimiz hududida savdo karvonlarga xizmat ko`rsatish tufayli obod va farovon bo`lgan qadim manzilgohlar, shaharlar bo`lgan. Shuningdek, viloyatimiz hududidan O`rta Osiyoning eng uzun daryosi Sirdaryoning o`tganligi, janubiy hududlarida Turkiston tog` tizmalaridan suv oluvchi ko`plab soylar mavjudligi ham qadim ajdodlarimizning ushbu hududni makon tutishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratgan.

Viloyat hududidagi eng qadimgi aholi manzilgohlari ham sug`orish uchun qulay bo`lgan daryo va soy bo`ylarida paydo bo`lgan. Viloyatimiz hududidagi eng qadimgi o`troq aholi Turkiston tog` tizmalaridan suv oluvchi Sho`rbuloqsoy bo`ylarida istiqomat qilgan. Arxeologik tadqiqotlar dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Sho`rbuloqsoy bo`ylarida (Eski Xovos) bundan 3-4 ming yillar oldin paydo bo`lganligi haqida guvohlik beradi. Bu tabiiy, chunki yuqoridagi soy sersuv, uning atrofidagi erlar esa unumdon bo`lgan. Shuningdek, bu vohaning buyuk savdo yo`lida joylashganliginini ham yoddan chiqarmasligimiz lozim.

“Sirdaryo deganda, sirdaryolik deganda, azim Sayxun daryosi sohillaridagi so`lim bir voha, qadimiyl Mirzacho`l bag`rida bog`u bo`stonlar, shahar va qishloqlar buniyod etib kelayotgan mard va matonatli insonlar ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi”¹. Darhaqiqat viloyatimiz tarixida uning sharqiy chegaralaridan o`tuvchi bu azim daryo o`ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu daryo qadimda va o`rta asrlarda uning chap qirg`og`ida dehqonchilik bilan shug`ullangan o`troq aholi bilan uning o`ng qirg`og`ini makon tutgan ko`chmanchi – chorvador aholini birlashtirib turgan. Va aynan shu holat Sirdaryo tarixining o`ziga xosliklaridan birini belgilaydi.

Sirdaryo buyuk sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatida ham muhim rol o`ynagan. Sirdaryo bo`ylarida alamli mag`lubiyatga uchragan Amir Temur bundan kerakli sabog` olib, o`zining zafarli yurishlarini ham aynan Sirdaryo bo`ylaridan boshlagan. “Sohibqiron Amir Temur bobomiz bu erlarni Toshkent vohasi bilan birga suyukli nabirasi Mirzo Ulug`bekka mulk qilib bergani tarixiy manbalardan

¹ O`sha asar...375-376 bb

yaxshi ma`lum”¹. Sohibqiron Sirdaryo bo`ylarida mo`g`illar tomonidan vayron qiligan qadim shaharlar o`rnida yangi shaharlar barpo etadi.

Yuqorida ta`kidlanganidek, ayrimlar Sirdaryo deganda yaqin-yaqingacha birorta giyoh ham o`smanan kimsasiz cho`lni tushunishadi. Bu ko`pamda to`g`ri emas. Zero, bu hududlarni makon tutishgan ajdodlarimiz bu joylarga suv olib chiqib, obod etishgani bor gap. “XV asrda kanal tortib, suv chiqargan Shohruk va Ulug`bek Mirzolarning nomlarini Sirdaryo ahli doimo minnatdorlik bilan tilga oladi.

Hech shubhasiz, o`tgan asrda qush uchsa - qanoti, odam yursa - oyog`i kuyadigan bu erlarni o`zlashtirib, Guliston, Yangier, Baxt, Shirin kabi shaharlar bunyod etgan, bu o`lkaga zamonaviy taraqqiyot olib kelgan fidoyi ota bobolarimizning qahramonona mehnatini xalqimiz aslo unitmaydi. Mustabid tuzum davrida niyati pok, azmu-shijoatli bu insonlar, afsuski, mehnatlariga yarasha qadr-qimmat topmadi. Ularning mashaqatli mehnati bilan etishtirilgan mahsulotlar suv tekinga sobiq Markazga olib ketilar edi. Og`ir sharoitda ter to`kib, beba ho sil etishtirgan zahmatkash insonlar esa rahmat o`rniga tuhmat va malomat eshitganlarini, “paxta ishi”, “O`zbeklar ishi” degan qatog`onlarga duchor bo`lganini yaxshi bilamiz.

Faqat mustaqillik tufayli bu zamin, uning odamlari erkinlik havosidan, halol mehnati samarasidan to`la bahramand bo`ldi. Qiyinchiliklarda toblangan, irodasi mustahkam, bag`rikeng Sirdaryo ahli bu haqiqatni chuqur anglab, uning qadriga etib, o`z yurtini yanada obod qilish, ravnaq toptirish yo`lida fidokorona mehnat qilmoqda”².

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qadim va shonli tariximiz, buyuk ajdolarimiz hayoti va faoliyatini bilish ibrat maktabi vazifasini o`taydi. Bu borada Sirdaryo tarixi ham yurtimiz tarixinining uzviy qismi sifatida har birimiz uchun faxrli va azizdir. Sirdaryo tarixini o`rganish va uni targ`ib qilish bizning farzandlik burchimizdir.

¹ O`sha asar...375-376 bb

² O`sha asar...375-376 bb

1 BOB. “O`LKA MODDIY MADANIYATI TARIXI” KURSINING

MAQSADI VA VAZIFALARI

1§. “O`lka moddiy madaniyati tarixi” kursining maqsad va vazifalari.

2§. O`lka moddiy madaniyatining o`rganilish tarixi

Tayanch iboralar: moddiy madaniyat, O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i, Mirzacho`l, Munchoqtepa yodgorligi, Nurota shahristoni.

1§. “O`lka moddiy madaniyati tarixi” kursining maqsad va vazifalari.

O`tmishni o`rganmay kelajakni yaratib bo`lmaydi. Zero, bugunning qadr va qimmati, mohiyati va salmog`i kechagi kun tarozisi orqaligina to`liq idrok etiladi. Darhaqiqat, tarixdan bugunga va kelajakka xizmat qiladigan amaliy xulosalar chiqarilmaguncha hech bir jamiyat rivojlanmaydi.

O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i hududi Markaziy Osiyo tarixida muhim o`rin tutgan makonlardan biridir. Bir tomondan So`g`d va Baqtriya, ikkinchi tomondan Choch va Farg`ona oralig`ida joylashganligi tufayli bu hudud butun shimoliy O`rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniyatida muhim rol o`ynagan. O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i bugungi kunda O`zbekistonning Sirdaryo viloyati, Jizzax viloyatining ayrim tumanlari, Janubiy Qozog`iston viloyati va Tojikistonning Zafarobod tumani hududlarini o`z ichiga oladi. O`lkaning o`zlashtirilishida uning tabiiy geografik sharoiti muhim ahamiyat kasb etgan. Darhaqiqat, O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i – O`rta Osiyodagi qadimdan inson istiqomati, xo`jaligi va hayotiy faoliyati uchun qulay hisoblangan vohalardan biridir. Voha tabiatini turli xildagi iqlim sharoitiga ega.

O`lka hududini ikkita tarixiy geografik hududga bo`lib qayd etish mumkin. Bulardan birinchisi - qadimdan ma`lum va mashxur bo`lgan Mirzacho`lning jazirama, qaqroq cho`l-dasht mavzelari, ikkinchisi mo``tadil ob-havoli Sirdaryo bo`ylaridagi yaylov, tekisliklar va Turkiston tizma tog`lari yonbag`irlari. Turkiston tizma tog`laridan suv olib vodiy tomon oqqan soy, buloq-chashmalar va Sirdaryoning chap qirg`og`i xavzasida qadimdan aholi o`troq yashab, sun`iy

sug`orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug`ullangan. O`lkada mavjud bo`lgan, Basmandasoy, Kattasoy, Shahristonsoy, Nijonisoy, Qipchoqsoy, Xo`jamushkentsoy, Mo`g`olsoy, Tag`obsoy, Sarmichsoy, Sho`rbuloqsoy kabi soylar (ularning ba`zilari quyi oqimida boshqacha nom bilan ataladi. Masalan, Nijonisoy - Sho`rbuloqsoy, Namgonsoy - Mo`g`olsoy va h.k.) Zarafshondan suv olgan Tuyatortar shoharig`i va albatta Sirdaryo daryosi o`lka axolisini suv bilan ta`minlab turgan asosiy suv manbai bo`lgan. Cho`l-dasht mavzelari chegaralarigacha oqib borgan ushbu o`nlab katta-kichik soy va buloqlar xo`jalik yuritish uchun etarli darajada bo`lgan. Bu suv manbalari bo`ylarida qadimdan vohaning asosiy iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarini shakllantiruvchi negizini tashkil qilgan, shahar va manzilgohlar paydo bo`lgan va rivojlanib bongan.

Vohaning geografik va iqlim sharoiti chorvachilik sohasini yo`lga qo`yish va uni rivojlantirish uchun ham nihoyatda qulay bo`lgan. Mirzacho`lning keng cho`l-dasht mavzelarida chorva boqilgan, chorvadorlar ko`chmanchilik tarzida o`z hayotiy faoliyatlarini o`tkazishgan. Ular mavsumga em-xashak, suv zaxiralari ta`minotiga qarab bir erdan ikkinchi joyga ko`chishgan, qishlovni ob - havosi nisbatan iliqroq hisoblangan yaylovlarda o`tkazishgan.

Umuman bir so`z bilan ta`kidlash mumkinki, o`rganilayotgan madaniy o`lkada inson uchun tabiatning o`zi qator qulayliklar yaratgan. Xususan, bu erda eng qadimgi davrlarda ilk ajdodlarga ovchilik va terimchilik, keyingi davrlarda esa lalmikorlik, sug`orma dehqonchilik va chorvachilik uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo`lgan.

Sobiq sovetlar zamonida O`rta Osiyo, xususan O`zbekiston tarixining qadimgi va o`rta asrlari davri bo`yicha ma`lum tadqiqotlar amalga oshirildi. Sug`d, Baqtriya, Xorazm, Choch, Davon kabi madaniy o`lkalar tarixiga oid bir qator ilmiy ishlar olib borildi. Lekin ba`zi tarixiy o`lkalar bunday tadqiqotlardan chetda qoldi yoki etarli darajada o`rganilmadi. Shulardan biri bo`lgan o`lkamiz, yana ham aniqrog`i bugungi kunda Sirdaryo viloyati hududi kiruvi O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i hududi tarixi etarli darajada komplek o`rganilmadi.

Sirdaryo o`lkasi xaqida so`z ketganda ko`pgina tadqiqotchilar ko`z o`ngida «hamma yoqni jizg`anak qilib yuboruvchi, oftob zabitidan qochib, jonzod yashamaydigan sahro - Mirzacho`l” haqidagi afsonalarga ko`zimiz tushadi. Xaqiqatdan ham O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`ining va uning bir qismi bo`lgan Mirzacho`l, inson oyog`i etmagan, xech kim yashamaydigan cho`l bo`lganmi ? O`lka moddiy madaniyati tarixi” kursida biz shu savollarga javob beramiz.

O`lka hududi arxeologiyasini o`rganilishi tarixidan ma`lumki, mazkur madaniy o`lka tadqiqotchilar tomonidan maxsus yaxlit o`rganilmagan. Hududda turli yillarda V.F.Gaydukevich, Yu.F.Buryakov, A.I.Bilalov, T.V.Belyaeva, A.A.Gritsina, M.H.Pardaev, S.Qudratov, T.Omonjulov, B.To`ychiboev, N.Mirzaeva, O.Mamirov, K.Raxmonov va boshqalar tomonidan o`lka moddiy madaniyati, siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari o`rganilgan.

Kursni o`qishdan ko`zlangan asosiy maqsad, kurs davomida o`lka hududi tarixini moddiy madaniyati taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini so`nggi manbalar asosida yaxlit, bir butun madaniy - tarixiy o`lka sifatida eng qadimgi davrdan to XIX asrga qadar yaxlit shaklda o`rganishni maqsad qilib qo`yamiz.

Kursni o`qitishda quyidagi **vazifalar qo`yildi**:

1. Yagona tabiiy-geografik o`lka hisoblangan O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i hududining arxeologiya Yodgorliklari umumiylarini xaritasini ko`rib chiqish.

2. Mirzacho`l hududi moddiy madaniyatining paydo bo`lishi, tarqalishi, rivojlanish mezonlari, demografiyasi, urbanizatsiyasi, turmush tarzi va ma`naviy hayoti masalalarini o`rganish.

3.Yozma va arxeologik manbalar asosida Mirzacho`l hududining tarixiy geografiyasi muammolariga aniqlik kiritish, to`laqonli siyosiy tarixini yaratish.

Mirzacho`l hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, uning qadim davrdan to bugungi kunimizga qadar bo`lgan tarixi, moddiy va ma`naviy madaniyatidan ma`lumot beruvchi katta hajmdagi manbalar to`plangan. Bu tadqiqotlar natijalari, Mirzacho`l hududi moddiy madaniyati, xususan uning

shakllanishi, tarqalish doirasi, rivojlanishi va boshqa muammolarini yoritilishida katta imkoniyatlar yaratadi.

2§. O`lka moddiy madaniyatining o`rganilish tarixi

Tarixiy O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar o`rganilish tarixi davrlari shartli shaklda quyidagi uch davrga ajratildi.

I davr. XIX asr oxiri - XX asrning 40 - yillarigacha: O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i hududini o`rganishda bu davr katta ahamiyatga egadir. Bu erdan o`tgan bir qancha olimlar, harbiy topograflar va yakka sayyoohlar tomonidan hududdagi moddiy Yodgorliklar ko`rsatib o`tilgan. Turkiston havaskor arxeologlar to`garagi (1895-1917) a`zolari tomonidan ham ilmiy izlanishlar olib borilib, bir qator Yodgorliklar, shu jumladan hozirda yo`qolib ketgan Yodgorliklar o`rni aniqlanadi va ilmiy muomalaga kiritiladi. Ularning faoliyati keyinchalik hududda keng tadqiqotlar olib borish uchun turtki bo`lib, fanda o`z izini qoldirdi. Lekin bu tadqiqotlar chuqur ilmiy izlanishlar darajasida bo`lmay, o`sha davr talabida va darajasida olib borildi. Bu davrda olib borilgan barcha tadqiqotlar, bayon qilingan fikrlar, asosan, yozma manbalarga va hududdagi aniqlangan moddiy Yodgorliklarning tashqi ko`rinishiga asoslangan edi.

II davr. 1943 yildan - 1970 yillar o`rtalarigacha: O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i hududida keng arxeologik tadqiqotlar O`rta Osiyoning boshqa tarixiy o`lkalariga nisbatan ancha kech, 1943-1944 yillarda V.F.Gaydukevich boshchiligidagi Farhod arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan Farhod GESining qurilishi munosabati bilan boshlanadi. Bu ekspeditsiya tomonidan ko`p qatlamlil, yirik Munchoqtepa (I-XII asrlar) shahar yodgorligida va uning yonida Shirinsoy qabristonida qazishma ishlari amalga oshiriladi.¹ Sug`d - Tojik ekspeditsiyasining O.I.Smirnova boshchiligidagi otryadi 1949-1950 yillarda hududda arxeologik

¹ Гайдукевич В.Ф. Работы Фархадской археологической экспедиции Узбекистана в 1943-1944гг. // КСИИМК. Вып. XV. - М.-Л: 1947. с.92-109.

Yodgorliklarni aniqlash ishlarini olib boradi.¹ Otryad tomonidan ko`plab moddiy Yodgorliklar aniqlanib, ularning ba`zilarida arxeologik tozalash va ilk qazish ishlari olib boriladi. 1955 yildan 1960 yilgacha faoliyat ko`rsatgan Tojikiston Arxeologiya ekspeditsiyasining Xo`jand-Ustrushona otryadi tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida hududining arxeologik xaritasi bir qator yangi moddiy madaniyat Yodgorliklari bilan boyitiladi². Ta`kidlash lozimki, XX asrning 60-yillaridan boshlab hududda arxeologik tadqiqotlar keng ko`lamda va rejali asosda olib borila boshlangan. Bu davrda (60-70 yillarda) hududning arxeologik xaritasini yaratish yo`lida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida, suv havzalarining tog`li qismida olib borilgan arxeologik xaritalashtirish ishlari alohida e`tiborga loyiqidir.³ 1960-yillarda V.A.Nilsen tarafidan Nurota (Sayxunobod tumani Nurota qishlog`idagi Yodgorlik) shahristonida qazuv tadqiqot ishlari olib boriladi⁴. Xulosa qilib aytganda, bu davr (1943-1975 yillar) o`lka tarixini o`rganishda katta ahamiyatga ega bo`lib, tadqiqotchilari tomonidan tarixiy o`lkaning umumiyligi arxeologik xaritasi ishlab chiqiladi.

III davr. 1970 yil o`rtalaridan - hozirgi kungacha: Bu yillarda, umuman O`rta Osiyo, shu jumladan, alohida tarixiy vohalardagi arxeologik Yodgorliklarni qayd etish, ularning arxeologik xaritasini ishlab chiqish maqsadida tadqiqotlar davom ettirildi. Bu tadqiqotlar Arxeologiya institutining Choch-Ustrushona ekspeditsiyasining Jizzax, Sirdaryo, Zomin guruhlari tomonidan olib borildi.⁵ Ayni vaqtda bu davrda (1970-yillardan) tadqiqotchilar tomonidan turli davrlarga oid alohida Yodgorliklarning ba`zilarida olib borilgan dala qazuv tadqiqot ishlari

¹ Смирнова О.И. Археологические разведки в Уструшане 1950г. // -М.-Л., 1953. С.189-230.

² Негматов Н.Н. О работах Ходжентско-Уструшанского отряда в 1955г. // –Стилиабад., 1956. С.61-69.

³ Аминжанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе. // ИМКУ. Вып.8. –Т.: Фан.1969. С.137-142.

⁴ Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв). – Т.: 1966.

⁵ Буряков Ю.Ф., Грицина А. Мавераннахр на Великом шелковом пути. Самарканд-Бишкек. 2006. 208 с.

yakunlandi. Shu bilan birga bir qator Yodgorliklarda qazuv tadqiqot ishlari muvaffaqiyat bilan davom ettirildi.

Olib borilgan amaliy va ilmiy-nazariy yo`nalishdagi tadqiqotlarning barchasi, O`rta Sirdaryo havzasi chap qirg`og`i hududi qadimdan axoli yashagan, va ular tomonidan o`ziga xos, boy maddiy madaniyat yaratilganligidan dalolat beradi. Bu tadqiqotlar o`lka xalqlari moddiy madaniyati tarixi muammolariga qaratilgan bo`lsada, afsuski ular yagona tizimga solinib, yaxlit tahlil etilmaganligi sababli, bir butun tarixiy, arxeologik tasavvurni berish imkoniyatiga ega emas.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Gaydukevich V.F. Raboti Farxadskoy arxeologicheskoy ekspeditsii Uzbekistana v 1943-1944gg. // KSIIMK. Vip. XV. - M.-L: 1947. s.92-109.

Buryakov YU.F., Gritsina A. Maverannaxr na Velikom shelkovom puti. Samarkand-Bishkek. 2006. 208 s.

Smirnova O.I. Arxeologicheskie razvedki v Ustrushane 1950g. // -M.-L., 1953. S.189-230.

Negmatov N.N. O rabotakh Xodjentsko-Ustrushanskogo otryada v 1955g. // – Stalinabad., 1956. S. 61-69.

Aminjanova M. Arxeologicheskaya razvedka v Zaaminskom rayone. // IMKU. Vip.8. –T.: Fan. 1969. S.137-142.

Nilsen V.A. Stanovlenie feodalnoy arxitekturi Sredney Azii (V-VIII vv). – T.: 1966.

2 BOB. O`LKADA ILK MODDIY MADANIYAT IZLARI

1§. Qadimgi Sirdaryo tarixi yozma manbalarda.

2§. O`lkaning qadimgi moddiy-madaniyat tarixi.

3§. O`lkaning qadimgi aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti

Tayanch iboralar: o`troq dehqonlar bilan ko`chmanchi chorvadorlar, «cho`l hayotning g`aroyib generatori», Ko`chmanchi-chorvadorlarning o`troqlashuvi,

Sirdaryo - «Danu», Yaxartes – Yaksart, «Sayxun», «memakenlarning kuchli qabilasi», otashkada, zikkurat, diniy va ma`muriy binolar, harbiy konfederatsiya, qadimiy savdo yo`llari, metall erituvchi pech, zargarlik qoliplari.

1§. Qadimgi Sirdaryo tarixi yozma manbalarida.

Sirdaryo zaminida insonlar qadimgi tosh davridan beri yashab kelishgan bo`lsada, uning qadim tarixi to`g`risida ma`lumot beruvchi yozma manbalar bir muncha keyingi davrlarga oiddir. Qadimgi Sirdaryo tarixi haqida ma`lumot beruvchi muhim yozma manba qadimgi grek tarixchisi Arrianning «Iskandarning harbiy yurishlari» asaridir¹. Milodiy II asrda yashagan Arrian ushbu asarida Makedoniyalik Aleksandrning O`rta Osiyoga yurishlari haqida batafsil ma`lumot beradi. SHubhasiz, muallif voqealarni yoritishda Makedoniyalik Aleksandr davrida yashagan davr manbalaridan foydalangan. Unda yozilishicha, miloddan avvalgi 329 yili So`g`d poytaxti Marakanda(Samarqand)ni olgan Aleksandr shimoli-sharqqa Tanais (Yaksart-Sirdaryo) tomon yurish qiladi. Marakandaning yon atrofidagi qishloq aholisining qattiq jazolanganligidan xabardor bo`lgan mahalliy qabilalar bu yurishga qattiq qarshilik ko`rsatadilar. Jumladan, Arrianning yozishicha, Ustrushonaning tog`li aholisi yunon-makedon qo`shinining oziq-ovqat yig`uvchi otryadlarini tor-mor etadilar. Bundan g`azablangan Aleksandrning katta qo`shin bilan kelayotganini eshittan mahalliy aholi barcha tomonlari tik qoyali bo`lgan toqqa chiqib yashirinishadi. Ma`lumotlarda ularning soni o`tgiz ming kishi atrofida bo`lganligi yozilgan. Aleksandr ularni katta qiyinchiliklar bilangina enga olgan. SHundan so`ng Aleksandr Tanais (Sirdaryo) tomon yo`l olgan. U Sirdaryo bo`yida, uning chap qirg`og`ida 17-20 kun ichida Aleksandriya - Esxata (Chekka Aleksandriya)shahrini barpo etadi.

Aleksandriya-Esxatadan tashqari Arrianda Sirdaryoning chap qirg`og`ida joylashgan yana 7 shaharning nomi tilga olinadi. Antik davr manbalarida

¹ Арриан Флавий. Анабасис Александра или история паходов Александра Великоого. Пер. с древнегреч. М.Е. Сергеенко.-М., -Л., изд.АН СССР,1962,384 с.

yozilishicha, ular Ahomoniylar shohi Kir II (milodgacha 558-530-yillar) tomonidan barpo etilgan¹.

Ulardan biri, unga asos solgan shoh sharafiga Kiropol (Kir shahri) deb nomlangan², agar haqiqatan ham shunday bo`lsa, u holda qadimgi Sirdaryo hududlari bir vaqtlar Ahomoniylar davlati tarkibida bo`lgan. Ammo bu fikrga akademik olim B.A.Litvinskiy qarshi chiqadi, uningcha shahar nomining o`zagini tashkil etuvchi “Kuru” yoki “Kurush” so`zlari hozirgi Kurkat qishlog`i (Shirin shahri yaqinida) yoki Sirdaryo irmog`i Kurshob nomlaridan olingan bo`lib, yunonlar ushbu nomni o`z an`analariga moslashtirib Kir Esxata deb atashgan³. D.Dovudiy esa shahar nomi so`g`dlarning Kuru qabilasi nomidan olingan deb xisoblaydi⁴. Bu vaziyatda bizning o`lkalar Ahomoniylar davlati tarkibiga kirmagan bo`lib chiqadi va Arrian tilga olgan 7 ta shahar qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qurilgan bo`ladi.

Makedoniyalik Aleksandr unga qarshi So`g`dda Spitamen boshchiligidagi qarshilikni bostirish uchun Marakandaga qaytganidan foydalanib, yuqoridagi 7 shahar aholisi qo`zg`olon ko`taradi va Aleksandr tomonidan qoldirilgan yunon-makedon qo`sishinlarini qirib tashlaydi. Arrianning yozishicha, «daryo buyi varvarlari» makedoniyalik jangchilarni qirib tashlab, o`z shaharlarini mustahkamlaganlar. Qo`zg`olonda «daryo bo`yi varvarlari» bilan bir qatorda ko`plab so`g`dlar ham ishtirok etganlar. Shu erda bir muhim xulosa qilish mumkin, ya`ni mahalliy aholi so`g`dlardan farq qilgan. Chunki Arrian mahalliy xalqni so`g`dlardan farqli ravishda “varvarlar” deb yozadi. Arrian «varvar»lar tomonidan mustahkamlangan 7 shahardan 2 tasining nomini tilga oladi, bular Kiropol va Gaza. Voqeadan xabar topgan Aleksandr shoshilinch orqaga qaytib, qo`zg`oltonni

¹ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен по Х в.н.э.//МИА.№37.М.,-Л.,1953,180-247 бб

² O`sha asar ...232 b

³ Литвинский Б.А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы//История и культура народов Средней Азии. М., 1976,516. Пьянков И.В. Александрия Крайная в известиях античных авторов/Исследования по истории и культуре Ленинабада. Душанбе, 1986.

⁴ Довуди Д. Кир Великий и проблема основания города Кирополя / ТД международного симпозиума «Роль Истарафшана (Уратюбе) в истории цивилизации народов Центральной Азии. Душанбе, 2002,113-114бб

shafqatsizlarcha bostiradi. Barcha 7 shahar ham vayron qilingan va yoqib yuborilgan. Shaharlarning erkak aholisi o`ldirilib, ayollar va bolalar o`lja sifatida jangchilarga bo`lib berilgan. Eng shiddatli jang Kiropol uchun bo`ladi. Atrofi baland devorlar bilan o`rab olingan va ko`p sonli jangovar «varvarlar» to`plangan shaharni qo`lga kiritish yunon-makedonlarga oson bo`lmagan. Kiropolni Aleksandr harbiy xiyla bilangina oladi. U oz sonli qo`shin bilan daryoning qurib qolgan qismi orqali shahar ichkarisiga kirib oladi va shahar darvozasini ichkaridan buzib, o`z qo`shinining shaharga kirib olishiga imkon yaratadi.

Orada qatgiq jang bo`lib, Aleksandr boshi va bo`ynidan tosh bilan qattiq jarohat olgan. Aleksandrning lashkarboshisi Krater va boshqa lashkarboshilari ham shahar mudofaachilari tomonidan otilgan o`q-yoylardan yaralanganlar. SHiddatli qarshilikdan so`ng himoyachilarining ko`pchiligi qirib tashlangan, qolganlari shahar ichkarisidagi arkka yashirinishgan. Keyinchalik ular ham tor-mor etilgan. Kurtsiyning yozishicha, “Tarixda hech bir shahar bunday qamalga uchramagan”¹.

Fanda erksevar, mag`rur ajdodlarimiz tomonidan qahramonlarcha himoya qilingan shaharlarning qaerda joylashganligi keskin bahslarga sabab bo`lib kelmokda. Ayrim olimlar fikricha, ustrushonaliklarning asosiy shahri Kiropol O`ratepa shahridagi Mug`qal`a o`rnida bo`lgan deb hisoblasalar², boshqa bir guruh olimlar Kiropolni Xovatog` yaqinidagi Nurtepa yodgorligi o`rnida bo`lgan, deb hisoblaydilar³. Bizning fikrimizcha ham Kiropol Nurtepa yodgorligi o`rnida bo`lgan. Sababi, aynan shu Yodgorlikda miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid madaniy qatlamlar o`rganilgan.

Arrian tomonidan qayd etilgan ikkinchi shahar Gaza esa ayrim olimlar tomonidan Gazandarak qishlog`i o`rnida, boshqalar esa Tojikiston Respublikasining Nau tumanida⁴, uchinchi guruh olimlar esa uni Xo`jand o`rnida

¹ Квент Курций Руф. История Александра Македонского. / Отв. ред. А.А.Вигасин. 2-е изд., М.: Издательство МГУ. 1993.

² Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Проблемы начального этапа урбанизации Уструшаны // По материалам Нуртепа//Древние цивилизации Востока. Ташкент, Фан,1986,76 б

³ Грицина А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992

⁴ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л. 1927. Б. З.

bo`lgan deb hisoblaydilar. Etarli darajada arxeologik tadqiqotlar olib borilmaganligi sababli, bu muammo hozircha ochiq qolmoqda.

Antik davr yozma manbalarda yozilishicha, Makedoniyalik Aleksandr va uning sarkardalari Sirdaryo bo`ylarida amalda an`anaviy ko`rsatilgan etti shahardan ancha ko`p shaharlarni bosib olishgan. Balkim bu etti shahar yoki qal`alar mavjud bo`lgan nisbatan ko`proq bo`lgan manzilgohlar ichida eng mustahkamlari bo`lib, dushman xavfi paydo bo`lganda yon-atrofdagi manzilgohlar aholisi aynan shu joylarga yashirinib, jon saqlashgan bo`lishi mumkin. Bu hol Arrian ma`lumotlarida tasdiqlanadi: “Aytishlaricha “yovvoyilar” atrofdan bu etti shaharga qochib kelar edilar”¹. Bu uncha katta bo`lmagan qishloqlar jumlasiga etti shahardan tashqari, viloyatimiz hududidagi miloddan avvalgi VI asrga oid Saganaktepa va Saganaktepa I xarobalarini ham kiritilishi mumkin².

Miloddan avvalgi 323 yilda Makedoniyalik Aleksandrning vafotidan so`ng viloyat hududi uning lashkarboshisi Salavk tuzgan davlat tarkibiga kirgan. Aleksandrning o`limi nafaqat uning lashkarboshilarining, Shuningdek, uning imperiyasi tarkibiga kirgan ko`plab xalqlarning qo`zg`oloniga ham olib keladi. Jumladan, Sirdaryo bo`ylari aholisi ham o`z ozodliklari uchun qo`zg`olon ko`targanlar. SHu o`rinda mahalliy xalqlar qo`zg`olonlarining sabablariga to`xtalib o`tsak. Qadimdan O`rta Osiyoda dehqonchilik bilan shug`ullangan xalq bilan, ko`chmanchi - chorvachilik bilan shug`ullangan qabilalar yonma-yon yashashgan. Ko`chmanchilarning o`troq aholi mahsulotlariga ehtiyoji va o`z navbatida o`troq aholining chorvachilik mahsulotlariga bo`lgan talabi bu aloqalarning doimiy bo`lishini taqoza etgan. Yunon-makedonlar dehqonchilik vohalarini bosib olishgach, chegaralarda o`zlarining harbiy istehkomlarini barpo etadilar. Va shu tariqa ko`chmanchi-chorvadorlarning o`troq dehqonlar bilan an`anaviy bo`lib kelgan aloqalarini sun`iy ravishda uzib qo`yadilar. Tabiiyki, bu ham dehqonlarga ham ko`chmanchi-chorvadorlarga ham ma`lum qiyinchiliklar olib kelgan. Aynan shunday holatga qarshi ular birgalikda, umumiyl dushmanlariga qarshi qo`zg`olon

¹Арриан Флавий. Анабасис Александра или история паходов Александра Великого...

² Грицина А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. , 1992,126

ko`taradilar. Ularni bostirish uchun salavkiylar davlati lashkarboshisi miletlik Demodamant mil.av. 293-289 yillari Sirdaryo bo`yiga yurish qiladi. Demodamant yurishining marshruti noma`lum bo`lsa ham, u Aleksandr Makedoniyalikning yo`llari bo`ylab yurganligi taxmin qilinadi. Sirdaryo bo`yidagi Aleksandriya Esxata bu yurishda salavkiylarning tayanch punkti bo`lgan bo`lishi mumkin, zero, u erdan ular Yaksart ortida o`z harakatlarini olib borishlari mumkin edi. Shu o`rinda Sirdaryoning nomlanishi masalasiga aniqlik kiritib o`tsak, milodiy I asrda yashab o`tgan rim tarixchisi Piliniyning yozishicha, baqtriyaliklar Sirdaryoni Laksat(Yaksart), skiflar Silis, yunonlar esa Tanaid(hozirgi Volga daryosi) deb atashgan. Miletlik Demodamantning daryo ortiga yurishi bu Tanaid emas boshqa daryo ekanligini isbotlaydi. “Bu erlardan forsiylar va skiflar chegarasi o`tadi” deb yozadi rimlik tarixchi¹.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, miletlik Demodamant Sirdaryo bo`ylarida Aleksandr o`rnatgan hukmronlikni tiklabgina qolmasdan, hatto Sirdaryoni kechib o`tib, daryoning narigi tomonida, “Yaksart orti Antioxiya” shahriga asos solib, u yerda, ma`bud Apollon sharafiga altar ham bunyod etadi. Ushbu shahar Toshkent viloyati Oqqo`rg`on tumanidagi Qanha xarobalari o`rnida bo`lgan deb taxmin qilinadi².

Miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi va miloddan avvalgi II asr boshlarida viloyatimiz hududiga shimoldan va shimoliy-sharqdan ko`chmanchi-chorvachilik bilan shug`ullangan xalqlar kirib kelishadi. Mutaxassislar buni sababini turlicha izohlaydilar. Birinchi sabab mil. av. III asrda tektonik ko`tarilishlar natijasida Sirdaryoning quyi o`zani o`zgaradi va Sirdaryo Orolga endi janubdan emas, shimol tomonidan quyila boshlaydi. Oqibatda, Sirdaryoning Orol dengizi janubiy qismidagi qadimgi irmoqlari Oqchadaryo, Quvandaryo, Inkardaryo quriydi. Natijada, yuqoridagi irmoqlar bo`ylarida qadimdan umrguzaronlik qilib kelgan yarim-o`troq va yarim ko`chmanchi daxlar (daxlar - sarmatlar umumiyl madaniyatiga mansub qabila, chirikrabat madaniyati vakillari) Sirdaryo bo`ylab

¹История Узбекистана в источниках, 1984, 185-6.

² Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент, 16 б

janub tomon siljishga majbur bo`ladilar¹. Daxlarning bir qismi Sirdaryo bo`ylab, viloyatimiz hududiga kelib o`rnashadilar. Xovos tumanidagi Xontepa qadimiy yodgorligidan daxlarga tegishli sopol buyumlar topilganligi fikrimizning dalilidir². Ba`zi mutaxassislar xatto Ustrushona (viloyat hududidagi o`rta asrlarga oid davlat nomi)lik podshohlar nomlanadigan unvon –“afshin” - sarmatlar iborasi bo`lishi mumkin degan fikrni bildiradilar.

Ko`chmanchi-chorvadorlarning viloyat hududiga kirib kelishining ikkinchi sababi, miloddan avvalgi 203-174 yillar oralig`ida Sirdaryo bo`ylarida Markaziy Osiyoning cho`l kengliklarida bir vaqtlar Xitoy imperatorlarini qo`rquvgaga solgan xun va yuechji qabilalari o`rtasida xukmronlik uchun urush bo`ladi. Urushda mag`lubiyatga uchragan yuechjilar Sirdaryodan g`apbga qarab Amudaryo bo`ylari tomon siljiydlari. Tarixdan yaxshi ma`lumki, ular Amudaryo bo`ylarida yunon-Baqtriya davlatini tor-mor etishgan, lekin Amudaryo bo`ylariga hamma yuechjilar ham ko`chishmagan, ularning bir qismi esa Sirdaryo bo`ylarida qolib, qadimgi sirdaryoliklar bilan qo`shilib ketishadi.

Albatta, bu yurishlarni tinch yo`l bilan amalga oshgan deb bo`lmaydi, bunday deyishimizga sabab ko`chmanchilarning yurishlari oqibatida Savat atrofidagi qishloqlar bo`shab qolgan. Xuddi shunday vaziyat Nurtepa shahri aholisi bilan ham sodir bo`ladi. Nurtepaliklar mil.av. II asrda ko`chmanchilar bosqini natijasida o`z shaharlarini tashlab ketishga majbur bo`lishadi³.

SHu bilan birga shimoldan kelgan va o`zlarining qadimgi vatanlarida ko`plab shaharlar barpo etgan ko`chmanchi (daxlar, yuechjilar)lar tomonidan bu erlarda yangi erlar o`zlashtiriladi, yangi shaharlar barpo etilib, o`lkada urbanizatsiyaning rivojlanish jarayoniga yangi turtki beriladi⁴. Natijada Xovos tumanining g`arbiy qismlari ham aholi tomonidan o`zlashtiriladi. Sho`rbuloqsoyning quyi qismida

¹ Сулейманов Р.Х., Гордеева Е. А. К вопросу об особенностях культурогенеза и урбанизации юга Уструшаны //Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт). Республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2019.

² Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент, Фан, 2001, 10 б

³ Беляева Т.В. Нуртепа-городище древней Уструшаны // АРТ. Вып. XXIII. Душанбе, 1994

⁴ Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент, 2010, 15 б

Eski Xovos yodgorligi, Shirinsoyning quyi qismida esa Munchokdepa yodgorligi qad ko`taradi¹.

Miloddan avvalgi III - II asrlarda O`rta Osiyoning shimoliy rayonlarida beshta mayda davlatlardan iborat Qang`yuy davlati ittifoqi yuzaga keladi. Uning tarkibiga Sirdaryo viloyati hududlari ham kirgan.

Viloyat qadimgi aholisining tili sug`d tiliga yaqin Sirdaryo va Amudaryo oralig`ida yashagan aholi tiliga yaqin bo`lgan. Xan davri yozma manbalarida Dovon (Farg`ona)dan to Ansi (Baqtriyagacha) bo`lgan hudud aholisi turli shevalarda gaplashsalarda, bir-biriga yaqin tilda gaplashganlar va o`zaro bir-birlarini tushunganlar deb beriladi².

2§. O`lkaning qadimgi moddiy-madaniyat tarixi.

YOzma manbalarda Sirdaryo viloyatining qadimgi tarixi haqida umumiy tushunchalar berilsada, arxeologik tadqiqotlar tarixiy ma`lumotlarni ancha kengaytirib, Makedoniyalik Aleksandrning yurishidan oldingi davr haqida birmuncha ma`lumotlar beradi. Arxeologik Yodgorliklarning joylashuvi tahlili shuni ko`rsatadiki, qadimgi sirdaryoliklar manzilgohlari suv manbalari yonida joylashgan. Chunki bu joylar sug`orma dehqonchilik uchun qulay bo`lgan. Suv manbalaridan uzoqroqda joylashgan manzilgohlari ham bo`lgan ular manbalarda «atrofdagi qishloqlar» deb yuritiladi³. Biror bir tashqi xavf tug`ilganda “atrofdagi qishloqlar” aholisi mustahkam mudofa devorlariga ega bo`lgan shaharlarga kelib bekinishgan. Qaytariq bo`lsada ta`kidlaymiz, bunday shaharlar jumlasiga yunon tarixchisi Arrian tomonidan tilga olingan etti shaharlarni kiritishimiz mumkin. Ushbu shaharlar o`lkamizning o`sha davrlardagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va diniy markazi vazifasini o`taganlar.

¹ Грицина А.А., Содиков М. Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда. Самарқанд, 2010, 36

² Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Тома I-II. М-Л..1950

³ Арриан Флавий. Анабasis Александра или история паходов Александра Великого...

O`lkamizning qadimgi davriga oid eng yirik va arxeologlar tomonidan nisbatan bir muncha yaxshi o`rganilgan shahar bu Nijonisoy bo`yidagi Nurtepa yodgorligi hisoblanadi¹ Yodgorlik hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu erda Makedoniyalik Aleksandr kelishidan (mil.av. 327 yil) oldin shahar mavjud bo`lganligini unda saroy (ark), mudofaa inshootlari, uy-joylar joylashganligi borasida xulosa qilish imkonini beradi. Shuningdek, Yodgorlik hududida Nijonisoydan o`tkazilgan katta kanal izlarining topilganligi esa, shaharning o`zida sug`orish tizimining mavjud bo`lganligidan, demakki, qadim ajdodlarimiz sug`orma dehqonchilik bilan shug`ullanganliklari haqida dalolat beradi. Nurtepada bu davrga oid, nisbatan ancha katta hajmdagi (5x3,5m), usti engil to`sqliar yordamida yopilgan, turar joy yerto'lalari aniqlangan. Yodgorlikda bundan tashqari karkas tipidagi engil er usti inshootlari ham mavjud bo`lgan. Umuman olganda, Nurtepa me`morchiligida mahalliy joyning mikrorelebfi, tabiiy sharoitidan keng miqyosda foydalanilgan. Yodgorlikning miloddan oldingi VII-VI asrlardagi tashqi devori qurilishida eni 4,25m., balandligi 1,2-1,5m. bo`lgan, qirqib tekislangan tabiiy lyoss ko`tarmadan foydalanilgan. Lyoss ko`tarmaning ichki tomonidan unga parallel holatda eni 2,1m. bo`lgan paxsa devor qurilgan va buning natijasida ular orasida eni 1,4m. ga teng tor yo`lak-koridor barpo etilgan. Nurtepaning dastlabki bosqich qurilishlarida asosan paxsadan, milodiy eradan oldingi IV asrdan boshlab ikki xil o`lchamdagи xom g`ishtlardan foydalanilgan. Xom g`ishtlar kvadrat shaklidagi va to`g`ri to`rtburchak shaklidagi qoliplarda quyilgan. Nurtepa shahristonida arkning shimoliy qismida diniy ibodat markazi, qadimi davr diniy ibodat inshooti - zikkurat mavjud bo`lgan². Nurtepa sopoli ikki guruhga: qo`lda va kulolchilik charxida yasalgan idishlarga ajratiladi. Qo`lda yasalgan sopol idishlar kompleksi, asosan, xurmacha, kosa, qozon va tovamanqoldonlaridan tashkil topgan. Kosa va xurmachalar sifatli, yaxshi obi-tobiga keltirib iylangan, tarkibida biroz mayda qum bo`lgan loydan yasalgan va

¹ Беляева Т.В. Нуртепа-городище древней Уструшаны // АРТ. Вып. XXIII. Душанбе, 1991

² Негматов Н.Н., Беляева Т.В., Общий отчет об исследованиях Нуртепа в 1980-1985 гг. и предложения по дальнейшему изучению и сохранению памятника /АРТ. Вып. XXV. Душанбе, 1994

xumdonda bir tekisda pishirilgan. Idishlarning ustki tomoni silliqlangan va oqish, qizg`ish yoki to`q malla rangdagi angob bilan bo`yalgan. Kosalarning ustki jilosiga alohida e`tibor berilib, ular yaltirash darajasida silliqlanib pardozlangan. Ularning gardishi to`g`ri yoki xiyol ichkariga, xurmachalarning gardishi esa biroz tashqariga qayrilgan, uncha baland bo`limgan bo`g`izi tuxumsimon tanaga, tana esa tekis, yassi tagdonga tutashgan. Qozonlarning tanasi yumaloq shaklda, gardishi to`g`ri yoki bir oz tashqariga qayrilgan. Qozonlarning tagdon qismida ko`p hollarda notekis mato qolip izlari qolgan. Idishlar yon, ichki va tashqi tomonlardan tekislangan. Qozonlarning gardish qismida yoki undan biroz past elka qismida «g`urra»simon quloqlar mavjud. Manqaldonlarning ich tomoni tekislangan, gardish va yon devorlari vertikal, yassi ko`rinishda. Aksariyat hollarda ularning gardishi va tagdoni bir xil o`lchamlarga ega.

Nurtepa yodgorligining qo`lda yasalgan sopol idishlari tuzilish shakli va tayyorlanish texnikasiga ko`ra, Qayroqqum, Burg`uluq cho`l bronzasi va SHimoliy Baqtriya ilk temir davri shaharlarining sopol idishlari kompleksiga yaqindir.

Kulolchilik charxida yasalgan sopol idishlar kompleksi odatda qizil, oqish yoki pushti rangli angob bilan qoplangan. Yirik hajmli shakldagi idishlar: xum va xumchalarning qalinlashgan yuqori qismi tashqariga qayrilgan. Xumlarning tag qismi yumaloq shaklda bo`lib, bularda ham mato qolip izlari uchraydi. Kosalarning gardish diametri keng, tagdoni yassi, silliq. Chuqur tovoqlar yumaloq shaklli va yassi tagli bo`lib, gardishi bir oz ich tomonga qayrilgan. Tashqi tomonidan ular ba`zan gorizontal ko`rinishdagi chiziqlar bilan bezatilgan. Bo`g`iz qismida bir tomonlama ushlagichi bo`lgan yirik kuvachalar ham uchraydi. Bundan tashqari, Nurtepadan kichik va tor tagdonli, tanasi yumaloq shakldagi, gardishi to`g`ri chiqqan qadahlar, baland taglikli vazalar topilgan. Tez aylanuvchi kulolchilik charxida yasalgan mazkur Nurtepa sopol idishlari kompleksini ushbu davrlarga taalluqli SHimoliy Baqtriya kulolchilik komplekslari bilan taqqoslash mumkin. Nurtepa shahristonidan topilgan sopol idishlarga izi tushgan to`qima matolarni laboratoriya sharoitida ilmiy o`rganish, ularning tarkibi, to`qish uslubi, turlari

haqida qiziqarli ma`lumotlar beradi. Tadqiqotlar ustrushonaliklar bu davrda to`qish dastgohlaridan foydalanganliklaridan dalolat beradi.¹

Viloyat qadimgi aholisining asosiy xo`jalik turi sug`orma dehqonchilik va chorvachilik bo`lgan. Soylarda ko`plab sug`orish inshootlari qurilgan. Dehqonchilikda bug`doy, arpa etishtirish asosiy o`rin egallagan. Ushbu davr Yodgorliklarida tosh yorg`ichlar (bug`doyni un qilish uchun), temirdan ishlangan pichoq, o`roqlar ko`plab uchraydi. Togli hududlarda esa lalmi dehqonchilik va bog`dorchilik rivojlangan.

Chorvachilikda mayda shoxli chorva (qo`y, echki) asosiy o`rin egallagan. Shuningdek, tuya, eshak, yovvoyi cho`chqa ham boqilgan.

O`troq aholi hayotida ovchilik ham muhim o`rin tutgan. Ayniqsa jayron ko`p ovlangan. Jayron suyagi o`q-yoy yoki pichoq uchun dasta vazifasini ham o`tagan. Arxeologik qazishmalar jarayonida uylarning biridan kalta pichoq yoki qurolning bir lezviyali temir uchi topilgan. Uning hayvon (sayg`ok yoki jayron) suyagiga qadalganligi uning ovchilikda foydalilanligidan dalolat beradi². Demakki, qadim sirdaryoliklar temir eritishni bilishgan va ularda temirchilik ham rivojlangan bo`lgan.

Tadqiqotlar natijasida viloyatimiz hududidagi qadimgi Yodgorliklardan topilgan sopol idishlardagi mato qoldiqlari esa bu erlarda to`qimachilik ham rivojlanganligi haqida dalolat beradi.

Sopol buyumlar charxda yoki qo`lda yasalgan. Qurol-yarog`lar ichida bronzadan yasalgan o`q-yoylar keng tarqalgan.

Shu davrgacha bo`limgan temir metallurgiyasining o`zlashtirilishi va kulolchilik charxining yoyilishi viloyat hududida miloddan avvalgi 1-ming yillik o`rtalariga kelib xo`jalikning taraqqiyotidan guvohlik beradi.

Aholi o`z uylarini xom g`ishtdan ko`tarishgan. Masalan, mil.av. IV - III asrlarda bunyod etilgan Sag`anaktepa va Sag`anaktepa -1 Yodgorliklarida

¹ Пардаев М, Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент, 2017,756

² Пардаев М, Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент, 2017,756

o`rganilgan uylar kvadrat shaklidagi xom g`ishtdan qurilgan. SHu bilan birga yerto`la uylar ham uchraydi¹.

Viloyatimiz hududi insoniyat tarixidagi eng qadimgi dunyoviy din hisoblangan otashparastlik yoyilgan ilk vatanlardan biri hisoblanadi. Viloyat hududidagi ushbu davr Yodgorliklarida dastlab quyoshda quritilib, so`ngra maxsus idishlar (ossuariylar)ga solingan odam va it suyaklari topilgan. Bunday diniy marosim otashparastlik diniga xos bo`lib, unga ko`ra inson va it o`lganlaridan so`ng teng hisoblanib, maxsus idishlarga joylashtirilgan². Qadimgi ajdodlarimizning diniy qarashlari borasida fikr bildirishda kam sonli bo`lsada, arxeologik materiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Xontepa yodgorligidan (miloddan avvalgi V - III asrlar) xumning ichiga solinib ko`milgan it topilgan. Xum aynan itni unda ko`mish uchun maxsus tayyorlangan, bunday deyishimizga sabab uning tagida havo aylanishi uchun teshik qilingan bo`lgan. Paleozoolog olim A.R.Batirov tahlili natijasida shu narsa aniqlandiki, itning suyaklari ko`mishdan oldin quritilgan ekan. Ma`lumki, zardo`tiylik dinidagi «ilohiyashgan» hayvonlar o`rtasida it alohida rolb o`ynagan. Hattoki, zardushtiylik dinida itni odamga tenglashtirishgan. Ma`lumki, zardo`shtiylar o`limni Anxro-Maynyu – yovuzlik xudosi tomonidan yaratilgan deb hisoblaganlar. Shundan kelib chiqib, odam va it jasadlarini erga ko`mish taqiqlangan. Zero, bu ular nazdida muqaddas erni xarom qiladi deb xisoblaganlar. Shu sababli ular erga ko`milmagan, ularning jasadlari yirtqich qushlar va maxsus o`rgatilgan itlarga eyishga qo`yilgan. So`ngra esa yumshoq etdan xalos bo`lgan va oftob nurida quritilgan suyaklarni ossuariylar(suyakdon, maxsus idish)ga joylashtirganlar.

Mutaxassislar ushbu davrga oid qabrlarda odamlar bilan birga itlar ko`milganligini qayd etishadi³. Itlar qurbanlik sifatida odamlar bilan birga ko`milgan, sababi o`limidan so`ng ham it o`z xo`jayinini yovuz kuchlardan himoya qilishi kerak bo`lgan. Shirinsoy yonidagi qabristondagi qo`rg`onlardan birida ham qurbanlik idishida itning jag` suyaklari topilgan. Bu topilma eramizdan avvalgi IV

¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992

² Авесто. Тарихий адабий таржима. Т., Шарқ. 2001.

³ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области, Ташкент, 1992

-III asrlarga to`g`ri keladi. Nurtepada esa shunga o`xshash urf-odatga binoan ko`milgan odamlar suyaklari topilgan bo`lib, ular ham usha davrga to`g`ri keladi¹. Bu topilmalar zardushtiylikning boshlang`ich bosqichlariga oiddir.

Qadimgi aholining qarashlari haqida sopol ko`zalardagi chiziqli belgilar ham ma`lumot beradi. Bu belgilar - magiya ramzlari bo`lib, ajdodlarimizning hayotida, ularning qarashlarida muhim rolъ o`ynagan. Ko`zalardagi turli xil ramzlar ko`zaning to`la bo`lishi va barakali bo`lishini niyat qilish deb qaralgan. SHu o`rinda viloyat hududidagi dastlabki yozuv ham aynan shu davrda paydo bo`lganligini ta`kidlab o`tish joiz.

Yozma manbalarda qadimgi o`lkamizning qadimgi aholisi qanday atalganliklari to`g`risida ma`lumotlar deyarli uchramaydi. Yunon tarixchilari ularni umumiyl qilib «varvarlar» deb atashgan. Faqatgina rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Rufgina «memakenlarning kuchli qabilasi» o`zlarining bosh shahri (Kiropol)ni himoya qilganliklarini yozib qoldirgan. Manbashunos olim, I.V.Pyankovning fikricha, bu qabila zamirida butun viloyat aholisi nazarda tutilmaga². Biroq, Kvint Kurtsiy Ruf memakenlarni boshqa qabilalar orasida eng qudratlisi bo`lganlar, deydi. Bu qarindosh-ypyg` qabilalar konfederatsiyasi bo`lishi, keyinchalik esa o`lkamiz aholisining etnik negizini tashkil qilgan bo`lishi mumkin. Qisqasi, mamekonlar bizga ma`lum bo`lgan eng qadimgi sirdaryoliklardir.

Arxeologik tadqiqotlar o`lkamizning qadimgi aholisi o`ziga xos moddiy madaniyatga ega bo`lganliklari borasida guvohlik beradi. Demak, qadimgi sirdaryoliklarning o`z madaniyati bo`lgan. Fanda bu madaniyat “Nurtepa madaniyati” deb atalmoqda. Bu o`ziga xos madaniyat bir tomondan qadimgi Chochning Burg`ulqk, Farg`onaning Eylatan, Qayroqqum, So`g`dning Qadimgi So`g`d madaniyatları ta`sirida bo`lgan bo`lsa, ikkinchi tomondan yuqoridagi madaniyatlar ham o`z navbatida qadim ajdodlarimiz madaniyatining ayrim ko`rinishlarini o`zlarida aks ettiradi. Ushbu madaniyatga tegishli Eski Xovos,

¹ Грицина А.А. Уструшанские были. Ташкент, 2000

² Пьянков И.В. Александрия Крайняя в известиях античных авторов //Исследования по истории и культуре ленинабада. Душанбе, 1986, 76 б.

Nurtepa, Xontepa, Sag`anaktepa, Sag`anaktepa 1, Xtoytepa singari bugungi kunda viloyat hududida 10 ga yaqin aholi manzilgohlari aniqlangan¹.

Qadim sirdaryoliklar madaniyatining xarakterli belgilari quyidagilar:

- 1) paxsa va xom g`ishtdan qurilgan xashamatli imoratlar (ark, mudofaa inshootlari) hamda yarim yerto`la tipidagi uy-joylarning birgalikda uchrashi;
- 2) sopolchilikda ushbu davr O`rta Osiyo sopolchiligi uchun xos bo`lgan rang bilan bo`yalgan va tsilindrakonik shakldagi sopol buyumlarning uchramasligi.
- 3) qo`lda ishlangan sopol buyumlarning charxda ipshanganlariga qaraganda ko`pchilikni tashkil etishi².

Ushbu davrda sun`iy cyg`orishga asoslangan dehqonchilikning rivoji, temir metallurgiyasining yuksalishi, kulolchilikda charxning keng qo`llanilishi va viloyat aholisining qo`shni o`lkalar bilan savdo-sotiq munosabatlarning tarakqiy etishi jamiyatda iqtisodiy yuksalishga sabab bo`ladi. Iqtisodiy yuksalish o`z navbatida mil.av. IV-III asrlarda Eski Xovos shaharining paydo bo`lishiga sharoit yaratadi.

3§. O`lkaning qadimgi aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.

O`lkaning ijtimoiy hayoti. Aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullangan qadimiyo Sirdaryo manzilgohlarida mil. av. VII - IV asrlarga kelib, tabaqalanish jarayonlari kuchayib boradi. Bu jarayonni, xususan, Yodgorliklarning markaziy mudofaa qobiliyatlarining mustahkamlanishi, shahar arkinining va uning markaziy qismida joylashgan diniy markaz - otashkada, zikkuratning barpo etilishi, sun`iy suv inshootlarining qurilishida ko`rishimiz mumkin. YUqoridagilar, bu davrga kelib tabaqalanish jarayonidan, xususan, hukmron qatlamning va kohinlarning mavqeyi ancha ortidan dalolat beradi. Fikrimizcha, harbiy demokratiya bosqichida bo`lgan qo`shni daryo orti saklari va Sug`dning ta`siri natijasida, qadimiyo sirdaryoliklar ham bu davrda harbiy konfederatsiyaning so`nggi bosqichi darajasida bo`lgan bo`lishi mumkin³. Yunonlarga qarshi kurashda

¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992.

² Кудратов С. Сардобалар ўлкаси .Тошкент,2010, 14 б

³ Пардаев М., Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент, 2017,1566

qabilalar ittifoqidagi «mamakenlar» qabilasining etakchi mavqeい ham bundan dalolat beradi. Shuningdek, yunon bosqinchilariga qarshi qo`zg`oloning kelishilgan vaqtida boshlanishi, sak qo`shinlarining daryo ortida to`planishi va nihoyat, Maroqanddagi Spitamen boshchiligidagi qarshilik harakatlari, bularning barchasining ayni bir vaqtida sodir bo`lishi ham bejiz emas. Bu voqeliklar bavosita bir-biri bilan uzviy bog`liq bo`lib, undan qadimiy sirdaryoliklar ijtimoiy tuzumi, boshqaruv tizimi, qo`shni hududlar bilan yaqin aloqalari haqidagi ma`lumotlardagi bo`shliqlarni to`ldirish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bizningcha, hududda bu davrda mavjud bo`lgan shahar va manzilgohlar, rivojlangan sug`orish tizimi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, xususan, dehqonchilikdan hunarmandchilik va savdo-sotiqningning ajralib chiqishi, ijtimoiy tabaqalanishdan dalolat beradi¹. Xususan, Munchoqtepa yodgorligi yaqinida topib o`rganilgan qabrlardan (milodning ilk asrlari) olingan boy, qimmatbaho topilmalar, serjilo bezaklar bilan ishlangan hashamatli ma`muriy binolar (III asr) ham hududda yashagan xalqlarning ijtimoiy tarkibi haqidagi ma`lumotlarimizni boyitadi².

Iqtisodiy hayot. Miloddan oldingi I ming yillikning o`rtalarida va undan keyingi davrlarda o`lkamiz hududida yashagan xalqlar turmush tarzining iqtisodiy negizini sug`orma va lalmikor dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi sohalar tashkil etgan. Arxeologik Yodgorliklarda aniqlangan ko`plab topilmalar (tosh yorg`o`choqlar, yirik xumlar, qishloq xo`jaligi mahsulotlari qoldiqlari) ham sug`orma dehqonchilik iqtisodiy hayotda muhim o`rin tutganligidan dalolat beradi. O`lkamiz hududida sun`iy sug`orish tizimining paydo bo`lishi va rivojlanishi buлоqlar, tog` irmoqlari suvlari yordamida mavsumiy sug`orish va lalmi dehqonchilikka asoslangan. Asta-sekinlik bilan qadimiy sirdaryolik dehqonlar oddiy sug`orishga asoslangan suv bo`yidagi sug`orish usulidan, suv manbalaridan uzoq pastlikda joylashgan qo`riq erlarni ham o`zlashtirishga o`ta boshlaganlar. Aftidan mil. avv. I ming yilliklardan boshlab uncha murakkab bo`lmagan irrigatsiya tizimi tarmoqlarini tashkil qilish yordamida doimiy sun`iy sug`orishga

¹ Пардаев М, Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент, 2017, 156

² O'sha asar...156 b

o`ta boshlaganlar¹. Xususan, miloddan oldingi I ming yillik o`rtalaridan boshlab hududdagi shahar va manzilgohlarning paydo bo`lishi ham bu mulohazalarni tasdiqlaydi². Tadqiqotchilar tomonidan hududning qadimiy davriga oid Yodgorliklarida o`rganilgan ko`p tarmoqli sug`orish tizimi qoldiqlari qadim ajdodlarimizning joy relefidan kelib chiqqan holda qo`llanilgan yuksak darajada rivojlangan irrigatsiya texnikasiga ega bo`lganliklaridan dalolat beradi.³

Misol uchun hududdagi eng yirik Yodgorliklardan biri - Nurtepa yodgorligi aholisi, mil. er. avv. V – III asrlar davomida SHahristonsoydan chiqarilgan, 4 kilometr masofani tashkil etuvchi sun`iy kanal yordamida, 800 gektarga yaqin erni, umumiy uzunligi 14 kilometrni tashkil qiluvchi mayda tarmoqlar yordamida sug`organlar.⁴

Yodgorliklarda (Nurtepa, Xontepa) olib borilgan tadqiqotlar natijasida qayd etilgan topilmalar, jumladan, ko`plab yovvoyi va uy hayvonlari suyaklari, qadimiy usrushonaliklar iqtisodiy hayotida ovchilik va chorvachilik, xususan, yaylov chorvachiligi muhim o`rin tutganligidan dalolat beradi.⁵ Ayni vaqtda hududning ko`chmanchi chorvador aholiga qo`shti bo`lganligi, ularning sekinlik bilan bo`lsada, doimiy ravishdagi o`troq turmush tarziga o`tib borishi va hududning qulay tabiiy sharoiti keyingi davrlarda ham bu sohaning keng ko`lamda taraqqiy qilib borishiga imkon yaratib kelgan.

Turar - joylar vazifasini bajaruvchi yerto`la va qisman xom g`ishtdan foydalanim bunyod qilingan yarim yerto`lalar, tabiiy tepaliklarni kesish, xom g`isht va paxsa bilan mustahkamlash yordamida bino etilgan mudofaa devorlari, hashamatli inshootlar (diniy va ma`muriy binolar, saroylar), ulardagи o`ziga xos

¹ Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. (МКУ. Вып. 4). Душанбе, Дониш,1980

² Кудратов С. Сардобалар ўлкаси

³ Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны.(МКУ.Вып.4). Душанбе, Дониш,1980

⁴ Беляева Т.В. О раскопках на Нуртепа и в Ходженте//APT(1985). Вып XXV. Душанбе, Дониш,1994. 20-2166

⁵ Грицина А.А. Северная Уструшана в середине I тысячелетия до н.э.-начале XIII в н.э. АКД. Самарканд,1990, с.11

uslub va rejalar, me`moriy bezaklar bu davrda me`morchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi¹.

O`lkamiz hududidagi qadimgi yodgorliklardan topilgan, qo`lda va kulolchilik charxida yasalgan sopol idishlar kompleksining tahlili shimoldagi chorvador qabilalar bilan yaqin munosabatlar, jumladan, savdo-xo`jalik aloqalari, janubdagagi dehqonchilik hududlarining ta`siri natijasida shakllangan va mahalliy elementlarning ustunligi sezilib turgan o`ziga xos madaniyat - «Nurtepa madaniyati”ning yuzaga kelganligidan dalolat beradi².

Hududda aniqlangan metall erituvchi pech (Nurtepa), zargarlik qoliplari (Munchoqtepa), turli harbiy va xo`jalik qurollari (qilich, pichoq, temir o`roq, jezdan yasalgan yoy uchlari va boshqalar), taqinchoqlar qadimiy sirdaryolik temirchi va zargarlarning ma`danga ishlov berish sohasida muayyan bilim va ko`nikmalarga ega bo`lganliklaridan dalolat beradi.

Sopol idishlaridagi mato parchalari qoldiqlari va izlari, Yodgorliklardan topilgan ko`plab ip yigiruv va to`quv qurollari, xususan, sopol, tosh va suyakdan yasalgan urchuqboshlar, posangilar qadimiy sirdaryoliklarning to`quv dastgohlaridan keng foydalanib, turli darajadagi jun, ipak va ehtimol, paxta matolar ishlab chiqarganliklarini ko`rsatadi.¹

Hududning tabiiy jihatdan qulay o`rni va bu erdan topilgan, boshqa o`lkalardan keltirilgan ko`plab topilmalar (tangalar, qimmatbaho buyumlar, xo`jalik mollari) bu davrda qadimiy sirdaryoliklar savdo faoliyatining rivojlanganligi haqida ma`lumot beradi. Ayni vaqtda, bu topilmalar hududning ichki va tashqi savdo munosabatlaridan, ularning negizida esa savdo yo`llarining rivojlanganligidan ham darak beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, hududdagi qadimiy yo`llar Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan ancha oldin, mahalliy ahamiyatga ega bo`lgan yo`llar shaklida faoliyat ko`rsatgan. Mil. er. avv. II asrga kelib, bu yo`llar Xitoy va O`rta Osiyo davlatlari orasidagi siyosiy, iqtisodiy

¹ O`sha asar...11 б

² Грицина А.А. Нуртепинская культура Уструшаны (локализация и связи).//Буюк ипак йўлидаги Марказий Осиё шаҳарлари. Самарқанд, 1994, 30-32 бб

munosabatlarning yo`lga ko`yilishi natijasida paydo bo`lgan “Buyuk Ipak yo`li”ning shimoliy tarmoqlari shaxobchalari sifatida rivojlanadi¹.

Ma`naviy hayot. O`lka hududidagi qadimgi Yodgorliklaridan topilgan va tadqiqotchilar tomonidan o`rganilgan mahobatli diniy inshoot - zikkurat qoldiqlari, aftidan diniy dunyoqarashlar bilan bog`liq bo`lgan odamlarni qurbanlik qilishning o`ziga xos usullari, ostadonlarga qo`yilgan odam suyaklari (Nurtepa), qabrular va xum ostadonlarda uchrovchi toshlardan ishlangan, yarim qimmatbaho toshlarning agatdan boshqa barchasi, shu yaqin atrofdagi tog`lardan keltirilgan.

SHaffof shisha munchoqlarning shakli turli xil bo`lgan. Ular orasida burchaklari qirqilgan paralilepiped shaklidagi, kub, shar, mo``jaz trubka hamda sirtiga tillo suvi yuritilgan sharcha shaklidagi munchoqlar uchraydi. Shuningdek, boshqa rangli shishalardan yasalgan munchoqlar ham mavjud.

Munchoqlardan tashqari bu davrda bronzadan yasalgan uzuklar, qo`ng`iroqchalar, alohida taqiladigan taqinchoqlar ham uchraydi.

O`lkamizning qadimiyligi davri Yodgorliklari moddiy madaniyati va uning taraqqiyotini kuzatish, o`lkamiz xalqlari ko`p qirrali moddiy madaniyatining qo`shni hududlar bilan yaqin aloqada bo`lgan holda, o`ziga xos yo`nalishda rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Arrian Flaviy. Anabasis Aleksandra ili istoriya paxodov Aleksandra Velikoogo. Per. s drevnegrech. M.E. Sergeenko. -M., -L., izd. AN SSSR. 1962.
- Avesto. Tarixiy adabiy tarjima. T., SHarq. 2001.
- Bartold V.V. Istorya kulturnoy jizni Turkestana. L., 1927.
- Belyaeva T.V. Nurtepa - gorodishe drevney Ustrushani // ART. Vypr. XXIII. Dushanbe, 1994.
- Buryakov YU.F. Genezis i etapi razvitiya gorodskoy kulturi Tashkentskogo oazisa. Tashkent.

¹ Грицина А.А. К сложению городов и поселений на древних путях Северной Уструшаны//На среднеазиатских трассах ВШП. Ташкент, 1990, 18-22 бб

- Bichurin N.YA. Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. Toma I-II. M-L..1950.
- Gritsina A. Arxeologicheskie pamyatniki Sirdarinskoy oblasti. Tashkent. , 1992
- Gritsina A.A. Ustrushanskie bili. Tashkent, 2000
- Gritsina A.A., Sodiqov M. Eski Xovos va unga qo`shni hududlar qadim va o`rta asrlarda. Samarqand, 2010.
- Dovudi D. Kir Velikiy i problema osnovaniya goroda Kiropolya / TD mejdunarodnogo simoziuma «Rоль Истарафшана (Уратюбе) в истории цивилизации народов Центральной Азии. Душанбе. 2002. 113-114bb.
- Negmatov N.N. Istoriko-geograficheskiy ocherk Ustrushany s drevneyshix vremen po X v.n.e. // MIA.№37. M.,-L., 1953.
- Negmatov N.N., Belyaeva T.V. Problemy nachalnogo etapa urbanizatsii Ustrushany // Po materialam Nurtepa // Drevnie tsivilizatsii Vostoka. Tashkent, Fan, 1986.
- Negmatov N.N., Belyaeva T.V., Obshiy otchet ob issledovaniyakh Nurtepa v 1980-1985 gg. i predlojeniya po dal`neyshemu izucheniyu i soxraneniyu pamyatnika /ART. Выр. XXV. Dushanbe, 1994.
- Pardaev M., To`ychiboev B.B. Ustrushona qadimda va ilk o`rta asrlarda. Toshkent, 2017.
- Ryb'yanov I.V. Aleksandriya Kraynaya v izvestiyakh antichnykh avtorov / Issledovaniya po istorii i kul'ture Leninabada. Dushanbe,1986.
- Istoriya Uzbekistana v istochnikakh, 1984, 185-b.
- Suleymanov R.X., Gordeeva E.A. K voprosu ob osobennostyakh kulturogeneza i urbanogeneze yuga Ustrushany //Qadimiy Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasi tizimida (siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot). Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Jizzax, 2019.
- Litvinskiy B.A. Problemi etnicheskoy istorii drevney i rannesrednevekovoy Fergany // Istoriya i kultura narodov Sredney Azii. M., 1976. 51b.
- Qudratov S. Sardobalar o`lkasi. Toshkent. Fan. 2001.

3 BOB. O`LKADA SHAXARSOZLIK MADANIYATINING PAYDO BO`LISHI.

1§. Nurtepa madaniyati Yodgorliklari

2§. Eski Xovos yodgorligi

Tayanch iboralar: Nurtepa madaniyati, SHirin, Mug`tepa, Xontepa, Sag`anaqtepa I,II Yodgorliklari, Qayroqqum madaniyati, moddiy madaniyat, ko`chmanchi chorvadorlar, shaharsozlik me`morchiligi, mudofaa inshootlari, Xitoytepa, Munchoqtepa, Eski Xovos.

1§. Nurtepa madaniyati Yodgorliklari

Respublikamiz mustaqillikka erishganligi sharofati tufayli tariximizning ko`pgina masalalari singari yurtimiz hududida shahar va davlatlarning paydo bo`lishi masalasida ham haqqoniy va xolis fikrlar bildirish imkoniga ega bo`ldik. Bugungi kunda yurtimiz hududida davlatchilikning paydo bo`lishi masalasini o`rganish tarixchilarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. So`nggi yillarda O`zbekiston davlatchiligin o`rganish borasida bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Farg`ona vohalarida davlatchilikning paydo bo`lishi masalasida anjumanlar yushtirilib, ularda yurtimiz tarixiy - geografik o`lkalarida davlatchilikning paydo bo`lishi masalasida yangi, ilmiy asoslangan fikrlar bildirildi. Mutaxassislar tomonidan bildirilayotgan, O`zbekiston davlatchiligining 3-4 ming yillik tarixga ega ekanligi to`g`risidagi qarashlar, fikrimizning dalilidir.

Biroq Sirdaryo vohasida davlatchilik tizimining paydo bo`lish masalasi tarixchilarimiz e`tiboridan chetda qolib kelmoqda. Viloyat hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ijodiy yondoshish, Sirdaryo viloyati hududida ilk shahar va davlatlarning paydo bo`lish masalasida yangi fikrlarni bildirish imkonini bermoqda.

Ma`lumki, O`rta Osiyoning janubiy hududlarida miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida, shimoli - sharqiy hududlarida (Farg`ona, Toshkent va Sirdaryo

viloyati) miloddan avvalgi 1 ming yillik boshlarida aholining voha-voha bo`lib joylashish tizimi shakllanadi. Aholining voha-voha bo`lib joylashish tizimi deganda biror-bir daryo yoki soy bo`yida aholi manzilgohlarining kompakt (zich) joylashishiga tushuniladi. Aholi manzilgohlarining voha-voha bo`lib joylashishi ushbu hududda sug`orishga asoslangan dehqonchilik rivoji bilan izohlanadi. Dehqonchilik ayniqsa sug`orma dehqonchilikning paydo bo`lishi davlatchilik tizimi shakllanishida muhim o`rin tutadi. Zero, sug`orishga asoslangan dehqonchilik rivoji murakkab suv inshootlari qurilishini taqozo etgan. O`z navbatida, sug`orish inshootlarining qurilishi esa ko`plab aholi uyushmasini talab qilgan. Ko`pchilik axolini majburiy ravishda sug`orish inshootlari qurilishiga jalg etish markazlashgan boshqaruvni, aniqrog`i davlatning paydo bo`lishini taqozo kilgan.

Viloyat hududidagi eng qadimgi aholi manzilgohlari ham sug`orish uchun qulay bo`lgan daryo va soy bo`ylarida paydo bo`lgan. Dastlabki aholi viloyat hududidagi Xo`jamushkentsoy, Sho`rbuloqsoy, Mug`olsoy, Tog`obsoy, Sarmichsov, Sirdaryo bo`ylarida istiqomat qilgan. Arxeologik tadqiqotlar dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Xo`jamushkentsoy va Sho`rbuloqsoy bo`ylarida bundan 3-4 ming yillar oldin paydo bo`lganligi haqida guvohlik beradi. Bu tabiiy, chunki yuqoridagi soylar sersuv, ularning atrofidagi erlar unumdon bo`lgan. Shuningdek, bu vohalarning buyuk savdo yo`lida joylashganliginini ham yoddan chiqarmasligimiz lozim¹.

SHo`rbuloqsoy bo`yida joylashgan Yodgorliklar ichida eng qadimgisi Nurtepa yodgorligi hisoblanadi. U miloddan avvalgi 1 ming yillik o`rtalarida qad ko`taradi. “Nurtepa madaniyati” deb nomlanuvchi madaniyatga Nurtepa, Xontepa, Sag`anaktepa, Sag`anaktepa 1, Xtoytepa singari qator aholi manzilgohlari kiradi².

Hududning qadimiy davriga oid eng yaxshi o`rganilgan Yodgorlik Xovotog yakinidagi yirik, mustaxkamlangan Nurtepa shaxristoni yodgorligi bo`lib, bu

¹ Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент. 2010, 11-15 бб.

² Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

Yodgorlik 1979 yilda aniqlangan¹. Hududning qadimiy (mil. er. ol. VII - mil. er. ol. I asrlar) davriga oid bo`lgan bu Yodgorlikda XX asrning 80–90 yillarida olib borilgan keng ko`lamdagi qazuv tadqiqot ishlari hududning boy moddiy madaniyati: me`moriy inshootlari, kulolchilik, to`qimachilik, temirchilik xunarmandchiligi (sopol va temirchilik xumdonlari, kulolchilik charxlari), rivojlangan sun`iy sug`orma tizimi va yuksak ma`naviy dunyoqarashi xaqida qimmatli ma`lumotlar beradi². "Qadimiy Ustrushona" hududi haqida mukammal va imkon darajasida to`liq ma`lumot berishi mumkin bo`lgan bu noyob Yodgorlikning zamonaviy inshootlardan xoli hududda joylashganligi, bu erda keng ko`lamdagi qazuv tadqiqotlar olib borish imkoni beradi.

Hududning qadimiy davriga oid qatlamlar aniqlangan Yodgorliklardan Savatning qishlog`idan shimoliy qismida joylashgan, mustaxkamlanmagan Xontepa yodgorligida (mil. er. ol V - III asrlar) va bu Yodgorlikdan 0,4 - 0,45 km. janubda joylashgan Sag`anaq - tepa, Sag`anaq - tepa I Yodgorliklari (mil. er. ol. IV - III asrlar) hududning arxealogik - topografik tasvirini o`rganish jarayonida o`rganildi³. Bu Yodgorliklarda tadqiqotlar asosan shurf tashlash yo`li bilan olib borildi.

Kultepa qishlog`idan (Zomin tumani) 10 km. janubda aniqlangan Xitoytepa yodgorligida qazuv tadqiqot ishlari olib borilib, bu Yodgorliklarning quyi qatlamlardan olingan moddiy kompleks namunalarining taxlil asosida mil. er. ol.

¹ Беляева Т.В. / АО 1979. М: Наука, 1980. с. 470-471.

² Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Общий отчет об исследованиях в Нуртепе в 1980-1985 гг. и предложении по сохранению памятника. / АРТ Вып. XXV. Душанбе. 1994. с. 23-27; Бегматов Б.Я., Мамаджанова М.Д., Рахимов Б.Т., Умаров Х.Х, Эшонкулов У. Работы Северо-Таджикской экспедиции. АО 1986 г. М.: Наука, 1988. с. 515-516.

³ Грицина А.А.. Археологические исследования в Северной Уструшане. // Я.Гулямов и развитие исторической наук в Узбекистане. Ташкент. 1988. с. 33-35; Буряков Ю.Ф., Грицина А.А., Пардаев М.Х., Тихонин М.Р. Работы Чач-Уструшанской экспедиции. / АО 1986. М. Наука, 1988. С. 493-496; Грицина А.А., Сверчков Л.М. Археологические исследования в Сырдаринской области / ИМКУ. Вып. 23. Т.: 1990. С. 114-121. Грицина А.А. Северная Уструшана в середние 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в. н.э. / АКД. Самарканд, 1990.

III - II asrlar bilan davrlashtirildi¹. Yodgorlikda tadqiqotlar asosan shurflash yo`li bilan olib borildi.

XX asrning 80-90 yillari hududning qadimiy davriga oid bir qator yodgorliqlar aniqlanib ilmiy adabiyotlarda tilga olinib kelinganligini ko`rishimiz mumkin². By Yodgorliklar XX asrning 70 - yillarda A. H. Bilolov tomonidan ilk bor aniqlangan va o`rganila boshlangan Tog`ayoqsoy qirg`og`ida joylashgan Kallaxona shaxristoni yodgorligi (mil. er. av. II – I asrlar), 1985 yilda V. A. Jukov tomonidan aniqlangan Qizili qishlog`i yaqinida joylashgan CHig`moytepa shaxristoni yodgorligi (mil. er. av. VI - III asrlar). 1986 yilda aniqlangan Uyas qishlog`i yaqinidagi shaxriston xarobalari (mil. er. av. VI - IV asrlar), 1988 yilda G`onchining shimoliy-sharqida aniqlangan Yodgorlik (mil. er. av. VI - IV asrlar), Qizili qishlog`i o`rnidagi Mulchoqtepa shaxristoni yodgorligi (mil. er. av. IV - mil. XIII asrlar), bu qishloqdan 5 km masofada joylashgan Baxmaltepa manzilgohi Yodgorliklari bo`lib, XX asrning 80 - yillar so`ngida olingen materiallarning qayta taxlili asosida Yodgorliklar qayta davrlashtirildi³. Bu Yodgorliklar hududning qadimiy davriga oid bir qator dolzarb muammolarning echimiga sezilarli ta`sir ko`rsatish imkonini berar edi.

Hududning qadimiy davrga oid Yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar jarayonini kuzatar ekanmiz, tadqiqotchilar faoliyatida bu Yodgorliklarni davriylik asosida 2 guruxga ajratilganligini ko`rishimiz mumkin. 1- gurux Yodgorliklari (mil. er. av. VII - IV asrlarga oid Nurtepa, Kallaxona, Uyas, CHig`moytepa, Mulchoqtepa, Baxmaltepa, Xontepa, Sag`anaqtepa, Sag`anaqtepa I) ni o`rganish jarayonida, tadqiqotchilar faoliyatida “Nurtepa madaniyati” deb nomlangan madaniyat vakillari hududning qadimiy davri, siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy hayoti muammolarini o`rganishda muxim o`rin tutadi.

¹ Грицина А.А. Северная Уструшана в середние I тысячелетия до н.э. - нач. XIII в. н.э. / АКД. Самарканд., 1990; Грицина А. А. Эски Зомин. Т.: Фан, 1994. с. 28-38.

² Грицина А.А. Археологические памятники в Сырдаринской области. Т.; Фан. 1990.

³ Беляев Т. В. К исторической топографии городов Уструшаны. / Древняя и средневековая археология Средней Азии. Т.: Фан, 1990. С. 76-85.

2-gurux Yodgorliklari (mil. er. ol. III – mil er. ning III asrlariga oid Eski Xovos, Xitoytepa, Qo`rg`ontepa (Zomin)da olib borilgan ilmiy izlanishlar va arxeologik tadqiqotlar natijalari, hududning mil. er. ol. III asr mil. eramizning III asrlari iqtisodiy, ijtimoiy hayoti muammolarini xaqida ma`lumotlar beradi.

2§. Eski Xovos yodgorligi

Eski Xovos yodgorligi Xovos tumani Xovosobod qishlog`ida joylashgan. Yodgorlikda hayot mil.av. IV-III asrdan to 1953 yillargacha davom etgan. SHahar hududi 10 getktarni tashkil etgan bo`lsa, shundan 2 getktari ark hududiga to`g`ri kelgan. Saqlanib qolgan balandligi 15 metr.

Eski Xovos Samarcanddan sharqqa yo`nalgan yo`lning chorrahasida joylashgan. Undan bir tarmoq Xovosdan Kurkat orqali Xo`jand va Farg`onaga, ikkinchisi tarmoq qadim Chochga olib borgan. Choch yo`nalishda ikkita yo`l bo`lgan biri nisbatan uzoqroq lekin xavfsiz yo`l - to`g`ri Sirdaryo kechuvidan so`ng shimolga, Benaket(SHohruhiya) shahriga va undan esa, Xarashkentga va keyin Choch poytaxti Binketga borgan. Ikkinci yo`l qisqa daryodan o`tmasdan, uning chap qirg`og`i bo`ylab, o`rta asrlarda Xushket deb nomlangan hozirda Sayxunobod tumanining Nurota yodgorligicha borib, so`ngra kechuvidan Benaket(SHohruhiya) ga o`tilgan. Bu haqda IX-X asrda yashab o`tgan arab geograflari Xordadbeh va Istaxriylar yozib qoldirishgan. YUqoridagilardan ko`rinib turibdiki, Eski Xovos yodgorligi Farg`ona, Choch va So`g`dda savdo yo`nalishlari chorrahasidagi qulay va muhim manzil vazifasini bajargan.

Eski Xovos uchun Sho`rbuloqsoydan kanal qazib chiqarilgan. Ushbu kanal 1812 yilgacha faoliyat ko`rsatgan.

Eski Xovosning birinchi tadqiqotchilari – Turkiston havaskor arxeologlar to`garagi (TKLA) a`zolari — unga bir necha bor e`tibor bergenlar. N. Likoshinining Mirzacho`llik keksalardan yozib olgan hikoyasiga ko`ra, o`z vaqtida SHahristondan Xovosga tomon oqqan katta daryo orqali kemalar qatnagan. Keyinchalik yirik mutaxassis, O`rta Osiyo tarixining bilimdoni, professor M. E. Masson Mirzacho`l markazidagi katta tepalikni o`rta asrlardagi Xovosning

markaziy xarobalari deb talqin qiladi. Ammo u vaqtarda tepe ustida ko`plab aholi yashagan (dastlab tepe ustida atrofi suv to`ldirilgan xandak bilan o`rab olingan Beklik qal`asi va keyinchalik 1953 yillargacha esa, Eski Xovos qishlog`i uylari joylashgan), oqibatda Yodgorlikda arxeologik izlanishlar olib borish amalda mumkin bo`lmagan.

YOdgorlik 1988-1989 yillarda O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Sirdaryo arxeologiya otryadi tomonidan o`rganilgan. Yodgorlikning yoshini aniqlash maqsadida olib borilgan qazishmalarni, 10 metr chuqurlikdan suv chiqib ketganligi sababli nixoyasiga etmay tugatishga majbur bo`lingan. 10 metr chuqurlikda mil. av. 1 asrga oid madaniy qatlamlar aniqlangan.

Xuddi shu otryad tomonidan 2003 - 2004 yillarda Yodgorlik hududida mil. av. III asrga oid bir yarim g`ishtdan ko`tarilgan devor qoldiqlari va qadimgi Farg`onadagi Eylatan madaniyati (mil. av. VI - SH asrlar)ga xos, lekin mahalliy kulollar tomonidan yasalgan sopol idishlar topildi

O`zbekiston Arxeologiya instituti Sirdaryo otryadning ushbu Yodgorlikda 2014 yil olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida mil. av. II - I asrga oid Anaxita haykalchasi va XII asrga oid yashil rangda sirlangan qora chiroq topildi. Ushbu topilmaning ahamiyati shundaki, uning baldog`ida xumo qushi tasviri tushirilgan. Yodgorlik hududida arxeologik tadqiqotlar davom etmoqda.

Eski Xovos tarixi yozma manbalarda Alesandr Makedonskiyning O`rta Osiyoga yurishi bilan bog`liq tarixiy voqealar sababli kengroq yortilgan. Ma`lumki, mil. av. 329 - 327 yillari O`rta Osiyoga yurish qilgan Aleksandr Makedonskiy So`g`d poytaxti Marakandani bo`ysindirgach, Sirdaryo tomon yurish qiladi. Yo`lda u Ustrushonaning tog`li fuqarolari qarshiligiga uchraydi. Mahalliy xalq uning g`alla, oziq-ovqat to`plash maqsadida yon-atrofga yuborgan otryadini qirib tashlaydi, Aleksandrning o`zi ham bu erlarda umrida birinchi bor yarananadi. Aleksandr katta qiyinchilik bilan bu erlarni bosib olgach, erksevr mahalliy xalqlarning hujumidan cho`chib, 17 kunda (ba`zi ma`lumotlarga ko`ra 20 kun) hozirgi Xo`jand o`rnida kal`a qurdiradi. Uni Aleksandriya Esxata (CHekka Aleksandriya) deb ataydi. SHu orada Aleksandrning shahar qurish va daryo

ortidagi saklarga qarshi daryodan o`tib, jangga ketganligidan foydalangan mahalliy xalq yunonlarga qarshi qo`zg`olon ko`taradi. YUnion tarixchi Arrianning yozishicha “daryoga qo`shni yashayotgan “yovvoyilar” shaharlarda turgan yunon bo`linmalarini bosib olib qirib tashlaydilar va bu shaharlarni yanada mustahkamlay boshladilar. Bu qo`zg`olonda ko`pgina so`g`diylar ham qatnashadilar”. Qo`zg`olondan xabar topgan Aleksandr zudlik bilan qo`zg`olonne bostirishga urinadi. U o`zining tajribali va sodiq sarkardasi Kraterni “vahshiylarning” eng katta shahri Kiropol (Nijonisoy bo`yidagi Xovotak(quyosh etagi) maskani o`rnidagi “Nurtepa” yodgorligi deb taxmin qilinmoqda) ga yuboradi, o`zi esa qarorgoh yaqinidagi G`oz (Tojikistonning Nov shahri o`rnida deb taxmin qilinadi) shahri tomon yo`l oladi.

Ma`lumotlarda yozilishicha Aleksandr mahalliy aholiga tegishli bo`lgan ettita qal`adan 5 tasini 2 kun ichida nisbatan osonlik bilan zabit etadi. Qolgan ikkita qal`ani hiyla ishlatib, lahm kavlab, er ostidan kirib borib istilo qilgan.

Keyinchalik ushbu hududlar mil. av. III asrning oxirlarigacha bo`lgan davrlarda salavkiylar davlati tarkibida bo`lgan. Mil. av. III asr o`rtalarida salavk shohlaridan Antioxning lashkarboshisi Miletlik Demodamant bu erlardan o`tib, Yaksartning narigi qirg`og`idagi saklar bilan urishgan va hozirgi Oqqo`rg`on tumani hududida Qanqa(SHohruhiya) shahriga asos solgan. U erda xudo Appolon sharafiga atab altar bunyod etadi.

Eski Xovos yodgorligi aholisi mil.av. III asrning oxirlaridan milodiy IV asrlargacha bo`lgan davrda Qang`uy davlati tarkibida bo`lgan.

Xovos so`zining kelib chiqishi borasida turli rivoyatlar mavjud. Ulardan birida aytilishicha, SHahristonda (ilk o`rta asrlarda Ustrushonaning poytaxti bo`lgan Bunjikat, hozirda Tojikiston hududida) shoh Qahka bo`lib, uning Xavasxon ismli qizi bo`lib, u qattiq bosh og`rig`i dardiga mubtola bo`lgan. Kunlardan bir kuni shoh qizi bilan Xovos erlarida ov qilgani keladi. Kelgan kunlarining ertasiga shoh qizi kuchli bosh og`rig`idan forig` bo`ladi va shoh qizining sharafiga qishloq nomini “Xovos” deb atagan. Qizi uchun u SHahristondan kanal qazib kelishni buyurgan. YAna bir rivoyatda aytilishicha,

Amir Temur bahorda bu erlarda bo`lgan va “havas qilsa arziyidigan” joy ekan degan. (SHu o`rinda “Xovotak” so`zi “Quyosh etagi” degan ma`noni berar ekan balki “Xovos” degani “quyoshli” degan ma`noni anglatar)

Eski Xovos o`rta asr manbalarida ham tilga olinadi. Masalan, XI asr boshlarida Xovos Somoniylar sulolasining so`ngi vakili Muntasir va qoroxoniy iloqi o`rtasidagi jang munosabati bilan tilga olinadi. Manbalarda yozilishicha, 1003 yil somoniylar davlatining amiri Abduibrohim bilan qoroxoniyalar iloqi Nosir ibn Ali o`rtasida Xovos qal`asi yonida jang bo`ladi. Jangda amir Abduibrohim g`olib chiqadi. Rivoyatlarda Abduibrohimni asli xovoslik bo`lgan deyishadi. Janglarda engilmaganligi sababli unga al Muntasir (arabcha Engilmas)degan nom berishgan. Keyinchalik ushbu sarkarda Turkmanistonning Kerki shahri yaqinida o`ldirilgan. Kerki shahrida unga atab ulug`vor maqbara qurilgan.

Akademik V. V. Bartol`dning yozishicha, 1366 yil Amir Temur amir Xusaynga qarshi kurashda Hisor xokimi Kayxusrav bilan yaqinlashadi, Kayxusrav Toshkentdan 2 ming kishilik qo`shini bilan kelib, Xovosda turgan amir Temurga qo`shiladi. SHundan so`ng Nizomiddin SHomiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Amir Temur hozirgi Mirzacho`l erlarida amir Xusaynning son jihatdan ustun bo`lgan qo`shinini tor-mor etgan.

Xovosda Zahiriddin Muhammad Bobur ham bo`lgan. “Boburnoma”da yozilishicha Bobur SHohruhiya va O`ratepa oralig`idagi Xovos qishlog`idagi jangda Umar shayx Sulton Ahmad Mirzodan mag`lub bo`lgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Xovosda Abdurahmon Jomiy va Xoja Ahror Valiy bo`lganlar.

18-asrda Samarqand o`zaro urushlar natijasida xuvullab qolganda u erga xovosliklar ham ko`chib borishgan va u erda o`zlarining guzarlarini tashkil qilganlar.

Buxoro amiri Muzaffar chor Rossiyasi qo`shinlaridan Sirdaryo sohillarida engilgan(1866 yili) va qochib, kechqurin Xovos qishlog`ida to`xtab, 200 ming

kishilik qo`shinini mahalliy aholining uylariga joylashtirgan. Eski Xovosda hayot 1953 yilgacha davom etadi¹.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Belyaeva T. V. O raskopkax na Nurtepa i v Xodjente // ART(1985). Vypr XXV Dushanbe, Donish, 1994. S. 20-21.

Bilalov A. I. Iz istorii irrigatsii Ustrushanы. (MKU. Vypr.4). Dushanbe, Donish, 1980.

Begmatov B.YA., Mamadjanova M.D., Raximov B.T., Umarov X.X, Eshonqulov U. Raboty Severo-Tadjikskoy ekspeditsii. AO 1986 g. M.: Nauka, 1988. s. 515-516.

Belyaev T. V. K istoricheskoy topografii gorodov Ustrushanы. / Drevnyaya i srednevekovaya arxeologiya Sredney Azii. T.: Fan, 1990. S. 76-85.

Belyaeva T.V. / AO 1979. M: Hayka, 1980. s.470-471.

Buryakov YU.F., Gritsina A.A., Pardaev M.X., Tixonin M.R. Raboty CHach-Ustrushanskoy ekspeditsii. / AO 1986. M. Nauka, 1988. S. 493 – 496.

Gritsina A.A.. Arxeologicheskie issledovaniya v Severnoy Ustrushane. // YA.Gulyamov i razvitiye istoricheskoy nauk v Uzbekistane. Tashkent. 1988. s. 33-35.

Gritsina A. A. Severnaya Ustrushana v seredine I tysyacheletiya do n.e. - nachale XIII v n.e. AKD. Samarkand, 1990, s.11.

Gritsina A. A., Sverchkov L. M. Arxeologicheskie issledovaniya v Syirdarinskoy oblasti / IMKU. Vypr. 23. T.: Fan. 1990. S. 114-121.

Gritsina A. A. K slojeniyu gorodov i poseleniy na drevnih putyax Severnoy Ustrushanы // Na sredneaziatskix trassax VSHP. Tashkent, 1990, 18-22 bb

¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдаринской области. Ташкент, 1992. Грицина А.А., Иваницкий И. Д., Рахимов К. Раскопки на городище Эски Хавас //Археологические исследования в Узбекистане - 2003 г. Вып. 4. Ташкент, 2004. Грицина А.А. Городища Эски Хавас по результатам раскопок 1988 – 1989 гг. // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. Самарканд-Бишкек, 2005. Грицина А.А., Абдулгазиева Б., Богомолов Г.И., Рахимов К. Работы Хавасского отряда // Археологические исследования в Узбекистане - 2004-2005 гг. Ташкент, 2006.

- Gritsina A. A. Arxeologicheskie pamyatniki Syrdar'inskoy oblasti. Tashkent, 1992.
- Gritsina A. A. Eski Zomin. T.: Fan, 1994. s. 28-38.
- Gritsina A. A. Nurtepinskaya kultura Ustrushanly (lokalizatsiya i svyazi). // Buyuk ipak yo`lidagi Markaziy Osiyo shaharlari. Samarqand, 1994, s. 30-32.
- Gritsina A.A., Ivanitskiy I. D., Raximov K. Raskopki na gorodishe Eski Xavas // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane-2003 g. Vyp. 4. Tashkent. 2004.
- Gritsina A. A. Gorodischa Eski Xavas po rezul'tatam raskopok 1988-1989gg. // TSivilizatsii skotovodov i zemledelestsev TSentral'noy Azii. Samarkand-Bishkek. 2005.
- Gritsina A.A., Abdulgazieva B., Bogomolov G. I., Raximov K. Raboty Xavasskogo otryada // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2004 – 2005gg. Tashkent. 2006.
- Pardaev M., To`ychiboev B.B. Ustrushona qadimda va ilk o`rta asrlarda. Toshkent, 2017.
- Qudratov S. Sardobalar o`lkasi. Toshkent. 2010.
- Negmatov H. H., Beleyaeva T. V. Obshchiy otchet ob issledovaniyah v Nurtepe v 1980-1985 gg. i predlojenii po soxraneniyu pamyatnika. / ART. Vyp. XXV. Dushanbe. 1994. s. 23-27.

4 BOB. O`LKA AHAMONIYLAR VA YUNON-MAKEDON XUKMRONLIGI DAVRIDA

1§. O`lka ahamoniylar xukmronligi davrida

2§. O`lka A.Makedonskiy bosqini davrida

Tayanch iboralar: Ahamoniylar imperiyasining XII satrapligi, «Temir darvoza», Aleksandriya Esxata shahri, «daryo orti saklari», Kiropol shahri, Gaza shahri, Bag'a shahri, Qang` konfederatsiyasi.

1§. O`lka ahamoniylar xukmronligi davrida

YUqorida ta`kidlab o`tganimizdek bu hudud qadimda qanday nom bilan atalganligi noma`lum. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari «qadimiy Ustrushona» hududi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti haqidagi yozma manbalar ma`lumotlaridagi bo`shliqlarni to`ldirib, masalaning umumiyligini yagona tarixiy tasvirini yaratishga imkon beradi. Qadimgi Eron epigrafik manbalari, yunon va rim mualliflarining asarlari, miloddan oldingi 546-539 yillar oralig`ida Ahamoniylar davlatining hukmdori Kir II (er. avv. 558-529 y) O`rta Osiyoning Sirdaryo havzalarigacha bo`lgan hududlarni, shu jumladan, «qadimiy Ustrushona» o`lkasini ham bosib olganligi haqida ma`lumotlar beradi. Aftidan, «qadimiy Ustrushona» hududi, Markaziy Sug`dning tarkibiy qismi sifatida Ahamoniylar imperiyasining XII satrapligi tasarrufida bo`lgan.¹ XII satraplik «baqtriyaliklardan to Egllar erigacha» bo`lgan hududni o`z tobelligiga olgan.² Egllar (Ptolimey bo`yicha augalar) Sirdaryo janubida yashagan qabilalar bo`lib, V.V.Struve ularni tog`lik ustrushonaliklarning ajdodi, deb tariflaydi. A.N.Bernshtam ustrushonaliklarni parikonlar va «sak tigraxauda»lar bilan birgalikda X satraplik tasarrufida bo`lgan, Kiropolъ satraplikning bosh shahri sifatida faoliyat ko`rsatgan, degan fikrni bildirgan. Lekin ushbu fikr ilmiy jamoatchilik orasida keng miqyosda muomalaga kirmagan. CHunki, Davonning (parikonlar) Ahamoniylar sultanatiga qo`shib olingani haqida aniq fikr yo`q. Bundan tashqari, qo`zg`olon ko`targan 7 shaharning biri Jizzax o`rnida bo`lgan, degan taxminiy qarash ham o`tgan asrda mavjud edi. Darhaqiqat, yozma manbalar Kir II tomonidan imperianing shimoliy chegaralarini mustahkamlash maqsadida 7 ta shahar qurdirganligi haqida ma`lumot beradi. Ularda bu shaharlardan faqat ikkitasining nomi, Kir nomi bilan atalgan, hududdagi eng yirik Kiropolъ shahri va Gazaning nomlarigina keltiriladi. Ammo arxeologik tadqiqotlar natijasida hududda aniqlangan bu davrga oid Yodgorliklar sonining birmuncha ko`pligi sababli,

¹ Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. 1957. С.127-128., Литвинский Б.А. Саки которые за согда. // 1960. С. 91-92.

² Геродот. История. (В 9 кн). –М.: 2002. С.209.

tadqiqotchilar, muarrixlar tomonidan faqat asosiy, yirik shaharlar tilga olingan, deb hisoblaydilar.¹

2§. O`lka A.Makedonskiy bosqini davrida

Miloddan oldingi 329 yilda «qadimiy Ustrushona» hududi Aleksandr Makedonskiy tomonidan zabit etilib, uning imperiyasiga qo'shib olinadi. Asosan, shu yurishlar bilan bog'liq tarixiy voqealar tasvirini o'z ichiga oluvchi yozma manbalar ma'lumotlari tadqiqotchilar oldiga bir qancha muammolarni qo'yadi. Xususan Aleksandrning Sirdaryo qirg'oqlariga qadar kirib kelgan yo'l, bu hududdagi «tog`liklar» bilan bo`lgan jang, CHekka Aleksandriya – Aleksandriya Esxata shahrining joylashgan o'rni, «ustrushonalik»larning yunonlarga qarshi qo`zg`olon ko'targan shaharlar bilan bog'liq voqealar shular jumlasidandir. Aleksandr Sug`dning yuragi - Maroqandni (Samarqand) deyarli jiddiy janglarsiz egallagach, ahamoniylar imperiyasining shimoliy chegarasi, Tanais(Sirdaryo) qirg'oqlari yo`nalishida harbiy harakatlarni boshlaydi. YOzma manbalar bu yo`lda Aleksandr «tog`liklar»ning shiddathi qarshiligiga uchraganligi haqida ma'lumot beradi. Aftidan, Maroqandni jangsiz topshirilganligidan norozi bo`lgan bir qism so`g`dliklar bosqinchilarga zarba berish maqsadida bu erga qochib kelishib, «tog`liklar» deb nomlanayotgan, «qadimiy ustrushonaliklar»ning qabilalar ittifoqi bilan yunonlarga qarshi jangga hozirlik ko`radilar. Ammo bu jangning aynan qaerda bo`lganligini aniqlash uchun, yunonlarning Maroqanddan Tanais–Sirdaryoga qaysi yo'l orqali borganliklarini aniqlash lozim. Tadqiqotchilar o`rtasida muammo bo`lib kelayotgan aynan shu masala xususida bir qancha qarashlar mavjud. Ulardan biri, «Temir darvoza» va Jizzax orqali, ikkinchisi, hozirgi Ravotsoy, O`samat, SHaybek, Baxmal qishloqlari orqali, uchinchisi, Morguzardagi CHubar davonini oshib o`tib Ko`rpasoy va Ravotsoy orqali. Ba`zi tadqiqotchilar birinchi va ikkinchi yo`llarda bu davrlarga oid Yodgorliklarning uchramaganligi sababli, uchinchi yo`lga ko`proq moyillik bildiradilar. O`z fiklarining isboti uchun bu erda aniqlangan mil er. avv. IV asrlarga oid

¹ Беляева Т.В. К исторической топографии городов Уструшаны. // – Т.: 1990. С. 76-85.

Yodgorlik(Qo`rg`ontepa)ni dalil qilib keltiradilar.¹ Lekin keyingi yillarda Jizzax shahri hududidagi Qaliyatepada olib borilayotgan stratigrafik tadqiqotlarda milodiy eradan oldingi II - I asrlarga oid moddiy-madaniyat namunalarini topilmoqda. Stratigrafik shurf hozircha materikkacha qazib tushilgani yo`q. Bu esa yanada qadimgiroq materiallarni topish imkoniyati darajasini oshiradi. Mantiqan olganda ham Samarqanddan Jizzax orqali o`tgan yo`l qadimda va o`rta asrlarda eng qulay va yaqin yo`l hisoblangan. U yoki bu davrga taalluqli arxeologik Yodgorliklarning qayd etilishi yoki etilmasligi bu alohida masaladir. Yunon qo`shinlarining oldinda kelayotgan furajer – razvedkachilar otryadi «tog`liklar» tomonidan qirib tashlangach, ular tomonidan qo`llanilgan harbiy hiyla natijasida tor daraga aldab olib kirilgan asosiy qo`shinga zarba beriladi. Yunon lashkari katta talofat ko`rib, ko`pchiligi yaralanadi. Aleksandrning o`zi ham O`rta Osiyoda ilk marotaba aynan shu erda jarohatlanadi. Ammo talofatlarning ko`pligiga qaramay, bosqinchilarning son jihatdan ustunligi «ustrushonalik»larning mag`lubiyatiga sabab bo`ladi. YOzma ma`lumotlarga ko`ra «30 ming» deb ko`rsatilgan «tog`liklar»dan tirik qolganlarining asosiy qismi o`zlarini baland qoyalardan tashlab halok bo`ladilar va faqat «8 ming nafari asir olinadi».

Aleksandr Tanais – Sirdaryo qirg`oqlariga chiqadi. Bu erda «daryo orti saklari» bilan elchilar almashish va muzokaralar olib borishi natijasidagi kelishuvga ko`ra daryo tabiiy chegara sifatida qabul qilinadi. Ammo bu vaqtida yunonlarning orqa tarafida, Sirdaryoning chap qirg`og`i *havzasidagi* shaharlar ahолisi, bosqinchilarga qarshi qo`zg`olon ko`tarib, bu erdagidagi yunon-makedoniyaliklar garnizonlarini qirib tashlaydilar. Aleksandr qo`zg`olonchi shaharlarga qarshi yurish boshlaydi. U qo`zg`olonchilarning birlashishiga imkon bermaslik maqsadida o`lkadagi eng yirik, mustahkamlangan shahar Kiropolъni o`rab olib qamal qilish uchun u erga Krater boshchiligida qo`shin jo`natadi. Aleksandrning o`zi esa qo`zg`olonchilarning yunonlar lageriga eng yaqin joyda joylashgan «uncha baland bo`limgan tuproq devorlar bilan o`ralgan Gaza shahri»ga hujum qiladi. Qo`zg`olonchilarning qahramonona qarshiligi,

¹Грицина А.А. Уструшанские были. -Т.: 2000. С.148.

yunonlarning muntazam piyoda va otliq qo`shinlarining qamal mashinalari yordamidagi shiddatli hujumi natijasida sindiriladi. Mudofaachilar qirib tashlanib, shahar aholisi asirga olinadi va qul qilinadi. Gaza shahri Aleksandrning buyrug`iga ko`ra vayron qilinadi. Xuddi shu kuni qo`zg`olonchi shaharlardan yana biri Bagada ham yuqoridagi voqea aynan takrorlanadi. Ikkinci kuni bosqinchilar tomonidan qo`zg`olonchi shaharlarning uchinchisi ham bosib olindi. YUnion otliq askarlari tomonidan o`rab olingan qolgan ikki shahar ham shu kuni zabit etiladi va aholisi qul qilinadi. Bu shaharlarning joylashgan o`rnini aniqlashda, so`nggi yillarda aniqlangan hududning qadimiy davriga oid Yodgorliklar (Kallaxona, CHig`moytepa, Mulchoqtepa, Baxmaltepa, Uyas va boshqalar) muhim o`rin tutadi.¹ SHunday qilib, Aleksandr ikki kun ichida besh shaharni egallab, Krater tomonidan qamal qilinayotgan Kiropolъga etib keladi. YOzma manbalarda keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra, Eron shohi Kir tomonidan barpo etilgan, deb hisoblanadigan bu shahar, nisbatan ancha baland, mustahkam devorlar bilan himoya qilingan edi. SHahar devorlari yaqiniga qamal mashinalari katapulstalar o`rnatalib, shiddatli hujum boshlanadi. SHahar devorlari tagidan o`tgan, qurib qolgan o`zan o`rnini aniqlagan Aleksandr, mudofaachilarning qarshi tomonda jang qilayotganidan foydalanib, o`z qo`riqchilarini va o`qchilar bilan ushbu quruq o`zan orqali shaharga kiradi. Bu erga yaqin darvozalardan birining ichki qo`riqchilarini qirib tashlanib, tashqarida hozir bo`lib kutib turgan qo`shin ichkariga kiritiladi. SHahar maydonlarining birida bo`lgan jang vaqtida Aleksandr bu safar bo`yni aralash boshidan yaralanadi. YUnionlar shaharni to`la egallaganlaridan so`ng, mudofaachilar shahar arkiga chekinishga majbur bo`ladi. SHahar vayron qilinadi. Kiropolъ zabit etilgach, oxirgi ettinchi shahar yo`l-yo`lakay bosib olinadi. Bu shaharning o`rni tadqiqotchilar tomonidan Savat yaqinidagi Yodgorlik (Xontepa) o`rniga joylashtiriladi.² Sirdaryo havzasi shaharlaridagi qo`zg`olon, yunonlar tomonidan bosib olingan boshqa hududlarda ham xalq g`alayonlari ko`tarilishiga turki bo`ladi. Aleksandr Spitamen tomonidan qamal qilingan Maroqandga qo`shin

¹Буряков Ю.Ф., Грицина А. Мавераннахр на Великом шелковом пути. 2006. 208 с.

²Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Т.: 1992. С.22.

jo`natib, daryo bo`yiga qaytadi. Bu erda 17 kun (ba`zi manbalarda 20 kun) ichida mamlakatning shimoliy sarhadlarini mustahkamlash va daryo orti saklariga qarshi kurashda tayanch nuqtasini barpo etish maqsadida CHekka Aleksandriya – Aleksandriya Esxata shahri qurib bitkaziladi.

CHekka Aleksandriyaning joylashgan o`rnini aniqlash maqsadida uzoq yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, uning Sirdaryo bo`yidagi oldindan mavjud bo`lgan qishloq manzilgohi (hozirgi Xo`jand) o`rnida tiklangan, degan fikr aytib kelinmoqda. Bu fikr, bizningcha bugungi kunda ushbu yo`nalishdagi eng asoslangan ilmiy fikrlardan biridir.¹

Bu vaqtga kelib yunonlar tomonidan qurilayotgan shahardan xavfsiragan saklar daryo ortida to`plana boshlaydilar. Daryoning chap qirg`og`ida yunon qo`shinlari tomonidan qurilayotgan shaharda o`z ozodligiga solinayotgan xavfni his etgan saklar, qurilishni narigi qirg`oqdan turib o`qqa tutadilar. YUNon qo`shinlaridan 2000 kishi, tosh otar mashinalar himoyasi ostida daryodan kechib o`tib, jangga kirishadilar. Mag`lubiyatga uchragan saklar, Aleksandrdan kechirim so`rash uchun o`z elchilarini jo`natadilar.²

YOzma manbalarda Aleksandr Makedonskiyga qarshi chiqqan qo`zg`olonchi shaharlar aholisi haqida fikr yuritilar ekan, ularning asosiy qismini tashkil etgan «kuchli mamakenlar qabilasi» haqida so`z ketadi. A. A. Gritsina ham manbalardagi bu ma`lumotlarni tahlil etar ekan, qo`zg`olonchi «varvarlar» - qadimgi ustrushonaliklarni, daryo orti saklari va sug`dliklardan ajratib ko`rsatilganliklarini ta`kidlaydi.³ Bu fikr bilan bahslashish mumkin. Nima uchun endi sug`dliklar bilan ustrushonaliklar (XII satraplik aholisi) ajratilib ko`rsatilishi kerak. Antik mualliflar butun O`rta Osiyo aholisini «varvarlar» deb atagan, saklarni ham, sug`dlarni ham. Mamaken yoki mamatsenlar Ustrushona hududidagi eng kuchli qabila sifatida mualliflar tomonidan e`tirof etilgan. Ehtimol, jamiyat boshqaruvi aynan ushbu qabila qo`lida bo`lgan. YUqoridagilar esa bu davrda

¹ Беляева Т.В. Архаический, античный и раннесредневековый Ходжент по данным письменных и археологических источников. // 1986. С. 82-100.,

² Литвинский Б.А. Саки которые за согдом. // 1960. С. 94-96.

³ Грицина А.А. Нуртепинская культура Уструшаны // 1994. б. 30-32.

«Qadimiy Ustrushona» hududida kechgan murakkab etnik jarayonlardan va bu erda yashagan xalqlar ijtimoiy taraqqiyotning qabilalar ittifoqiga birlashish bosqichida bo`lganligidan darak beradi.

Maroqandda qoldirilgan garnizonning mag`lubiyatidan xabar topgan Aleksandr, saklar bilan sulk tuzib, CHekka Aleksandriyada yunon garnizonini qoldirganidan so`ng, asosiy qo`shin bilan jadal u erga qaytadi. U O`rta Osiyoni to`la bosib olish uchun 3 yil kurash olib boradi. Mil. er. avv. 323 yilda A.Makedonskiyning vafotidan keyin, uning imperiyasi uchga bo`linib ketdi. O`rta Osiyo Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi. YUqorida ta`kidlanganidek, Sug`dning tarkibida bo`lgan, deb taxmin qilinayotgan «Qadimiy Ustrushona» o`lkasini Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan yoki kirmaganligi haqida aniq fikr aytish qiyin. Demodamontning (Salavkiy Antiox I ning sarkardasi) daryo orti saklariga qarshi yurishi haqidagi ma`lumotlaridan (Pliniy) kelib chiqqan holda, aftidan, uning Salavkiylar davlatiga bog`liq bo`lganligi taxmin qilinadi.¹

Tadqiqotlarning ko`rsatilishicha mil. er. avv. III - II asrlarga kelib «qadimiy Ustrushona» hududining ba`zi Yodgorliklarida (Nurtepa, Xontepa) shimoldan kirib kelgan ko`chmanchi qabilalarning ta`siri va tabiiy sharoitning o`zgarishi tufayli (suvning kamayganligi) hayot to`xtagan va aholisi boshqa qulay erlarga ko`chgan. Sug`d va shu jumladan Ustrushona hududida ham kushonlar davriga oid tangalarning kam tarqaganligi, monumental tasviriy san`at asarlarining umuman, uchramasligi va bu davrdagi sopol kompleksining tahlili asosida uning mustaqil rivojlanganligini va ushbu fikrdan kelib chiqqan holda bu hududning Kushonlar imperiyasi tarkibiga kirmaganligini taxmin qilishimiz mumkin.² Bunday holatda esa «Qadimiy Ustrushona» o`lkasini Sug`d kabi Qang` konfederatsiyasi tarkibida bo`lganini e`tirof etmoq lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar:

¹Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Мавераннахр на Великом шелковом пути. С. 102-106.

²Массон М.Е. К вопросу о северных границах государство "Великих Кушан". 1975. С. 44.

- Belyaeva T.V. Arxaicheskiy, antichnyy i rannesrednevekovyy Xodjent po dannym pismennых i arxeologicheskix istochnikov. // 1986. S. 82-100.
- Belyaeva T.V. K istoricheskoy topografii gorodov Ustrushany. // – T.: 1990. S. 76-85.
- Buryakov YU.F., Gritsina A. Maverannaxr na Velikom shelkovom puti. 2006. 208 s.
- Gerodot. Istorya. (V 9 kn). –M.: 2002. S.209.
- Gritsina A.A. Arxeologicheskie pamyatniki Syrdaryinskoy oblasti. – T.: 1992.
- Gritsina A.A. Nurtepinskaya kul'tura Ustrushany // 1994. b. 30-32.
- Gritsina A.A. Ustrushanskie byli. -T.: 2000.
- Litvinskiy B.A. Saki kotorые za sogdom. // 1960. S. 94-96.
- Negmatov N.N. Ustrushana v drevnosti i rannem srednevekovье. 1957.
- Masson M.E. K voprosu o severnyx granitsax gosudarstvo "Velikix Kushan". 1975.

5 BOB. O`LKA O`RTA ASRLARDA.

1§. O`lka tarixi yozma manbalarda

2§. O`lkaning o`rta asrlar moddiy madaniyat tarixi.

Tayanch iboralar: “SHarqiy TSao”, “Suydushana”, Bunjikent, afshinlar: CHirdmish, Satagari, Raxang, Arsianiket, Kurket, Gazak, Vagket, Sabat, Zomin, Dizak, Nujikat, Xarakana, Mink, Marsmanda, Kultepa, Eski Xovos, Qo`rg`ontepa

1§. O`lka tarixi yozma manbalarda

Viloyatimiz hududining janubiy qismi o`rta asrlarda Ustrushona deb nomlanuvchi tarixiy-geografik viloyatning shimoliy qismi tarkibiga kirgan. Ustrushona nomiga qisqacha, ta`rif beradigan bo`lsak, Ustrushona Ho`jand va Jizzax oralig`idagi o`rta asrlar(milodiy VI-IX asrlar)da mavjud bo`lgan davlat. SHu sababli viloyatimiz tarixining ushbu davrini Ustrushona tarixi bilan uzviy bog`lab berish maqsadga muvofiq. Ustrushona borasidagi ilk yozma ma`lumotlar

qadimgi Xitoy yilnomalari Beyshi, Suyshi va Tanshuda tilga olinadi. Ilk xitoy yilnomlarida o`lkamiz “SHarqiy TSao” (suvi yuq) deb nomlanadi. Uning bunday deb nomlanishiga o`lkamiz hududida qo`shni Choch va So`g`ddan farqli ravishda daryolarning ko`p bo`limganligi bilan izohlanadi. Nisbatan o`lkamizning to`laroq nomlanishi «Tanshu» yilnomalarida berilgan. Unda o`lkamiz “SHuaydushana”, “Suydushana” nomlari bilan beriladi. Xitoyning Tan sulolasi imperatorlari saroyida o`lkamiz, Shuningdek “Layviy” (mag`rurligini sezgan holda bo`ysinmoq) deb ham yuritilgan¹.

Milodiy VI asrda Turk xoqonligi davrida viloyatimiz aholisining turk qabilalari bilan munosabatlari mustahkamlangan. Jumladan, ular o`rtasida qud-a-andachilik munosabatlari o`rnataladi. Masalan, Ustrushona afshini Xasan ibn Haydar turk lashkarboshisining qiziga uylangan. Ma`lumki, o`rta asrlarda nikoh munosabatlari davlatlar o`rtasidagi ittifoqchilik munosabatlarining muhim shartlaridan xisoblangan.

O`lkamizning VII asrga oid tarixi haqida yozma manbalarda ma`lumot kam uchraydi. Xitoy solnomalaridagi ma`lumotlar ko`pincha jug`rofiy tavsifnomasi bilan chegaralanadi. Ustrushona, O`rta Osiyoning boshqa viloyatlari kabi eftalitlar davlati tarkibiga, keyinchalik esa Turk hoqonligi tarkibiga kirgan. Markaziy Osiyoni VII asr boshida kezib yurgan xitoylik sayyoҳ Syuanъ TSzanning yozishicha, Ustrushona podshohlari turk hoqonligiga qaram bo`lganlar.

O`lkamizda zarb etilgan VI-VIII asrlarga oid tangalar Ustrushonaning ilk hukmdorlari CHirdmish, Satagari, Raxang haqida bizga ma`lumot beradi. Hokimiyat otadan bolaga o`tgan².

VIII asrga oid xitoy yozma manbasi Syuanъ-dzanda yozilishicha, o`lkamiz «Tanshu» dagidan bir oz boshqacharoq – “Sutulisen” deb nomlanadi. Unda, Shuningdek, o`lkaning shimoliy-g`arbida katta sahro (Mirzacho`l) joylashganligi,

¹ Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. П.М.-Л., 1950, 202 б

² Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. М., 1981, с.324-335

o`lka hukmdori esa Bosi (Turkiston tog` tizmasi) tog`ining shimoliy yon bag`rida yashaganligi haqida ma`lumotlar mavjud¹.

VIII asr boshida o`lkamizga arablar bostirib kiradi. Natijada, Ustrushona arab va Tan(Xitoy) sulolasiga o`rtasida kurash maydoniga aylandi. 749 yili xitoyliklar yurish qilgan bo`lsa, 751 yili o`lkamizni arablar bosib oladi. Ko`rninib turibdiki, o`lkamiz O`rta Osiyoning boshqa o`lkalarga qaraganda arablar tomonidan kechroq bosib olingan, chunki o`lkamiz aholisi arablarga qattiq qarshilik ko`rsatishgan. 752 yilda arablarga qarshi kurashda Ustrushona afshini xitoyliklardan yordam so`ragan, lekin rad javobini olgan. Faqatgina IX asr boshlaridagina Ustrushona afshini Haydar ibn Kavusgina arab xalifasi xizmatiga kiradi. 893 yili afshinlar sulolasiga `darib tashlanib, Ustrushona O`rta Osiyoning o`sha paytdagi eng qudratli davlati Somoniylar davlati tarkibiga kiradi.

O`lkamizning X asrga oid tarixi haqida birmuncha tuliq ma`lumotlar arab yozma manbalarida mavjuddir. Ularda yozilishicha, o`lka hududi Xo`janddan Samarqandgacha, Sirdaryo daryosi va Mirzacho`ldan to Xisor tizma tog`larigacha bo`lgan. Arab geografi Istaxriy (X asr) ma`lumotiga ko`ra, Ustrushonaning ko`pgina qismini tog`lar egallagan bo`lib, unda «kemalar suzishi mumkin bo`lgan daryo ham, ko`l ham yo`q». Yana uning yozishicha: «Ustrushona chegaralari: g`arbdan - Samarkand chegaralari; shimoldan - SHosh va Farg`onaning g`arbiy qismi; janubdan - Keshning sharqiy qismi, CHag`oniyon, SHuman, Vashjird va Rasht; sharqdan - Farg`onaning g`arbiy kismi» bilan chegaralangan. Ustrushonada - Arsaniket, Kurket, Gazak, Vagket, Sabat, Zomin, Dizak, Nujikat, Xarakana va hokimlar yashagan shahar - Bunjikat kabi shaharlar bo`lgan. Xuddi shu shaharlarni Ibn Havkal (X asr) ham sanab o`tadi va ularni katta rustaklarning markazlari bo`lgan deydi. Boshqa rustaklarda esa shaharlar bo`lmaganligini yozadi².

Havkalga binoan Movarounahrning boshqa viloyatlari qatori Ustrushona ham qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan ajralib turgan. Bu mahsulotlar o`lka

¹ Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.П. М.-Л., 1950, с.138

² Бетгер Е.К. Извлечения из книги “Пути и страны” Абу-л Касыма ибн Хаукаля//Труды САГУ. Ахеология Средней Азии. Ташкент, 1957

tashkarisiga, jumladan Xo`jandga chiqarilgan. Ayrim shaharlarda bozorlar bo`lgan. Doimiy yoyma bozorlarni uzoq joylardan kelganlar ham maqtab ketishgan. Ustrushonaliklarning fahri Mink va Marsmandada ishlab chiqariladigan o`ta sifatli temir qurollar bo`lgan. Bu qurollarga Arab xalifaligining ulkan hududlarida talab juda yuqori bo`lgan va ularni juda qadrlashgan. Mink va Marsmanda Zomin tog`larida joylashgan temir ishlab chiqarishi bilan mashhur bo`lgan manzillar¹.

Mamlakatni afshin deb nomlangan podshohlar boshqargan. SHu munosabat bilan arab tarixchisi Xilol as-Sabi, xalifa al-Mu`tazim billoh «Haydar bin Kavusni al-afshin laqabi bilan nishonladi, chunki u ostrushonalik bo`lgan, al-afshin esa ularning tilida «podshox» demakdir...», - deb yozadi².

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, arab tilli mualliflar asarlarida o`rta asrlardagi o`lkamiz tarixi haqida xitoy va fors manbalariga nisbatan to`liqroq ma`lumotlar berilgan. Xususan, yuqoridagi manbalarda o`lkamizning bu davrdagi siyosiy tarixi, jumladan viloyatimiz aholisining arab bosqiniga qarshi olib borgan kurashi, Ustrushona afshinlari shajerasi haqida qimmatli ma`lumotlar o`z aksini topgan. Shuningdek, ulardan o`lkamizning tarixiy-geografik joylashuv o`rni, iqtisodiy va qisman ijtimoiy hayoti haqidagi ma`lumotlarni olishimiz mumkin.

O`rta asrlarga oid yozma manbalarni o`rganish natijasida, o`lkamiz aholisining ushbu davrga oid siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixining ko`plab masalalari o`z echimini topmoqda. Ammo bu borada hali ko`plab o`z echimini kutayotgan muammoviy masalalar ham saqlanib qolmoqda. Bu masalalar yozma manbalarni o`rganishni davom ettirish bilan bir vaqtida, hududda olib borilayotgan arxeologik taddiqotlar natijalari bilan taqqoslash, solishtirish va to`ldirib borish asosida o`z echimini topib boradi.

2§. O`lkaning o`rta asrlar moddiy madaniyat tarixi.

Qadimdan bir qancha madaniy o`lkalar chorrahasida joylashgan o`lkamiz xalqlari moddiy va ma`naviy madaniyati o`ziga xos serqirra va boy bo`lib kelgan.

¹ O`sha asar...21 b

² Байхаки Абу-л-Фазл. История Масуда(1030-1041). Перевод с персидского, введение, комментарий и приложения А.К. Арендса.М., 1969

YUqorida ta`kidlab o`tganimizdek, bu o`lkada asosiy arxeologik tadqiqotlar XX asrning 40-50-yillaridan boshlanib, hozirga qadar davom etib kelmoqda. Tarixan qisqa vaqt ichida bu yo`nalishda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida o`lkamizda qayd etilgan arxeologiya Yodgorliklarining 60-65-foizini ilk o`rta asrlarga oid manzilgohlar tashkil etadi. Bu Yodgorliklarda o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar, o`lkamizning o`rta asrlar davri moddiy madaniyati taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi.

YUqorida qayd etilganidek, o`lkamiz o`rta asrlarda SHimoliy Ustrushona tarkibida bo`lgan. Geografik nuqtai nazardan shimoliy Ustrushona, deb atalayotgan hudud, Ustrushonaning shimoliy qismi, SHahristonsoyning quyi oqimi, Xo`jamushkentsoy havzalari va hududning tekislik cho`l qismi (Mirzacho`l), arxeologik jihatdan hozirga qadar eng kam o`rganilgan madaniy voha sifatida qolmoqda.

O`lkamiz hududida **ilk o`rta asrlar** (V-VIII asrlar)ga oid yuzdan ziyod Yodgorliklar aniqlanib, xaritaga tushirilgan.¹ Hududda o`rganilgan Mink manzilgohi, Kultepa, Eski Xovos, Qo`rg`ontepa (Zomin) shahristonlari, Qo`shtepa Yodgorliklari ilk o`rta asrlar o`lka moddiy madaniyatining ko`plab muammoviy masalalari haqida qimmatli ma`lumotlar beruvchi noyob Yodgorliklar hisoblanadi.²

O`lkamiz hududidagi ilk o`rta asrlar davridagi eng yirik Yodgorlik - Qo`shtepa sanaladi. Uning hususiyati shuki, u yon-atrofdagi hududdan ariq va devor bilan himoya qilingan arkdan iborat. Arkni ikkita tepalik tashkil etadi. SHahriston va uning yonidagi aholi manzilgohi katta hududni egallagan. Qal`a va atrofdagi qishloqlar, saroylar Tag`obsoy bo`yida joylashgan. Qazish ishlari natijalariga ko`ra u arablar bosqini oldidan aholi tomonidan tashlab ketilgan bo`lgan. Buning sababi suv resurslarining o`zgarishi yoki siyosiy voqealar bo`lgan

¹ Аминжанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе. // ИМКУ. Вып.8. –Т.: Фан.1969. С.137-142., Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в н.э. АКД. 1990. С.23.

² Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в н.э. АКД. -Самарканд, 1990, Сверчков Л.М. Поселение Мык – источник по истории средневековый истории Уструшаны. АКД. Самарканд. 1991., Древний Заамин / – Т. 1994.

bo`lishi mumkin. Bunday katta shahar va atrofdagi qishloqlar uchun Tag`obsoy suvi etmasdi ham. Qadimgi va o`rta asrlarga oid suv inshoatlari tarixi bilan shug`ullangan A.I.Bilalov fikricha, Tag`obsoyga SHahristonsoy suvlari ham quyilib, poytaxt Bunjikat va uning atrofidagi qishloqlarni ham suv bilan ta`minlagan. Bu soyning suvi Qo`shtepa shahristoniga Balandchaqir qishlog`i orqali hozir ham ishlab turadigan kanallar tizimi orqali o`tkazilgan bo`lishi mumkin.

Mazkur suv manbalari atrofida arxeologik Yodgorliklarning ko`pligi bu erda Ustrushonaning rustaklari(rayonlari)dan biri bo`lganligidan dalolat beradi. Taxminan, bu Varkin rustagi bo`lishi mumkin, lekin u haqda yozma manbalarda ma`lumotlar uchramaydi, faqatgina uning nomi eslatib o`tiladi, xolos. Bu nomga yaqin nomlar hozirgacha qishloq va kanal Varkin nomi bilan saqlanib kelmoqda. SHunday ekan, Qo`shtepa shahristonida mazkur rustakning, ya`ni Varkin rustakining markazi joylashgan bo`lishi mumkin. Keyinchalik uning aholisi janubga siljigan.

O`lkamiz hududidagi ilk o`rta asrlarga oid yana bir yirik Yodgorlik bu Savot rustakining markazi deb e`tirof etilayotgan **Kultepa** yodgorligi xisoblanadi. Kultepaning ark va shahriston qismida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida kumush tangalar va zargarlik buyumlaridan iborat bo`lgan xazina topilgan. Taniqli olim, akademik, E. V. Rtveladzening aniqlashicha, tangalar sosoniylar podshosi Peroz (459-484 yy) tomonidan zarb etilgan bo`lib, podsho eftalitlarga to`laydigan o`lponning bir qismi bo`lgan bo`lishi mumkin. Demakki, Kultepa V asrdayoq yirik shahar maqomiga ega bo`lgan.

Rivojlangan o`rta asrlarda ya`ni X-XV asrlarda Ustrushona hududi 18 rustakka bo`lingan, ularning yarmi shimoliy qismida joylashgan edi. Har bir yirik rustakning markazi o`sha nom bilan nomlangan shahar bo`lgan. Arab geograflari bir qator shaharlar nomlarini keltirishadi. Istashriy bo`yicha Ustrushonada 10 ta shahar bo`lgan. Demak, bu erdagи urbanizatsiya ko`rsatkichi yuqori bo`lmagan. Qiyo slash uchun shuni aytish mumkinki, Chochda 40 ta shahar, Farg`onada esa - 39 ta shahar bo`lgan.

Bu o`rinda, mashhur sharqshunos olim, V.V.Bartoldning «Usrushonaning shahar hayoti kam rivojlangan edi», degan fikri to`g`ri bo`lib chiqmoqda. O`lkaning iqtisodiy salohiyati ham yuqori bo`lmagan. Bu haqda xiroj solig`ining hajmi dalolat beradi. Bu xiroj Xuroson hokimi Abu-l Abbas Abdulloh ibn Tohirga IX asrning birinchi yarmida to`langan edi. Unda Ustrushona uchun u 50 ming dirxam hajmida belgilangan holda, Choch(qadimgi Toshkent vohasi) uchun - 607100, Xo`jand uchun -100 000, Farg`ona uchun - 280 ming dirxam bo`lgan.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarining qo`shni o`lkalarga chiqarilishi bu erda sun`iy sug`orishga asoslangan dehonchilik madaniyati rivojlanganini ko`rsatadi. A.I.Bilolovning tadqiqotlariga ko`ra ushbu davrda Ustrushonada 3 mingdan ziyod irrigatsiya inshootlari ishlab turib, ular 200 ming gektardan ko`proq erni sug`organ.

SHaharlar, asosan karvon savdo yo`llarida joylashgan. Masalan, Zomin Ustrushonaning ikkinchi shahri bo`lib, shu nomdagi rustakning markazi ham bo`lgan. Unda ko`plab bozorlar, karvonsaroylar, masjidlar mavjud bo`lgan. Bundan tashqari u ikkita sertqatnov yo`lning urtasida joylashgan: Xovos yo`li (Xavkal) va Xo`jand hamda Farg`ona orqali Xitoyga olib boradigan yo`l bo`yida.

Rivojlangan o`rta asrlarda Sirdaryo hududida arab geograflari tomonidan eslatib o`tilgan ikkita manzilgoh bor. Bu Sabat va Xovosdir.

Ilk o`rta asrlarda manbalarda tilga olingan **Sabat** rivojlangan o`rta asrlarda oldingi o`rnidan bir oz shimoliy – g`arbda joylashadi. Bu davrda Sabat o`z nomidagi rustakning markazi bo`lgan. Ibn Xo`rdodbeh ma`lumotlariga ko`ra, u Zomindan ikki farsah nariroqda joylashgan. Istarixiy bo`yicha esa - uch farsah narida. Geograflarning bir qismi Sabatni Ustrushona shahlaridan biri deyishsa (Istarixiy, Xavkal, YOqut), ayrimlari (Muqaddasiy va Qudamiy) uni katta qishloq bo`lgan deb hisoblashadi.

Kultepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uni o`rta asrlar Sabati ekanligi aniqlandi. Sabatning Kultepa o`rnida joylashganligi bu hududdagi o`rta asrdagi yo`lni to`g`rilaydi. Aks holda, karvonlar shimolga burilishga, Savat cho`liga kirib ketishga va shundan so`ng yana “katta yo`lga” qaytishga majbur bo`lardilar. Sabatning Kultepa o`rnida bo`lganligi Bunjikatning

SHahriston qishlog`i o`rnida bo`lganligini ham asoslaydi. CHunki, Istaxriyning yozishicha, “Ustrushonaning bosh shahri va Sabat oralig`i... uch farsax” bo`lgan. Kultepadan janubi-sharqda aynan SHahriston joylashgandir.

Demakki, rivojlangan o`rta asrlarda Sabat - o`lkamizning muhim manzilgohlaridan biridir. Arab manbalarida yozilishicha, shahardan katta ariq oqib o`tgan, uni bog`lar o`rab turgan bo`lgan. SHaharning axamiyati yana shundaki, unda passaj tipidagi tomlar bilan berkitilgan bozorlar bo`lgan. O`rta asrlardagi yopiq bozorlar boshqa joylarda ham bo`lgan (CHag`oniyon, Zemma, Amul). O`rta asrlar tarixi bo`yicha yirik mutaxassis, arabshunos olim, O.G.Bol'shakov fikricha, Sabatdagi bozor taxta-yog`och tom bilan yopilgan edi. Boshqa manbalarda eslatib o`tilgan muhim narsa shuki, Sabat yo`llar chorrahasida joylashgan. Ulardan biri «bosh shaharga» (Bunjikatga) olib borgan. Bu yo`l Xo`jamushkentsoyning SHahristonga qarab yuqori oqimi bo`ylab borgan. Sabatdan Xovosga olib boradigan yo`l ham mavjud bo`lib, u SHoshgacha etgan.

Sabatning uch yo`l chorrahasida joylashganligi sababli, akademik, A.R.Muhammadjonov tomonidan bildirilgan «Sabat» so`zining etimologiyasi to`g`ri bo`lib chiqadi. Ma`lumki, olimimiz uni «Sebat», ya`ni «uch karvon-saroy» deb izohlagan edilar.

Sabat shahrining janubiy qismida joylashgan shahriston hududi 10 gektardan kam bo`lmagan maydonga ega bo`lgan. Arkdan janubi-g`arbda hunarmandlar kvartali bo`lgan, bu erda ko`plab kulolchilik buyumlari qoldiqlari va sopol pishirishga mo`ljallangan xumdonlar topilgan.

Somoniylar davrida (X- X1 asr) gi Sabat ilk o`rta asr davridagi Sabatdan shimoliy- g`arbda joylashgan. YAngi arkning maydoni 0,25 hektar, balandligi 7 metr bo`lgan. Qazish ishlari natijasida bu erda hashamatli imorat ochilgan, undan topilgan tanga va sopol buyumlar nusxalari X-X1 asr boshlariga to`g`ri keladi. Mazkur imorat bundan ertaroq qurilgan me`morchilik inshooti devorlari ustida qurilgan.

Sabat XI asr o`rtalarida tashlandiqqa aylandi, XII-XIII asrlar boshida esa bu erda qoraxoniyalar davriga oid qabriston joylashgan. Bu qabriston shaharni ikki

qismga ajratadi. “Eski» (ilk o`rta asrlar va somoniylar davridagi) shahar tashlandiq bo`lib, “yangi” (qoraxoniylar davridagi) shahar soy bo`ylab shimol tomon rivojiana borgan. Arxeologlar tomonidan o`rganilgan hashamatli me`morchilik, zindon, yuqori sifatli idishlar qoldikdari bu erda qoraxoniylar davrida Sabatning hokimlari yashagan saroy majmuasi bo`lganligidan dalolat beradi. SHaharning shimoliy qismida “P” shaklidagi tepalik bor. Uning tagida karvon saroy qoldiqlari bo`lishi mumkin. Bu erda paxsa va xom g`ishtdan qurilgan imorat ochilgan bo`lib, yong`in tufayli yog`och ustunlari kuyib ketib, xarobaga aylangan. Topilgan ashovyiy dalillar XII-XIII asr boshi bilan belgilanadi.

SHaharning xususiyati - tashqi mudofaa inshootlarining yo`qligidadir. SHaharning eng gullab-yashnagan davrida uning maydoni 45-50 gettardan kam bo`lмаган. Bu erdag'i iqtisodning rivojlanishiga uning xalqaro karvon yo`li (Buyuk ipak yo`li) da joylashganligi sabab bo`lgan. Qazish ishlari davomida topilgan ko`pgina topilmalar shaharning keng xalqaro aloqalari haqida dalolat beradi. Ushbu Yodgorlikdan Ustrushona uchun ilk maratoba yuqori sifatli naqshin va usti qizil idishlar majmuasi topilgan.

XIII asr boshida shahardagi hayot to`xtab, temuriylar davri (XIV-XV asrlar) Sabati Xo`jamushkentsoyning o`ng qirg`og`iga ko`chib o`tadi va endi bu Yodgorlik **Maytepa** deb atala boshlaydi.

Rivojlangan o`rta asrlarga oid o`lkamizdagi yana bir yirik manzilgoh bu **Xovos** yodgorligidir. O`rta asrlardagi Xovos shu nomdagi rustakning markazi bo`lgan. Xovos barcha IX-X asrlar yo`l yo`riqnomalarida So`g`ddan Ustrushona orqali Choch, Xo`jand, Farg`onaga borish va qaytish yo`li manzili tarzida eslatiladi¹. O`z vaqtida“Xovos yo`li” va “Benakent yo`llari” ham baravar mashhur bo`lib, bir biri bilan mustahkam bog`liq bo`lganlar. V.V. Bartol`dning ta`kidlashicha, CHirchiq vohasiga ikki yo`l: biri Xovosdan va ikkinchisi Jizaxdan bongan² (Bartol`d, 1963, 227-b.). Xuddi shunday Xovosning o`zidan ham

¹ Хордадбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н. Велихановой. Баку,1986, 64 б; Истахри. Китаб Масалик ал-мамалик//Материалы по истории киргизов и Киргизии.Вып.1.М., 1973, 21 б

² Бартольд В.В. история культурной жизни Туркестана. Л., 1927, 227 б

Binoketga ikki yo`l: biri anchayin qisqa, Mirzacho`l orqali, boshqasi uzoqroq va xavfsiz Sirdaryoning o`ng qirg`og`i bo`ylab borgan¹. Bundan tashqari, Xovosga o`lka markazi Bunjikat shahridan Ustrushonaning boshqa yirik shahri Sabot orqali ham yo`l bo`lgan. “Katta yo`l” janubroqdan Sabot orqali o`tgan bo`lishiga qaramay, savdo karvonlari odatda Xo`jand va Farg`onaga Xovos orqali borishni qulay deb bilganlar². Xovosning ahamiyati, uning strategik qulayligi, bir tomonda g`arbdan sharqqa va shimoldan janubga Bunjikat orqali Baktriya(Surxondaryo)ga o`tgan qadimiylar savdo va harbiy yo`nalishlar chorrahasida bo`lganligidadir³.

SHunday qilib, miloddan oldingi IV asrning ikkinchi yarmidan to XIX asrgacha qadar Xovos qadim Farg`ona, Choch va So`g`dda savdo va harbiy harakatlar yo`nalishlari chorrahasidagi qulay va muhim manzil vazifasini bajargan⁴.

Yilnomalardagi savdo va harbiy yo`llari estaliklarida Xovos savdo yo`li chorrahasidagi manzilgoh sifatida ko`plab keltirilsada, ammo bevosita shahar to`g`risida ma`lumotlar yo`q.

Bevosita Xovos to`g`risidagi yozma manbalar ma`lumotlari IX asrga to`g`ri keladi. Ibn Xordadbex o`zining mashhur “Yo`llar va mamlakatlar” asarining alohida “Zomindan Farg`onaga yo`l” bobida “Zomindan Xovosgacha 7 farsox va Xovosdan “SHosh daryosi” sohillarigacha 9 farsox deb ko`rsatadi. So`ngra ko`prik orqali Benaket(SHohruhiya)ga o`tiladi deb yozadi⁵. Boshqa bir arab geografi Qudama (X asrning birinchi yarmi) ma`lumotlari bo`yicha Zomindan Xovosgacha 6 farsox yo`l bo`lsa, “... Xovosdan SHosh daryosi (Sirdaryo) kechuvigacha 5

¹ Грицина А.А. Уструшанские были. Ташкент,2000, 214-223 б б

² Бетгер Е.К. Извлечения из книги “Пути и страны” Абу-л Касыма ибн Хаукаля//Труды САГУ. Ахеология Средней Азии. Ташкент,1957,21 б

³ Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. Душанбе,1957,

⁴ Грицина А.А., Иваницкий И.Д., Рахимов К. Раскопки на городище Эски Хавас//Археологические исследования в Узбекистане, Вып.4. Ташкент, 2004, 61-64 б б; Грицина А.А., Матбабаев Б.Х. К исторической топографии городов Ферганы на Великом шелковом пути(на примере кубы и Оша)//Великий шелковый путь и Ферганская долина. Материалы республиканской научно-теоретической конференции. Ташкент,2004, 48-51бб

⁵ Хордадбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н. Велихановой. Баку,1986, 64 б; Истахри. Китаб Масалик ал-мамалик//Материалы по истории киргизов и Киргизии.Вып.1.М., 1973, 64 б

farsox. Bu kechuvdan Benaketgacha 4 farsox¹. Ibn Rusta (X asrning birinchi yarmi) bo`yicha Zomindan Xovosgacha bir kunlik yo`l². Al-Istarxiy (X asr) bo`yicha esa, “Zomindan Xovos yo`li orqali Farg`ona yo`lidan chapga Kurqatgacha 13 farsox”³. “Kimki Xovos orqali Zomindan Xo`jandga bormoqchi bo`lsa, u Kurqat orqali o`tadi” deb Ibn Xavkal (X asr) ham ma`lumot beradi⁴.

XI asr boshlarida Xovos Somoniylar sulolasining so`nggi vakili Muntasir(Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh) va qoraxoniylar davlati iloqi o`rtasidagi jang tafsilotlari munosabati bilan tilga olinadi⁵. YOqutning(XIII asr) ma`lumoti bo`yicha, “Xovos– bu Ustrushonadagi qishloq”⁶. As-Somoniy (XII asr) Xovosning qishloq nomi yozilishining Xavus shaklini keltiradi⁷. Keyingi manbalarda yuqoridagi ma`lumotlar kam to`ldiriladi. Abul-Fid(XIV asr) Ibn Xordadbek ma`lumotlarini “Xovosdan Xuskat(hozirgi Sayxunobod tumani Nurota qishlog`i o`rnidagi Xushket shahri) gacha dasht bo`ylab 7 farsox” deb to`ldiradi.

Temuriylar davri tarixchisi Nizomiddin SHomiyning “Zafarnoma” asarida ham Xovos tilga olinadi. Jumladan, uning ma`lumotiga ko`ra, Amir Temur Xovosda bo`lgan. Nizomiddin SHomiyning “Zafarnoma” asarining qimmatli tomoni shundaki, u 1404 yilda Sohibqironning hayotligida yozilgan. YAna Nizomiddin SHomiy boshqa manbalarda bo`lmagan juda ko`p ma`lumotlarni ikir-chikirlarigacha ko`rsatadi. Jumladan, u Amir Temurning Xovos atrofida 1367-1368 yillar amir Xusayn(1346-1358 yillar) bilan urushlaridan birini tasvirlaydi.

¹ Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса. Ташкент, 136

² Волин С.Л., Переводы Ибн Русте, Кудамы и других арабских географов. Рукопись. Архив ИВ РАН. Фонд 93.Оп.1.Док.№21.Л.,1959

³ Истахри. Китаб Масалик ал-мамалик//Материалы по истории киргизов и Киргизии.Вып.1.М., 1973, 21 б

⁴ Бетгер Е.К. Извлечения из книги “Пути и страны” Абу-л Касыма ибн Хаукаля//Труды САГУ. Ахеология Средней Азии. Ташкент,1957,21 б

⁵ Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древня и средневековая история. М., 1972, 388 б

⁶ Хордадбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н. Велихановой. Баку,1986, 64 б; Истахри. Китаб Масалик ал-мамалик//Материалы по истории киргизов и Киргизии.Вып.1.М., 1973, 177 б

⁷ Камалиддинов Ш.С. «Китаб ан-Ансаб» Абу Сада Абдулкарима ибн Мухаммада ас-самани как источник по истории культуры Средней Азии.Ташкент,1993, 99 б

Akademik V.V. Bartoldning ta`kidlashicha, o`sha davrlar Amir Temur uchun og`ir vaqtlar bo`lgan. 1366 va 1370 yillarda Amir Temur amir Husaynga qarshi urush holatida bo`lsa, bir vaqtlar uning dushmanlari bilan yaqinlashib, o`z ittifoqchilariga qarshi kurashib yurdi. SHomiy ma`lumotlari bo`yicha, 1366 yilda navbatdagi kelishmovchiliklar chog`ida Amir Temur Hisor hokimi amir Kayxusrav bilan yaqinlashadi. Toshkentdan ikki ming nafar mo`g`ul askarlari bilan kelgan Kayxusrav Amir Temurga qo`shiladi. Bu vaqtda Amir Temur Xovosda bo`lgan. Amir Husayning maqsadi nihoyatda jiddiy bo`lgan: u o`z amirlari Muso, SHayx Muxammad, O`ljoytu, Jahonshoh va boshqa eng yaxshi sarkardalari boshchiligidagi son jihatdan ancha katta qo`shinni Amir Temurga qarshi yuboradi. Bu qo`shin Samarqanddan Jizzaxgacha bo`lgan hududlarni bosib oladi. SHomiyning aytishicha, Amir Temur Kayxusrav bilan kelishib, 500 suvoriy bilan o`z uslubi bo`yicha, Xovosdan chiqib, to`satdan amir Husaynning lashkarboshisi Jahonshoh qo`shiniga hujum qiladi uni tarqatib yuboradi. Husayn sakardalari bu Amir Temurning avangard qo`shini, asosiy kuchlar hali orqada deb o`ylab, tum-taraqay qochadilar¹. Voqealar tahlili shuni ko`rsatadiki, bu jang Jizzax va Xovos oralig`ida bo`lgan. Mirzacho`lning keng erlari esa, yirik suvoriy janglari uchun juda qullay hisoblangan.

Xovosni qishloq tarzida bir necha bor Bobir Mirzo(XVI asr) ham tilga oladi. Jumladan, uning ma`lumoti bo`yicha, “Umar shayx Sulton Ahmad Mirzo bilan SHohruxiya va O`ratepa oralig`idagi Xovos qishlog`idagi jangda mag`lub bo`lgan²

XV asrning ikkinchi yarmida Xovosda mashxur shoir Abdurahmon Jomiy hazratlari va mashhur so`fiy Xoja Ahrori Vali bo`lganlar³ .

Xovos haqidagi so`ngi xotiralar Ahmad Donishning“Buxorodan Peter-burgga sayohat” kitobining Buxoro amiri Muzaffarning Sirdaryo sohillarida ruslardan engilib qochganligi haqidagi bobida keltiriladi. “Amir Muzaffar ruslardan engilib

¹ Шомий .Низомиддин. Зафарнома. Ташкент,1996

² Бобурнома, Тошкент, 1989, 34-35 бб

³ Воҳид Абдулло, Ботурхон Валихўжаев, 1969, 235 б

kechqurun Xovos qishlog`ida to`xtab, 200 ming kishilik qo`shinni uylarga joylashtiradi¹.

Xovosliklar Samarqand shahri tarixida ma`lum o`rin tutishgan. XVIII asr boshlarida o`zaro ichki urushlar natijasida Samarqand vayron qilinadi va uni aholisi shaharni tashlab ketadi. “Movarounnahrda ocharchilik boshlandi...Hamma joyda, odamlar o`z joylarini tashlab, har tomon tarqab ketdilar. Samarqand shahri“dashtga” o`xshab qoldi” – deb yozgan edi, Muhammad YOqub Buxoriy². XVIII asrdahuvullab qolgan Samarqandga turli hududlardan aholi ko`chirib keltirilgan, jumladan Xovosdan ham. Xovosliklar shaharning shimolidagi Haydarobod qismida o`z guzarlarini tashkil etadilar. Guzar ikki: Xovosi yakum va Xovosi duvvum qismlariga bo`linib, shimolda YUsufboy, sharqda Minori kaj va Bibixonim masjidi bilan, janubi-g`arbda esa Pastqishloq (Maxovxona) bilan chegaradosh edi. Guzar hududida ikki masjid – Masjidi Bologuzar va Pastguzar, maktab, madrasa, besh mozor va karvonsaroy bo`lgan³.

Demak, rivojlangan o`rta asr davri (X-XV asrlar)da Xovos shahar maqomida bo`limgan. Uning maydoni qadimgi va ilk o`rta asrlar davriga qaraganda kichikroq bo`lgan. Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, X-XII asrlarda Zomin bilan Sabat gullab-yashnagan bo`lsa (arab bosqinidan so`ng), Xovos, aksincha, kichkina, muhim savdo yo`lidagi manzilgoh bo`lsa ham, qishloq bo`lgan.

YUqorida ta`kidlaganimizdek, Sirdaryo hudud jihatidan kichkina viloyat bo`lsada, o`rta asrlarda viloyat hududi ikkita tarixiy-geografik viloyat tarkibiga kirgan. Agar biz shu paytgacha, viloyatimizning Ustrushona davlati va shu nomdagagi tarixiy-geografik o`lka hududida joylashgan Yodgorliklar tarixiga to`xtalgan bo`lsak, quyida biz viloyatimizning shimoliy hududidagi, o`rta asrlarda Choch deb nomlangan tarixiy-geografik o`lka tarkibiga qaragan Yodgorliklar tarixiga to`xtalamiz. Sirdaryo viloyatining shimoliy qismida, SHoshga qaragan,

¹ Дониш Аҳма. Путешествие из Бухары в Петербург. Избранные произведения. Душанбе, 1976

² Абрамов М.М., Пугаченкова Г. А. Политическая история Самарканда в XVII - первой половине XIX в // История Самарканда I. Ташкент, 1969, 264-265 бб

³ Абрамов М. Гузары Самарканда. Ташкент, 1989, 35-36 бб

bugungi kunda YUNESKO tasarruvidagi mashhur SHohruhiya shahrining “egizagi” bo`lmish, o`rta asr yozma manbalarida **Xushkent** deb nomlangan shahar tarixiga qaratamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Abramov M.M., Pugachenkova G. A. Politicheskaya istoriya Samarkanda v XVII-pervoy polovine XIX v//Istoriya Samarkanda. ITashkent,1969,264-265 bb
- Abramov M. Guzarы Samarkanda. Tashkent, 1989,35-36 bb
- Aminjanova M. Arxeologicheskaya razvedka v Zaaminskom rayone. // IMKU. Выр.8. –Т.: Fan.1969. S.137-142.,
- Bayxaki Abu-l-Fazl. Iстория Masuda(1030-1041). Perevod s persidskogo, vvedenie, kommentariy i prilожениya A.K. Arenda.M., 1969
- Bartolоd V.V. istoriya kulturnoy jizni Turkestana. L., 1927.
- Bichurin N.YA. Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena.II.M.-L., 1950.
- Boburnoma, Toshkent, 1989.
- Betger E.K. Izvlecheniya iz knigi “Puti i strany” Abu-l Kasyma ibn Xaukalya//Trudy SAGU. Axeologiya Sredney Azii. Tashkent,1957
- Buryakov YU.F. Istoricheskaya topografiya drevnih gorodov Tashkentskogo oazisa. Tashkent, 13b
- Volin S.L., Perevody Ibn Ruste, Kudamy i drugix arabskix geografov. Rukopissь. Arxiv IV RAN. Fond 93. Op.1. Dok.№21.L.,1959.
- Vohid Abdullo, Boturxon Valiho`jaev, 1969.
- Gafurov B.G. Tadzhiki. Drevneyshaya, drevnya i srednevekovaya istoriya. M., 1972, 388 b
- Gritsina A.A. Severnaya Ustrushana v seredine 1 тысыacheletiya do n.e. - nachale XIII v n.e. AKD. -Samarkand, 1990.
- Gritsina A.A. Ustrushanskie byli. Tashkent, 2000, 214-223 b b

Gritsina A.A., Ivanitskiy I.D., Raximov K. Raskopki na gorodiще Eski Xavas//Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane, Выр.4.Tashkent,2004, 61-64 b b;

Gritsina A.A., Matbabaev B.X. K istoricheskoy topografii gorodov Fergany na Velikom shelkovom puti (na primere kuby i Osha) // Velikiy shelkovyy put' i Ferganskaya dolina. Materialy respublikanskoy nauchno-teoreticheskoy konferentsii. Tashkent, 2004, 48-51bb

Donish Ahmad. Puteshestvie iz Buxary v Peterburg. Izbrannye proizvedeniya. Dushanbe,1976

Drevniy Zaamin / – T. 1994.

Smirnova O.I. Svodnyy katalog sogdiyskix monet. M., 1981,s.324-335

Sverchkov L.M. Poselenie Myk – istochnik po istorii srednevekovyy istorii Ustrushany. AKD. Samarkand. 1991.

Kamaliddinov SH.S. «Kitab an-Ansab» Abu Sada Abdulkarima ibn Muxammada as-samani kak istochnik po istorii kul'tury Sredney Azii.Tashkent,1993.

Istaxri. Kitab Masalik al-mamalik // Materialy po istorii kirgizov i Kirgizii. Выр.1. M., 1973.

Negmatov N.N. Ustrushana v drevnosti i rannem srednevekovyye. Dushanbe,1957, Xordadbex. Kniga putey i stran. Perevod s arabskogo, kommentarii, issledovanie, ukazateli i kartы N. Velixanovoy. Baku,1986;

SHomiy Nizomiddin. Zafarnoma. Tashkent, 1996

6 BOB O`RTA ASRLARDA O`LKADA SIYOSIY, IJTIMOIY – IQTISODIY VA MA`NAVIY HAYOTI

1§. O`rta asrlarda o`lkada siyosiy hayot.

2§. O`rta asrlarda o`lkada ijtimoiy hayot.

3§. O`rta asrlarda o`lkada iqtisodiy hayot.

4§. O`rta asrlarda o`lkada ma`naviy hayot.

Tayanch iboralar: Kang`uy, Ustrushona, Xarabug`ro, Xanaxara, Kovus, Haydar, Hasan, Abdulloh, Sayr ibn Abdulloh, mahalliy aslzoda – dehqon, rustoqlar, «400 qal`ali o`lka», tog`-konchilik sohasi.

1§. O`rta asrlarda o`lkada siyosiy hayot.

Asosan tog`, tog`oldi tekislik va cho`l hududlarini o`z ichiga olgan, xalqaro karvon yo`llari ustida, tabiiy jixatdan qulay geografik hududda joylashgan o`lkamiz o`rta asrlarda o`zining mahalliy asoslarga ega siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti va o`ziga hos serqirra madaniyati bilan o`ziga xos o`rin egallaydi.

V asrda Kang`uy davlatining parchalanishi oqibatida Ustrushona mustaqilikka erishadi. Bu haqda 435 yil tarixiy voqealarini bayon qilgan xitoy yilnomasi «Beyshi»da ma`lumot bor. Biroq ko`p o`tmay, V asr oxiridan VII asrgacha Ustrushona eftalitlar, so`ngra G`arbiy Turk hoqonligi tasarrufida bo`ladi. Bu davrda Ustrushona o`zining ichki avtonomiyasini saqlab qoladi. Ustrushona davlati “afshin” martabasi bilan nomlanuvchi mahalliy hukmdorlar sulolasini tomonidan boshqarilgan. Hukmdorlik otadan bolaga meros sifatida o`tgan. Bugungi kunda bu hukmdorlarning ikki sulolasiga tegishli 14 ta vakilining nomlari aniqlangan.¹ Afshinlarning birinchi sulolasini vakillari: CHirdmish, Satachari I, Raxanch I, Satachari II, Satachari III, Raxanch II, Raxanch III larning nomlari numizmatik manbalar asosida aniqlangan². Asosan 600-720 yillar oralig`ida hukmronlik qilgan, deb taxmin qilinayotgan bu sulola vakillarining hukmronlik qilgan aniq sanalari bizga ma`lum emas. YOzma manbalar ulardan faqat bittasining 618 - 626 yillar oralig`ida hukmronlik qilganligi haqida ma`lumot beradi.³ Ayni vaqtda bu afshinlar hukmronligi davriy ketma-ketligi ham ko`proq taxminlarga asoslanadi. YOzma manbalar 720 yildan boshlab hukmronlik qilgan afshinlarning ikkinchi sulolasini Xarabug`ro (720-738), Xanaxara (738-800), Kovus (800-825), Haydar (825-840), va Hasan haqida², numizmatik manbalar esa so`nggi ikki «afshin» -

¹ Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Мавераннахр ва Великом шелковом пути. Самарканд-Бишкек. 2006. С. 138-139.

² Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. Сталинабад. 1957. С.129-140., Грицина А.А. Уструшанские были. –Ташкент, 2000. С.38-55.

Abdulloh va Sayr ibn Abdulloh haqida ma`lumotlar beradi. Ayni vaqtda bu numizmatik manbalar so`nggi Ustrushona afshini 893 yilga qadar hukmronlik qilganligini ham tasdiqlaydi.¹ Tarixiy manbalarning tahliliga ko`ra, bu sulola turkiy asosga ega. CHunki 720 yilda hokimiyat tepasiga kelgan Ustrushona afshini (hukmdori) Xarabug`roning (Qora bug`ro) nomi yuqoridagi fikrga asos bo`ladi. Tarixdan ma`lumki, bu davrda ko`pgina O`rta Osiyo hukmdorlari turklar bilan yaqin munosabatda bo`lib, ko`p hollarda ular bilan qarindosh, urug`chilik aloqalarini o`rnatishga harakat qilganlar. YOzma manbalarda ma`lumotlar saqlanib qolgan Ustrushona afshinlaridan yana biri Haydar ibn Kovus o`z o`g`li Hasanni, xalifa Mu`tasimning turk lashkarboshisi Ashnasning qizi Utrunjoyga uylantirganligi haqidagi ma`lumotlar ham bunga misol bo`lishi mumkin.² SHu o`rinda, balki yuqoridagi ma`lumotlardan kelib chiqqan holda, SHahristondan topilgan «ikki go`dakni emizayotgan ona bo`ri» tasvirini ham shu afshinlar sulolasiga shajarasi bilan bog`lash mumkin bo`lar. Nimagadir ayrim mutaxassislar ushbu devoriy suratni Ustrushonada xristian dinining ta`siri bilan bog`lashga urinishmoqda. Ularning fikricha, ushbu surat Rimning Kapitoliy tepaligidagi ona bo`ri va boqiy shahar asoschilari deb baholanadigan Rom va Romul haykali ta`sirida paydo bo`lganmish. SHu bilan birga tarix fanida Rim asoschilari -etrusk qabilalarining sharqdan borganligi borasida ham mulohazalar borligini qayd etib o`tish o`rinli deb bilamiz.

VIII asr boshlariga kelib, O`rta Osiyo hududiga arab bosqinchilari kirib kela boshladilar. YUqorida nomini tilga olganimiz afshin Xarabug`ro haqidagi ilk yozma ma`lumotlar uning 737 yilda turk xoqoni va qo`shni davlatlar hukmdorlari bilan arablarga qarshi tuzilgan navbatdagi harbiy ittifoq munosabati bilan tilga olinadi. Bu harbiy ittifoq mag`lubiyatga uchraganidan keyin, 738 yilda, Ustrushona taxtiga uning o`g`li Xanaxara keladi. O`z navbatida, u ham otasi kabi mustaqil siyosat yuritish uchun harakat qiladi. Jumladan, 738 yilda Nasr ibn Sayyor, 795 yilda Fadl ibn YAxyolar boschchiligidagi arab lashkarlari hujumlari davrida, siyosiy

¹ Древний Заамин / – Т.: Фан. 1994. С.72.

² Негматов Н.Н. Предварительный отчет о работах Ходжентского отряда в 1954г. // ТИИ АН Тадж. ССР. Т. XXXVII. Сталинабад. 1956. С. 34.

muzokaralar yordamida, ma`lum miqdordagi soliq evaziga, afshinlar Ustrushonada o`z hokimiyatlarini saqlab qoladi. Afshin Xanaxara 752 yilda xitoyliklardan arablarga qarshi yordam so`rab murojaat qiladi, ammo rad javobini oladi. Bu davrda Ustrushona arab bosqinchilariga qarshi kuchlarning qarshilik ko`rsatish markaziga aylanadi. YUqoridagilarning barchasi afshin Xanaxara davrida ustrushonaliklarning o`z erki va ozodliklari uchun bosqinchilarga qarshi to`xtovsiz kurash olib borganliklaridan dalolat beradi. Ustrushonaning navbatdagi afshini Kovus haqida yozma manbalar ma`lumotlari ancha cheklangandir. Kovusning o`g`illari Haydar va Fadl o`rtasida taxt uchun yuzaga kelgan nizo Fadl foydasiga hal bo`lgach, bundan norozi bo`lgan Haydar arablar tomoniga o`tadi. Bir tomondan alamzadalik, ikkinchi tomondan, arablarga qarshi kurashning befoyda ekanligini, ya`ni butun Movarounnahrda o`z ozodligini saqlab kelayotgan Ustrushona ham ertami, kechmi zabit etilishini tushunib etgan Haydar arablarni noma`lum tog`yo`llari orqali mamlakat poytaxti Bunjikat shahrining orqa tomonidan olib keladi. Natijada, arablar uzoq vaqtlardan beri o`z hukmronligini o`rnata olmay kelayotgan Movarounnahrdagi so`nggi o`lka - Ustrushona ham 822 yilda ular tomonidan zabit etiladi.¹ Bunjikent deb talqin qilinayotgan SHahriston yaqinidagi Qal`ai Qahqaha yodgorligi xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarida bu erda aniqlangan turli hajmdagi tosh yadrolar (palahmon toshi) bilan to`ldirilgan va teginilmagan ombor - aslahaxonalar o`rni va Yodgorlik atrofida yagona mudofaa tizimini tashkil etuvchi strategik ahamiyatga ega qal`alarning kultepaga aylangan qoldiqlaridan topilgan ko`plab qimmatli ashyolar, shaharning kutilmagan hujum natijasida bosib olinganligini tasdiqlaydi.² Arablarga Bunjikat shahrini olishda yordam bergen Haydar ibn Kovus o`z tarafдорлари bilan abbosiy xalifa al-Ma`mun (815-833), keyinchalik xalifa al-Mu`tasim saroyida xizmat qiladi va katta

¹ Негматов Н.Н. Уструшана в борьбе с арабским нашествием (конец VII - первая половина IXвв). // ИАН Тадж. ССР. ООН. Вып.5. 1954. С. 117-135.

² Негматов Н.Н., Хмельницкий С.Г. Средневековый Шахристан. - Душанбе: Дониш. 1966. С.195-196.

muvaffaqiyat qozonadi.¹ Keyinchalik, u rasman Ustrushona hukmdori etib tayinlangan bo`lsa ham, aslida bu vazifani uning nomidan o`g`li Hasan ibn Haydar bajaradi. Haydar ibn Kovusning qisqa, lekin yorqin umri 842 yilda, o`z vatanidan uzoqda, Bag`dod yaqinidagi Samara shahrida nihoya topadi. Haydar bu erda xoinlarcha qamoqqa olinadi. Haydarning qamoqqa olinishi bilan Hasan ham qo`lga olinadi. Uning keyingi taqdiri va undan keyingi afshinlar hayoti ham bugunga qadar bizga noma`lumdir. Faqat Ustrushonaning so`nggi affshini Sayr ibn Abdulloh haqida 893-894 yillarga oid numizmatik manbalar ma`lumot beradi. SHu ma`lumotlarga asoslanib afshinlar sulolasi davom etganligi, Hasandan keyin Abdulloh va undan keyin Sayr ibn Abdulloh hukmronlik qilganligini taxmin qilishimiz mumkin. 893-894 yillar Ustrushonada Somoniylar davlati xukmronligi o`rnataladi².

2§. O`rta asrlarda o`lkada ijtimoiy hayot.

Ustrushonaning ilk o`rta asrlardagi ma`muriy boshqaruv tizimi to`la aniq emas. YOzma manbalar, faqatgina «afshinlar saroyining boshqaruvchisi (qahramon) Taradis» haqida, yoki rustoqlar hokimlari - «Zaminch nisbali shaxs» (Zomin rustoqining boshqaruvchisi) haqidagi ma`lumotlar bilangina cheklandi.³ Bu ma`lumotlar boshqa rustoqlar ham shu taxlitda boshqarilganligini taxmin qilishimizga imkon beradi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanayotgan, hudud bo`ylab joylashgan mahalliy aslzodalar - dehqonlarga tegishli ko`plab qal`a-rabotlar ham davlat ma`muriy boshqaruvida muhim o`rin tutgan bo`lishi kerak. YUqoridagilardan kelib chiqqan holda ilk o`rta asrlarda Ustrushonaning ma`muriy boshqaruv tizimi qo`shni hududlar (Sug`d, Choch, Parkana) boshqaruviga o`xshash bo`lib, quyidagi tartibda: Ustrushona afshinlari, saroy amaldorlari - rustoq

¹ Тўйчибоев Б.Б. Сўнгги афшин./ Тафаккур. -№3. Тошкент. 2003. 946., Тўйчибоев Б.Б. Уструшона афшинлари. / GulDU AXBOROTNOMASI. 2012-YIL 3-4-SON б. 77-80.

² Тўйчибоев Б.Б. Уструшонанинг қадимий ва илк ўрта асрлар даври сиёсий хаёти хусусида мулохазалар (мил. ол.-VII мил. VIII асрлар)./ GulDU AXBOROTNOMASI. 2014. № 4 б 78-85.

³ Негматов Н.Н. Уструшана в борьбе с арабским нашествием (конец VII - первая половина IX вв). // ИАН Тадж. ССР. ООН. Вып.5. 1954. С. 125., Древний Заамин / Т.: Фан. 1994. С.94.

hokimlari - mahalliy aslzodalar (dehqon) - qishloq oqsoqollari (qadxudo) shaklida bo`lganligini taxmin qilimiz.

Ustrushona davlati o`rta asrlarda bir qancha rustoqlarga bo`lingan, bu rustoqlarning yozma manbalarda keltirilgan nomlari asosida ularning sonini 18 ta bo`lgan, deb taxmin qilinadi. Bulardan 9 tasi, tekislikda joylashgan Bunjikent, Sabat, Zomin, Burnamad, Xarakana, Fag`non, Xovos, SHavkat, Fag`kat (Vag`kat) rustoqlari bo`lib, ularning har birida bir qancha shaharlar (rustoq markazlarini ham qo`shib hisoblaganda) va ko`plab qishloq manzilgohlari bo`lgan. Qolgan 9 tasi tog` rustoqlari: Mink, Asbanikant, Biskar, Bangam, Vakr, SHag`ar, Mascha, Buttam va Burgar nomi bilan atalib, aftidan ulardan faqat Mink rustoqi hududida bir qancha shaharlar bo`lib, qolganlarida, asosan, ko`plab qishloq manzilgohlari joylashgan¹. O`rta asr tarixchi-geograflari Ustrushonani «400 qal`ali o`lka» sifatida tilga oladilar.² Ustrushona hududida olib borilgan arxeologik qidiruvlar natijasida aniqlangan ko`hna inshoot majmualari va o`rganilayotgan ko`plab arxeologik Yodgorliklar bu ma`lumotlarni tasdiqlaydi. Bu qal`alar o`lkaning ko`plab mo``jaz vohalari (mikroooazis) negizida tashkil topgan rustoqlarni himoya qilish maqsadida, strategik jihatdan qulay bo`lgan nuqtalarga qurilib, o`ziga xos mustahkam harbiy - mudofaa tizimini tashkil etgan. Bu qal`a va qo`rg`onlarning asosiy qismi ilk o`rta asrlarga oiddir. Ko`proq mudofaaga, yana ham aniqrog`i alohida vohalar va vohachalarning mustaqil mudofaasiga asoslangan bu harbiy - mudofaa tizimi ham ilk o`rta asrlarda butun O`rta Osiyon qamrab olgan umumiylar jarayon, feodal tarqoqlik bu davrda Ustrushonani ham o`z qa`riga tortganligidan dalolat beradi. Bu davrdagi O`rta Osiyo davlatlari hukmdorlari o`rtasidagi qarama-qarshiliklar, feodal tarqoqlikni Ustrushona hududida ham (masalan, Ustrushona afshinlari va Sug`d ixshidlari o`rtasidagi nizolar misolida) ko`rishimiz mumkin.³

¹ Тўйчибоев Б.Б. Ўрта асрлар Уструшонаси төғ рустоқларининг жойлашиши хусусида./Ўзбекистонда ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. VI тўплам. Тошкенти 2015. Б. 80-87.

² Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. 1957. С.243.

³ Сверчков Л.М. К вопросу о взаимоотношениях ихшидов Согда и афшинов Уструшаны. // ТД советско-французского коллоквиума "Культура древнего и средневекового Самарканда и исторические связи Согда". -Т., 1990. с. 89-91.

3§. O`rta asrlarda o`lkada iqtisodiy hayot.

YOzma manbalar mualliflari Ustrushonaning qulay o`rni, hosildor erlari, tabiiy boyliklari haqida ma`lumotlar berar ekan, qo`shni hududlar va davlatlar bilan yaqin aloqalarini ham ta`kidlab o`tadilar.¹ Ustrushona hududi O`rta Osiyoning qadimiy ziroatkor vohalarida joylashganligi sababli, dehqonchilik uning iqtisodidagi ustuvor sohalardan biri sanalgan. Asosan tabiiy va sun`iy sug`orish tizimlariga asoslangan dehqonchilik, hududdagi ko`plab suv manbalari: buloqlar, tog` irmoqlari, soylar (Sangzor, Achchisoy, Xo`jamushkentsoy, SHahristonsoy, Kattasoy, Basmandasoy, Oqsuv, Isfanasoy) va ulardan chiqarilgan sun`iy suv inshootlari: kanallar va korizlarning murakkab tarmoqlariga asoslangan. Dehqonchilik qishloq xo`jaligi uchun qulay bo`lgan markaziy, janubiy - sharqiy qismlardagi tog`, tog`oldi adir va tekislik hududlari bilan bir vaqtda, uning shimoliy, shimoliy-g`arbiy qismlaridagi cho`l, yarim cho`l hududlarida ham rivojlangan. Ustrushonalik ziroatkorlar hududning tabiiy sharoitiga qarab ixtisoslashib, shimoldagi Sirdaryo bo`yi hududlarida paxta, tog`, tog`oldi adir, tekisliklarda boshoqli ekinlar (bug`doy, arpa va h.k.) ekish, bog`dorchilik, uzumchilik va polizchilik bilan shug`ullanganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ko`plab mehnat qurollari, qishloq xo`jaligi mahsulotlarining qoldiqlari ham bu ma`lumotlarni tasdiqlaydi.² Ustrushonaliklar xo`jaligidagi muhim sohalardan biri bo`lgan chorvachilik asosan tog`, tog`oldi hududlaridagi sero`t yaylovlarda va cho`l, yarim cho`l hududlarda rivojlangan. O`lkamizning o`troq aholisi va yozma manbalarda «g`uzlar» yoki «to`qqiz o`g`izlar» nomi bilan yuritiluvchi hududning shimoliy, asosan cho`l qismlarida yashagan ko`chmanchi chorvador aholi aksariyat ot, tuya, mayda va yirik boshli uy hayvonlarini boqishga ixtisoslashgan. Aholining yordamchi xo`jaligi chorvachilikka asoslangan bir qancha Yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida chorva

¹ Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. 1957. С.103-109.

² Тўйчибоев Б.Б. Қадим ва илк ўрта асрлар Уструшона ахолисининг иқтисодий муносабатлари ҳақида айрим муроҳазалар./ Ўзбекистон археологияси №2 (7). Самарқанд 2013. 7-136.

uchun mo`ljallangan maxsus inshootlar, ko`chmanchi chorvadorlarga oid dafn Yodgorliklari turli uy hayvonlariga tegishli suyak qoldiqlari bu fikrlar to`g`riligini yana bir karra isbotlaydi.

Ustrushona zaminini tabiiy zaxiralarga boy bo`lib, bu erda qadim va o`rta asrlarda er osti boyliklarini qazib olish, tog`-konchilik sohasi rivojlanib kelgan. YOzma manbalar ma`lumotlariga ko`ra, Ustrushonada oltin, temir, qalay, nashatir va boshqa qazilma boyliklari olinib, ulardan kundalik turmushda qo`llaniladigan turli mahsulotlar, jumladan dehqonchilik, xo`jalik va harbiy quollar, uy ro`zg`or buyumlari, turli taqinchoqlar yasalgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanib, o`rganilgan tog`-konchilik markazlari, ularga ishlov beriladigan quyuv tsexlari va ustaxonalar o`rta asrlarda Ustrushona xo`jaligining bu sohasining yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi. Zotan xo`jalikdagi dehqonchilik, chorvachilik va tog` konchilik sohalari Ustrushona xo`jaligining sobit rivojlanishi uchun barqaror zamin yaratgan. Ustrushona hunarmandchiligi ko`p tarmoqli soha bo`lib, o`zida temirchilik, me`morchilik, kulolchilik, to`qimachilik va boshqa ko`plab sohalarni mujassam etgan. Hunarmandchilikning temir, jez va qimmatbaho metallarga ishlov berish markazlari, asosan, Bunjkent va uning atrofi, Minq rustoqlarida aniqlanganligiga qaramay, bu sohalar Ustrushonaning boshqa hududlarida ham keng tarqalgan. Ustrushona hunarmandlari tomonidan yasalgan dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy quollar, jez va misdan yasalgan idish-tovoqlar, uy-ro`zg`or buyumlari, turli taqinchoqlar keng muomalada bo`lgan. Shuningdek Ustrushonaning Minq rustoqida tayyorlangan temir xomashyo sifatida Farg`ona, xususan Axsikent temirchilik ustaxonalariga «eksport» qilingan.¹

O`z faoliyatini shaharsozlik va qal`a me`morchiligi, hashamatli va xo`jalik ahamiyatiga ega binolar, mudofaa va suv inshootlari qurilishida aks ettirgan Ustrushona me`morchiligi alohida ahamiyat kasb etganini ko`rishimiz mumkin. Muarixlar tomonidan «400 qal`ali» o`lka sifatida tilga olingan Ustrushona hududida so`nggi yillarda arxeolog va me`morshunos mutaxassislar tomonidan

¹ Папахристу О.А. Кузнечное дело и сельскохозяйственные орудия жителей горной Уструшаны середины XII вв. // ОНУ. 1992. №1. С. 39-42.

o`rganilgan mahobatli qal`alar va muhtasham ko`shklar, serjilo diniy ibodat inshootlari bu ma`lumotlarni to`la tasdiqlaydi. SHu bilan birga hunarmandchilikning yana bir qancha sohalari: kulolchilik, to`qimachilik va boshqalar rivojlangan. Ustrushona kulollari tomonidan yasalgan ko`plab sopol buyumlar: turli hajmdagi xum va xumchalar, idish-tovoqlar, ko`chma o`choqlar, turli xo`jalik va maishiy turmushda qo`llaniladigan buyumlar o`zining mahalliy xususiyatlarga egaligi, ommaviy tarqalganligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, Yodgorliklardan topilgan ko`plab ashylar Ustrushona shahar va qishloqlarida yashagan aholining yuksak darajadagi iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzidan ham dalolat beradi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan sopol, tosh, suyak va temirdan yasalgan ko`plab to`qimachilik qurollari va yozma manbalar ma`lumotlari, bu erda paxta, ipak, jun matolar ishlab chiqarishga asoslangan to`qimachilikning rivojlanganligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, yozma manbalarda tilga olingan Bunjikent shahridagi daryo va kanallar bo`ylarida ishlab turgan o`nlab tegirmonlar, musallas ishlab chiqaruvchi ustaxona, Marsmanda temirchilar va boshqa topilmalar, o`rta asrlardagi ustrushonaliklar hunarmandchiligining aholi turmush tarzi darajasiga katta, ijobiy ta`sir ko`rsatganini anglatadi.

Xalqaro savdo karvon yo`llari ustida joylashgan o`lkamizning qulay tabiiy o`rnii, bu erdagagi ichki va tashqi savdoning rivojlanishi uchun muhim omil bo`lib xizmat qilgan. Savdo pul va tovar ayriboshlash yordamida amalga oshirilgan. Ichki savdo ko`p hollarda asosan o`troq dehqon va ko`chmanchi chorvador aholi o`rtasidagi aloqalarga asoslangan. Ustrushonaliklar turli qishloq xo`jalik mahsulotlari: ho`l va quruq mevalar, don-dun, va chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik mollari, jumladan, xo`jalik va harbiy qurollar, taqinchoqlar, sopol va idishlar, to`qimachilik buyumlari va hokazolarni qo`shni hududlarga va ayni vaqtda boshqa o`lkalarga ham chiqarganlar. Xususan Minq rustoqidan olingan temirdan yasalgan harbiy qurollar Bag`dodga qadar uzoq o`lkalarda juda mashhur

bo`lgan.¹ Bu davrda Ustrushonaning ba`zi shahar va rustoqlari savdo-sotiq uchun ma`lum bir sohalarga ixtisoslashganliklarini ko`rishimiz mumkin. Masalan, Minqda quroq aslahalar, Bunjikent atrofida zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus ishlab chiqarish markazlari bo`lgan. Savdo asosan bozorlarda olib borilib, ulardan eng yirigi Marsmanda shahridagi bozor hisoblangan. YOzma manbalar ma`lumotiga ko`ra, bu erda har oyning boshida bir marta bozor bo`lib, bu bozor bir kun davom etgan va unda 100 ming dinorlik savdo bo`lgan. Bundan tashqari yozma manbalar Sabatdagi usti yopiq tim, bozor haqida ham ma`lumotlar beradi.

4§. O`rta asrlarda o`lkada ma`naviy hayot.

O`rta asrlar Ustrushonasining o`ziga xos rivojlangan san`ati, asosan, arxeologik manbalar asosida baholanadi. Arxeologik topilmalar ustrushonaliklar san`atining xalq amaliy (zargarlik, o`ymakorlik, naqqoshlik va h.k.), tasviriy, musiqa va boshqa sohalari haqida qimmatli ma`lumotlar beradi. Kultepa va boshqa Yodgorliklardan topilgan oltin, mis, jez va boshqa nodir metallardan quyish, zarb qilish orqali turli xil naqshlar, afsonaviy obrazlar va syujetlarning kompleks tasvirlarini o`zida mujassam qilgan mahsulotlarning nodir namunalari – qimmatbaho uzuk va sirg`alar, chiroq va shamdonlar, tamg`a va patnislari, idish-tovoqlar, o`choqlar, yog`och va ganch o`ymakorligi namunalari Ustrushona hunarmand va zargarlarining amaliy san`atini yuksak darajada baholash uchun haqli ravishda asos bo`la oladi.²

Ustrushona san`atining asosiy turi bo`lgan, asosan Qalai Qahqaha shahristonidan topilgan tasviriy san`atning 70dan ortiq kompozitsiyalari, jumladan «Ikki go`dakni emizayotgan ona bo`ri», «Ko`p qo`lli xudo tasviri», «Uch otliq jangchi», «Jang aravasidagi jangchi», «Uch ko`zli afsonaviy obraz», «Uch boshli va to`rt qo`lli xudo», «Qanotli jangchi», «Qush va ajdarho», «Otini davolayotgan

¹ Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. 1957. С.95.

² Кильчевская Э.В., Негматов Н.Н. Находки ювелирных изделий из Шахристана. // СА. - 1964. -№3. С.238-246., Бердимуродов А.Э. Гемма инталия из Алмантепа. // ОНУ. -1984. - №4. С.63-65.

jangchi», «Arfa chalayotgan ayol» va boshqalar, bu san`atning etuk darajasi haqida batafsil, boy ma`lumotlar beradi. Bu tasvirlardagi serjilo ranglar, o`ziga xos uslub ustrushonaliklarning har tomonlama etuk ma`naviy dunyoqarashining chuqr ildizlari, an`analari, qo`shni xalqlar, davlatlar (Sug`d, Tohariston va boshqalar) shu jumladan umuman SHarq (yunon, rim, xitoy) xalqlari ma`naviy hayoti bilan yaqin aloqalaridan dalolat beradi.

Arxeologik topilmalar ustrushonaliklar badiiy san`atining yana bir turi - musiqa san`ati haqida ham ma`lumotlar berib, bularning ichida «Arfa chalayotgan ayol» tasviri va musiqa asboblarining qoldiqlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi¹.

Ko`rib turganimizdek, o`lkamiz o`zining tarixiy voqealarga boy siyosiy hayoti, sertarmoq iqtisodiyoti, ko`pqirrali ma`naviy hayoti bilan o`rta asrlarda Movarounnahrning yuksak taraqqiy etgan o`lkalaridan biri bo`lganligini yaqqol isbotlaydi. Xususan, uning yuksak moddiy va ma`naviy madaniyati O`rta Osiyo xalqlarining keyingi davrlardagi taqdirida ham muhim o`rin egallaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Berdimurodov A.E. Gemma intaliya iz Almantepa. // ONU. -1984. -№4. S.63-65.
- Buryakov YU.F., Gritsina A.A. Maverannaxr va Velikom shelkovom puti. Samarkand-Bishkek. 2006. S. 138-139.
- Gritsina A.A. Ustrushanskie byli. –Tashkent, 2000. S.38-55.
- Drevniy Zaamin / – T.: Fan. 1994.
- Negmatov N.N. Ustrushana v bor`be s arabskim nashestviem (konets VII - pervaya polovina IXvv). // IAN Tadj. SSR. OON. Выр.5. 1954. S. 117-135.
- Negmatov N.N. Predvaritelnyy otchet o rabotakh Xodjentskogo otryada v 1954g. // TII AN Tadj. SSR. T. XXXVII. -Stalinabad., 1956.
- Negmatov N.N. Ustrushana v drevnosti i rannem srednevekovye. – Stalinabad. 1957.

¹ Пардаев М. Х., Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент, 2017, 168 б

Negmatov N.N., Xmel'nytskiy S.G. Srednevekovyy SHaxristan. - Dushanbe: Donish. 1966.

Papaxristu O.A. Kuznechnoe delo i selskoxozyaystvennye orudiya jiteley gornoy Ustrushany serediny XII vv. // ONU. 1992. №1. S. 39-42.

Pardaev M. H., To`ychiboev B.B. Ustrushona qadimda va ilk o`rta asrlarda. Toshkent. 2017,

To`ychiboev B.B. So`nggi afshin./ Tafakkur. -№3. Toshkent. 2003.

To`ychiboev B.B. Ustrushona afshinlari. / GulDU AXBOROTNOMASI. 2012-YIL 3-4-SON b. 77-80.

To`ychiboev B.B. Ustrushonaning qadimiylar davri siyosiy xayoti xususida muloxazalar (mil. ol.-VII mil. VIII asrlar)./ GulDU AXBOROTNOMASI. 2014. № 4. B. 78-85.

To`ychiboev B.B. O`rta asrlar Ustrushonasi tog` rustoqlarining joylashishi xususida./ O`zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari. VI to`plam. Toshkenti. 2015. B. 80-87.

To`ychiboev B.B. Qadim va ilk o`rta asrlar Ustrushona axolisining iqtisodiy munosabatlari haqida ayrim muloxazalar./ O`zbekiston arxeologiyasi №2 (7). Samarqand 2013. 7-13b.

Sverchkov L.M. K voprosu o vzaimootnosheniyakh ixshidov Sogda i afshinov Ustrushany. // TD sovetsko-frantsuzskogo kollokviuma "Kultura drevnego i srednevekovogo Samarkanda i istoricheskie svyazi Sogda". -T., 1990. s. 89-91.

Kil'chevskaya E.V., Negmatov N.N. Naxodki yuvelirnykh izdeliy iz SHahristana. // SA. -1964. -№3. S.238-246.

7 BOB O`LKA BUYUK IPAk YO`LIDA

1§. Sirdaryo kechuvidagi shahar.

2§. Mirza-Rabot karvonsaroyi

3§. “Buyuk ipak yo`li”dagi Yodgorlik.

Tayanch iboralar: “Eski Binokat yo`li”, Samarqand – Zomin – Xovos – Binokat yo`nalishi, Xushkat shahri, Mirza-Rabot karvonsaroyi, “YAkkasaroy” sardobasi, “Mirzasardoba”, “Mirzarobod” karvonsaroyi, “YOg`ochli” sardobasi.

1§. Sirdaryo kechuvidagi shahar.

O`rta Osiyoda somoniylar davriga kelib markazlashgan davlatning paydo bo`lishi, mintaqalararo va xalqaro savdo-sotiqning rivojlanishiga sabab bo`ladi. Somoniylar davlati markazi(So`g`d)ning er osti qazilma boyliklariga boy SHosh (Toshkent) bilan savdo aloqalari hozirgi Sirdaryo viloyati hududi orqali o`tgan.

X asr oxiri – XI asrning I-yarmida Ustrushonadan Chochga 2 ta yo`l Sirdaryo bo`ylab Xovos orqali Samarqand – Zomin – Xovos – Binokat yo`nalishida faoliyat yuritgan. Bu yo`l IX-X asrlarda “Eski Binokat yo`li” deb nomlangan. Ushbu yo`lda Xovosdan chiqqan karvon Sirdaryoning chap qirg`og`i bo`ylab borib, Binokat (SHohruhiya) shahri ro`parasidagi kechuv orqali SHoshga o`tgan. Kechuv muhim ahamiyatga ega bo`lgan. SHu sababli kechuvning chap qirg`og`ida Binokatning qarama-qarshi tomonida hozirgi Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumani Nurota qishlog`ida Xushkat shahri qad ko`targan.

YOdgorlik XX asr boshlarida arxeolog olimlar M. E. Masson va V. A. Nilssen tomonidan¹, XX asrning 70-yillarida O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya Institutining akademigi YU. F. Buryakov boshchiligidagi Choch-Iloq otryadi tomonidan, 1984 yilda esa shu institutning etakchi ilmiy xodimi A. Gritsina boshchiligidagi Sirdaryo otryadi tomonidan o`rganilgan².

SHahar uch qismdan Ark (7,5 hektar), shahriston (40-45 hektar) va raboddan iborat bo`lgan. Ark va rabod qismlari buzib yuborilgan faqatgina shahriston qismidan 7,5 hektar joy qabriston bo`lganligi sababli ham saqlanib qolingan.

SHaharda hayot IX asr oxirlarida boshlangan va XVI asrning 1-yarmigacha davom etgan. X - asrga oid madaniy qatlamlar shaharning ark hududida uchraydi.

¹ Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв). Т.: 1966.

² Грицина А.А. Археологические памятники Сырдаринской области. Ташкент, 1992.

Ushbu davrda Xushket kulollari SHosh uchun xos bo`lgan ilk sirlangan sopol buyumlar ishlab chiqarishni o`zlashtirishgan. Bu narsa dastlabki xushketliklar bu erga SHoshdan aniqrog`i daryoning narigi qirg`og`idagi Benaketedan kelishgan bo`lishi mumkinligi to`g`risida fikr bildirishimizga asos bo`ladi. “Buyuk ipak yo`li”da joylashganligi, Shuningdek, SHoshga o`tuvchi kechuvda joylashganligi sabab shahar tez rivojlanadi. SHahar aholisining bir qismi qayiqchilar bo`lishgan. Ular daryodan o`tuvchilarni va yuklarni qayiqlarida olib o`tib qo`yishgan. Xushket SHoshning chegarasida joylashgani tufayli, bu erda muhim bojxona bo`lgan. CHunki SHosh o`lkasi tog` kon ma`danlariga, jumladan kumush konlariga boy bo`lgan, davlat markaziga kumush aynan SHoshdan Xushket orqali So`g`dga olib borilgan. Somoniylar davlati tomonidan zarb etilgan kumush tangalardan hatto uzoq Evropada ham foydalanishgan. Shuningdek, somoniylar davlatida qul savdosi o`ta serdaromad soho xisoblangan. Qullar nafaqat boylar uyida, Shuningdek, davlat armiyasida xizmat qilishgan. Qullar asosan Dashti Qipchoq cho`llarida hayot kechirishgan turkiy qavmlardan turli yo`llar bilan olingan. Ular ham davlat markaziga yuqoridagi kechuv orqali jo`natilgan. SHu sababli ham bu ikki serdaromad savdo qullar va kumush yombillardan maxsus boj olingan. Somoniylar davlatining Qoroxoniylar davlati tomonidan tor-mor etilganligi Xushketga ham ta`sir qilmay qolmaydi. XI-asr boshlarida Xushket qoroxoniylar davlati tarkibida bo`lgan. Yodgorlikdan ushbu davrga pishiq g`ishtlar, qoraxoniylarning SHoshdag`i eloqxoni Al-xan-al-adil tomonidan 1003-1004 yillari Binokatda zarb etgan mis tangalar va ushbu davrlarga oid turli sopol buyumlar topilgan¹. Ushbu davrga oid sopol buyumlar bugunda ham faoliyat yuritadigan mahalliy qabristondan ko`lab topiladi.

Xushkat 1219 yili CHingizzonning lashkarboshilari Olloqno`yon va Suketu CHerbi boshchiligidagi 5 ming kishilik qo`shin tomonidan vayron etilgan. SHuni ta`kidlash joizki, shahar aholisi Binokatdan farqli ravishda mo`g`il bosqinchilariga qattiq qarshilik ko`rsatishadi. Tamoman vayron etilgan shahar 1391-1392 yillari

¹ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент, 1982

sohibqiron Amir Temur tomonidan tiklangan. Demakki, sohibqiron viloyat hududida ham bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Va biz buni albatta bilishimiz zarur. Amir Temurning nevarasi Ulug`bek davrida Xushkat karvon yo`lidagi muhim shahar hisoblangan. 1503 yil shahar Muhammad SHayboniyxon qo`shinlari tomonidan bosib olinadi. Biroq shaharda hayotning so`nishi bu voqeal bilan emas, balki mintaqalararo va xalqaro savdo yo`li bo`lgan “Buyuk ipak yo`li” ning o`z faoliyatini to`xtatishi bilan bog`liq¹. Turklar tomonidan 1453 yili Konstantinopolning bosib olinishi natijasida, evropalik savdogarlar endi Xitoyga boruvchi boshqa yo`llarni izlab topishga majbur etadi. Buning natijasida enda savdo karvonlari o`lkamizni chetlab o`tadi. Bir vaqtlar aynan “Buyuk ipak yo`li” bo`yida joylashganligi sabab paydo bo`lgan va gullab yashnagan shahar, ushbu yo`lning o`z ahamiyatini yo`qotishi bilan tanazzulga yuz tutadi.

2§. Mirza-Rabot karvonsaroyi

YUqorida o`rta asr geograflari, xususan Xordadbehda Xovosdan SHoshga qarab ikkita yo`l bo`lganligi birinchisi Sirdaryoning o`ng qirg`og`i bo`ylab borgan bo`lsa, ikkinchi yo`l Sirdaryoning chap qirg`og`i bo`ylab Xovosdan to Xushketgacha borib, undan kechuv orqali Binoket (SHohruxiya)ga o`tganligi borasida yozgan edik. Bu yo`l IX-X asrlarda “Eski Binokat yo`li” deb nomlangan. Ushbu yo`lda karvonlarga xizmat ko`rsatish va ularga boshpana bo`lish maqsadida karvonsaroylar ham qurilgan. Ana shunday karvonsaroylardan biri Mirza-Rabot karvonsaroyi deb nomlanib, u hozirgi Sayxunobod tumanidagi Rabot qishlog`i hududida joylashgan bo`lgan. Karavaev uni yanglishib, Sayxunobod tumanidagi Mirza-to`qay qishlog`ida, daryodan 1-1,5 chaqirim narida bunyod etilgan deb yozadi. Ushbu karvonsaroy Xushket shahridan taxminan 8 kilometr sharqda, daryo bo`yida, SHohruhiya shahriga o`tadigan kechuvda joylashgan. XVI asrda mazkur o`ziga xos me`moriy obida sifatida uzoqdan ko`zga yaqqol tashlanib turgan. Karvonsaroy jami - 25 ta bo`lmadan iborat bo`lib, undagi xonalardan bir qismi masjidga ajratilgan bo`lgan, bir nechta xona karvonsaroy (karvondagilar uchun

¹ Кудратов С. Сардобалар ўлкаси, Тошкент, 2001

mehmonxona) vazifasini o`tagan. Mirza-Rabot nihoyatda ko`rkam shaklda qurilgan, peshtoqlari g`ishtning o`zi bilan sharqona uslubda yoysimon holda tutashtirilgan bo`lgan. XX asrning boshida Mirzacho`lni tadqiq qilgan rus mutaxassis V. F. Karavaev ana shu karvonsaroyning barpo etilishi tarixi to`g`risida mahalliy qariyalarning haqiqatga yaqin bir fikrini yozib qoldirgan. Mo`ysafidlarning shahodat berishlaricha, Abdullaxon bu koshonani qurdirish uchun Samarqanddan to Sirdaryo bo`yiga qadar odamlarning jonli zanjirini tizgan va g`ishtlarni qo`lma-qo`l uzatib, bu erga etkazishgan. Mirza-Rabot tashlandiq holda bo`lsa-da, XIX asrning oxirlarigacha saqlanib qolgan, atrofi loysuvoqli devorlar bilan aylanasiga o`ralgan bo`lgan. Afsuski, Mirzacho`lga ko`chirilgan rus aholisi 1868 yilda Obetovaniy (hozirgi Sayxunobod tumani “Guliston” qishlog`i o`rnida bo`lgan) qishlog`ini qurishda, keyinchalik Eski CHinoz temir yo`l stantsiyasini qurish vaqtida Mirza-Rabot-karvonsaroyi g`ishtlarini ko`chirib ketishgan¹. Ushbu karvonsaroyni o`rta asr me`morchiligi ko`rinishida qayta tiklansa, Sirdaryo bo`yiga ekoturizm yo`nalishida kelgan sayyoohlar uchun o`ziga xos tuhfa bo`lgan bo`lardi. Axir karvonsaroylarsiz Sirdaryo tarixini to`laqonli tasavvur etish mumkin emas. SHunday ekan, uning tiklanishi viloyat tarixini keng jamoatchilikka ayniqsa yoshlar ongiga singdirishda muhim manbaa vazifasini o`tagan bo`lardi.

3§. “Buyuk ipak yo`li”dagi Yodgorlik.

Miloddan avvalgi II asrda paydo bo`lgan, insoniyat tarixidagi eng qadimgi qitt`alararo, nemis olimi Rixtgofen tomonidan “Buyuk ipak yo`li” deb nomlangan savdo yo`li kishilik tarixida muhim o`rin tutadi. G`arb va sharqni bog`lagan uzunligi 12 ming kilometrga cho`zilgan ushbu yo`lda olib borilgan savdo munosabatlari orqali xalqlar bir-birlarining yutuqlaridan bahramand bo`lishgan va shu tariqa tezroq rivojlanishgan. SHuni ta`kidlash lozimki, ushbu yo`lda hozirgi Sirdaryo viloyati hududi o`zining egallagan geografik o`rni sababli muhim rol

¹ Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. Петроград, 1914.

o`ynagan. Zero Rimdan chiqqan va Xitoy sari otlangan har qanday karvon qadim Buxoro va Samarqanddan keyin albatta Sirdaryo zaminidan o`tgan. SHu sababli ham ushbu hududda karvonlarga xizmat ko`rsatuvchi ko`plab inshoatlar qad ko`targan.

O`rta asr arab geograflarining yozishicha, qadimda Mirzacho`lni kesib o`tuvchi uchta karvon yo`li bo`lgan. Ikkiasi Zomindan Xovos orqali Sirdaryo bo`ylab SHosh (Toshkent)ga borgan bo`lsa, uchinchi karvon yo`li Jizzaxdan hozirgi “beton” yo`li bo`ylab SHoshga borgan. Uchinchi yo`l SHoshga olib boruvchi eng qisqa yo`l bo`lgan, biroq cho`lni kesib o`tganligi bois mashaqqatli bo`lgan. SHu sababli bu yo`lda uchta sardoba qurilgan. Birinchisi CHinozdan 40 km. janubda, hozirgi Qozog`iston Respublikasining “Slavyanka” manzilgohi yaqinida bo`lgan. Ushbu sardoba “YAkkasaroy” deb nomlangan. Ikkinchisi YAkkasaroydan 13 km. janubda, Oqoltin tumaniga qarashli Mirzaqishloq yaqinida bo`lgan. Ushbu sardoba “Mirzasardoba” deb atalib, uning yaqinida karvonsaroy ham bo`lgan. Ushbu karvonsaroy “Mirzarobod” deb nomlangan. Uchinchi sardoba “Mirzasardoba”dan 30 km. janubda, Jizzaxdan 35 km. shimolda joylashgan, Sardoba tumani Gumbaz qishlog`idagi sardobadir. Ushbu sardoba XIX asr tarixchilari asarlarida “YOg`ochli (rus olimlari “Agachli” deb yozishadi) sardobasi” deb yuritiladi¹. YAxshi saqlangan ushbu me`moriy inshoat viloyat hududidagi ajdodlarimizdan bizga etib kelgan eng qadimgi obida hisoblanadi. SHu sababli ham uni o`rganish biz uchun alohida ahamiyatga ega.

“YOg`ochli” sardobasining qachon va kim tomonidan qurilganligi to`g`risida turli rivoyatlar mavjud. XIX asrda sardoba atrofida yashagan aholi orasida ushbu Yodgorlik Amir Temur buyrug`i bilan qurilganligi, uning qurilishi uchun zarur bo`lgan qurilish materiallari (g`isht, alebastr)ni yonma-yon turgan odamlar qo`lma-qo`l qilishib, Samarqanddan tashib keltirganliklari, sardoba hovuzi esa sohibqironning farmoni bilan qurilgan, Sirdaryodan suv oluvchi, O`rinboyariq yordamida to`ldirilganligi haqida rivoyatlar yurgan.

¹ Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. Ташкет, 1935

Kezi kelganda shuni ta`kidlash lozimki, **Sirdaryo Amir Temur hayoti va faoliyatida** muhim o`rin tutgan. Jumladan, Amir Temurning Sirdaryo hududi bilan bog`liq birinchi tarixiy voqealik bilan shuhrat topadi. Jangda amir Husaynning xiyonati oqibatida mag`lubiyatga uchraydilar va o`z qo`shinlari bilan Amudaryo bo`ylariga chekinib, Balx viloyatida o`rnashdilar.

Ikkinchi voqealik xaqida akademik V. V. Bartoldning ma`lumot beradi. Uning yozishicha 1366 yil Amir Temur amir Xusaynga qarshi kurashda Hisor xokimi Kayxusrav bilan yaqinlashadi, Kayxusrav Toshkentdan 2 ming kishilik qo`shini bilan kelib, Xovosda turgan amir Temurga qo`shiladi. SHundan so`ng Nizomiddin SHomiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Amir Temur hozirgi Mirzacho`l erlarida amir Xusaynning son jihatdan ustun bo`lgan qo`shinini tor-mor etgan¹.

Uchinchi voqealik bu Sayxunobod tumanidagi Nurota qishlog`i o`rnidagi Xushkat yodgorligi bilan bog`liq. Mo`g`illar tomonidan vayron etilgan ushbu shahar 1391-1392 yillari Amir Temur tomonidan tiklangan.

Lekin “YOg`ochli” sardobasining Amir Temur tomonidan bunyod etilganligi bu rivoyat. Tarixiy manbalarning, xususan Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” asarida yozilishicha, Buxora xoni Abdullaxon II (1534-1598) Toshkentga yurishi (1579-1583) davrida 1580 yil 10 aprelda ushbu joyda bo`lib, bu erda sardoba va karvonsaroy qurishga farmon beradi²

“YOg`ochli” sardobasi gumbazsimon ko`rinishga ega. U nihoyatda sifatli g`ishtdan qurilgan. G`ishtlar kvadrat shaklda bo`lib, ularning hajmlari: 25x25x5 santimetr. Gumbazning ichki diametri 15 metrni, balandligi 12 metrni tashkil etadi. Sardobaning ichki qismida poldan 2 metr balandlikda yopiq, uyasimon tuynuklar joylashgan. Sardoba devorining qalinligi pastki qismida 1,5 metrni tashkil etsa,

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Том I. М., 1963

² Хофиз Таниш ал Бухорий. “Абдулланома”, Тошкент, 2000.

yuqoriga ko`tarilgan sari yupqalashib boradi va eng yuqori qismida uning qalinligi bir g`isht ko`rinishiga keladi.

Sardobaga bir tomondan – shimol tarafdan kirilgan. Qolgan uch tarafida ark ko`rinishidagi tuynuklar bo`lgan. Kirish arksimon bo`lib, undan g`ishtli zinopoyalar orqali sardoba ichkarisiga kirilgan. Kirish qismida o`ziga xos koridor mavjud. XIX asr tarixchilarining yozishicha, koridorning tepasida sardoba xizmatchilari va qo`riqchilari uchun maxsus xona bo`lgan. Unga sardoba tashqarisida qurilgan aylanma zinopoya orqali ko`tarilgan. Hozirda ushbu xona mavjud emas.

“YOg`ochli” sardobasi yomg`ir va qor suvlari bilan to`ldirilgan. SHu sababli “YOg`ochli” sardobasi soylikda joylashgan, ushbu holat unga tevarak-atrofdagi suvlarni qabul qilish imkonini bergen. YOn-atrofdagi suvlar insonlar tomonidan qazilgan irmoqchalar yordamida sardobaga quyilgan. Sardobaga suvning kirishi uchun maxsus yassi tarnovlar o`rnatilgan bo`lib, ular bir-birlari bilan halqasimon tarnov orqali bog`langan.

Suvning aynib qolmasligi uchun sardobada uchta maxsus ventalitsion tuynuklar o`rnatilgan. Gumbazning yuqori qismi ham shu maqsadda ochiq qoldirilgan. SHu sababli ham sardoba suvi “muz”dek, toza va tiniq bo`lgan. SHu o`rinda sardoba degani forschada, sard - sovuq, ob - suv, ya`ni muzdek suv degan ma`noni anglatishini eslatib o`tish o`rinli. Sardoba yilda bir marta tozalanib turilgan. O`rta asr tarixchilarining yozishicha, “YOg`ochli” sardobasi yaqinida karvonsaroy hamda chorborg` bo`lgan¹.

Mustaqillik yillari “YOg`ochli” sardobasi ta`mirlandi. Toshkent – Samarqand - Buxoro shaharlarini bog`lovchi avtomagistralъ yo`l yoqasida joylashgan ushbu o`ziga xos Yodgorlik bu yo`ldan o`tuvchi ajnabiy sayyoohlar uchun qiziqarli ekanligini va shu sababli ushbu Yodgorlik turistik marshrutga kiritilsa sayyoohlarda Mirzacho`lning “Buyuk ipak yo`li” da tutgan o`rni to`g`risida ma`lumot paydo bo`lardi. Buning uchun Yodgorlik atrofida ayrim ishlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, Yodgorlik atrofida sayyoohlar avtomashinasi uchun yoqilg`i quyish

¹ Кудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент, 2001

shaxobchasi qurilsa, mahalliy hunarmandlar tomonidan yasalgan hunarmandchilik buyumlari: pichoqlar, sopol idishlar, haykalchalar, mahalliy rassomlarning asarlari sotuvini tashkil etilsa, Shuningdek sayyohlar bir muddat o`tirib dam olishlari uchun so`rilar va yozda yaxshi chanqoq bosdi ichimlik - ayron sotuvini tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqoridagi tadqiqotlar qadimdan aholi tomonidan o`zlashtirilgan bu hudud, Vatanimiz o`tmishidagi muhim tarixiy voqealar bilan chambarchas bog`liq holda, O`rta Osiyo xalqlari tarixining muhim uzviy qismini tashkil etganini ko`rsatadi. O`lkamizda yashagan ajdodlarimizning iqtisodiy hayoti, madaniy turmush tarzidagi serqirra an`analar va umuminsoniy qadriyatlar bugungi mustaqil O`zbekiston jamiyatining bu ko`hna dunyoning qadim davrlari qa`ridan kelayotgan ma`naviy sarchashmalarining bir ko`rinishidir.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Bartold V.V. Turkistan v epoxu mongoliskogo nashestviya. Soch. Tom I. M., 1963

Buryakov YU.F. Genezis i etapy razvitiya gorodskoy kul'tury Tashkentskogo oazisa. Tashkent, 1982

Gritsina A.A. Arxeologicheskie pamyatniki Sыrdаръinskoy oblasti. Tashkent, 1992.

Nil'sen V.A. Stanovlenie feodal'noy arxitektury Sredney Azii (V-VIII vv). – T.: 1966.

Masson M.E. Problema izucheniya tsistern-sardoba.Tashket, 1935

Karavaev V.F. Golodnaya stepь v eyo proshlom i nastoyaщem. Statisticheskiy ocherk. Petrograd, 1914

Qudratov S. Sardobalar o`lkasi, Toshkent, 2001

Hofiz Tanish al Buxoriy. "Abdullanoma", Toshkent, 2000.

1§. O`lkaning Ustrushona qismi arxeologiya Yodgorliklari

2§. O`lkada Choch arxeologiya Yodgorliklari

3§. Orliq zona arxeologiya Yodgorliklari

Tayanch iboralar: Nurota yodgorligi, Eski Xovost yodgorligi, Ulkansoylik yodgorligi, “g`uz” (o`g`uz)lar, Ustrushona arxeologiya Yodgorliklari, Choch arxeologiya Yodgorliklari, Orliq zona arxeologiya Yodgorliklari,

Sirdaryo o`lkasining katta bir qismini Mirzacho`l egalagan. Xalq orasida bu erda xayot bo`lmagan va arxeologiya Yodgorliklar mavjud emas degan tushuncha shakllangan. Aslida esa, o`rta asrlarda Ustrushona davlati tarkibida bo`lgan bu o`lka qadimda va o`rta asrlarda inson tomonidan o`zlashtirilgan hududlardan biri bo`lgan. Mirzucho`lni turli yo`nalishlarda Sug`d, Choch, Farg`onaga boruvchi karvon yo`llari kesib o`tgan va bu yo`llarda joylashgan shaxar va kentlar o`z davrida savdo va karvonlarga xizmat ko`rsatish xisobiga gullab yashnagan. Ular ichida Sayxunobod tumanida joylashgan Xushkent shhri deb hisoblanuvchi Nurota va Xovost tumanidagi Eski Xovost Yodgorliklari deyarli barcha manbalarda tilga olinadi. O`lkadagi savdo munosabatlarida ko`psonli ko`chmanchi xalqlar muxim o`rin egallagan. Ulardan biri “g`uz” (o`g`uz)lar xaqida arab manbalarida ma`lumotlar beriladi. Misol uchun, Guliston shahri yaqinida joylashgan Ulkansoylik yodgorligi mutaxasislar tomonidan “g`uz” qabilasi sardorining qabri xisoblanadi. Bugunga qadar o`lkadan bir qator Yodgorliklar o`rni aniqlanib, xaritaga olingan.

Sirdaryo o`lkasi qadimdan ikki xo`jalik turi dexqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullanuvchi axoli yashagan chegara hudud xisoblangan. Bu chegara butun tarixiy davrlar davomida beqaror bo`lgan. Chorvador axoli o`troq axoli hududiga kelib o`troqlashgan, savdogarlar va dexqonlar o`z maxsulotlarini sotsh uchun chorvadorlar bilan yaqin aloqada bo`lib kelishgan. Natijada Sirdaryoning xar ikkala qirg`og`i va cho`l

hududlarida qadimdan ko`plab shahar va manzilgoxlar qurilgan, hududda yashagan chorvador va o`troq axoli madaniyatlarining o`zaro uyg`unligi kuzatib kelinadi. Natijada bu erda o`zida dexqonchilik va chorvachilik madaniyati belgilarini mujassam etuvchi o`ziga xos madaniyat shakllangan.

Sirdaryo o`lkasi arxeologiya Yodgorliklarini bir necha guruxga ajratishimiz mumkin. Bular :

- 1.O`lkaning Ustrushona qismi arxeologiya Yodgorliklari
- 2 O`lkada Choch arxeologiya Yodgorliklari
3. Orliq zona arxeologiya Yodgorliklari

1§. O`lkaning Ustrushona qismi arxeologiya Yodgorliklari

Eski Xovos - Eski Xovos Xovos tumani shu nomli temir yo`l bekti yaqinida, soyning o`ng qirg`og`ida joylashgan. M.E. Masson tomonidan yodga olinadi (Masson, 1934, 16-b.). 1984 va 1988 yillarda uni Sirdaryo arxeologik otryadi tadqiq etgan, 1988-1989, 2003-2004 yillarda u erda qazishmalar o`tkazilgan (Gritsina, 1990, 12-13, 15-16-bb.; Gritsina, Ivanitskiy, Rahimov, 2004, 61-64-bb.). Xarobalar hududi o`ta buzilgan. Yodgorlik ustidan ko`plab X-XX asrlarga oid sopol va tangalar topilgan. Arki a`lo Yodgorlikning shimoli-g`arbiy qismida joylashgan. Unga bir-biridan chim devor bilan ajratilgan ikki hudud (shahriston) tutashadi. Xarobalarning umumiyligi maydoni 10-12 ga, undan 2 ga yaqin hududda arki a`lo joylashgan. Yodgorlikdan olingan materiallar asosida unda milodgacha I asrlardan milodiy XX asrlargacha uzlusiz hayot bo`lgan. 1988-1989-yillarda O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti Sirdaryo arxeologik otryadi ilk bor Eski Xovos xarobalarida qazishma ishlarini olib boradi. Natijada Yodgorlikning eng quyi qatlamlaridan (tin erga eta olmagan bo`lsalarda), olingan arxeologik manbalar manzilgohning kamida milodgacha I va milodiy I asrlarda paydo bo`lganligini ko`satdi. Boshqacha aytganda, eski Xovos kamida ikki ming yillik tarixga ega ekanligi va u butun Sirdaryo viloyatida eng qadimgi shahar xarobasi qoldig`iligi isbotlandi. SHu yillarda Xovos va uning atroflaridagi SHO`rbuloq soyning (Nijonisoy) yuqori oqimida, suv manbai bo`lgan hududda

katta Nurtepa shahar xarobasi ochiladi. Bu erda qayd qilingan arxeologik ashyolar milodgacha VI va V asrlarga oid bo`lib, ular Xovosning antik yozma manbalarda keltirilgan qadimgi Ustrushona manzilgohi qoldig`i bo`lganligini ko`rsatadi. 2003-yildagi arxeologik qazishmalar tufayli bu erdan ilk yunonlar davri mudofaa devorlari qoldiqlarining ochilishi yuqoridagi ma`lumotlarni tasdiqladi. E`tiborli tomoni shundaki, mazkur devorlar yanada qadimiyroq qatlamlar ustiga qurilgan edi. Keyingi 2004-yilda eramizdan oldingi IV-III asrlarga oid devor qoldiqlari va sopol idishlar majmuasi topildi. Eski Xovos shahar xarobasi butun Ustrushona uchun etalon Yodgorlik hisoblanadi. Vaholanki, Istravshondagi Mug`tepa (O`ratepa) va boshqa shahar xarobasi Yodgorliklari qatlamlarida sezilarli uzilishlar kuzatiladi. Eski Xovos yodgorligida keyingi to`rt yil mobaynida (2014-2017) arxeologik tadqiqotlar davom etib kelmoqda. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: antik davr, ilk, rivojlangan va so`nggi o`rta asrlar. Sanasi: mil avv II mil XIX asrlar¹.

Toltepa - Toltepa Eski Xovos yodgorligidan 2 km janubda joylashgan. Karvonsaroy maxallasining chegarasida. Oval shaklidagi formaga ega. O`lchamlari 62x40 m, balandligi 5 m. Xozirda qabriston band qilib turibdi. Er ustki ko`tarma materiallari VI—XII asrlarga oid. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk va rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: VI—XII asrlar².

Mozorqo`rg`on - Mozorqo`rg`on Xovos tumanida Lolatepadan 5 km shimoliy-g`arbiy tomonda Xovos-Sarmich yo`lidan 1 km sharqda joylashgan. Diametri 20 m, balandligi 2m.

¹ Грицина А.А. Отчет о полевых исследованиях Сырдарынского отряда в 1989 // Архив Института археологии АН РУз. Самарканд, 1989. Ф. 6, о.1, д. 22. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарынской области. Ташкент, 1992. Грицина А.А, Иваницкий И.Д., Рахимов К. Раскопки на городище Эски Хавас // Археологические исследования в Узбекистане – 2003 год. Вып. 4. Ташкент, 2004.

² Грицина А.А. Отчет о полевых исследованиях Сырдарынского отряда в 1989 // Архив Института археологии АН РУз. Самарканд, 1989. Ф. 6, о.1, д. 22. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарынской области. Ташкент, 1992.

Oqtepa (Qo`shqand) - Oqtepa Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Kichkinasoyning o`ng qirg`og`ida Qo`shqand qishlog`ining ostonasida, Xovos – O`ratepa yo`lidan 3,5 km sharqda joylashgan. A. I. Bilalovning tadqiqotlarida eslatib o`tildai. Jizzax va Sirdaryo otryadlari tomonidan o`rganilgan. Ikkita oval shakldagi tepalikdan iborat. SHimoliy tepalik asosga ko`ra o`lchami 72x45 m, balandligi 7,5 m, janubiy tepalik 46x32 m, balandligi 4 m. o`tqazilgan qazuv tadqiqotlari VI-XVIII asrlarga oid materiallarni beradi. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk va rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: VI-XVIII asrlar¹.

Oqtepa (Xovatag) - Oqtepa (SHo`rbuloqsoy) Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Uchturgan qishlog`idan 1,5—2 km janubda soyning o`ng qirg`og`ida joylashgan. A. I. Bilalov tomonidan aniqlanib, o`lchamlari 80x45 m, balandligi 12-13 m. Jizzax va Sirdaryo otryadlari 1986—1987 hamda 1988 yillarda tadqiq etilgan. 1988 tushirilgan stratigrafik shurf eramizning VI-VIII asrlariga oid materiallarni bergen. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: VI-VIII asrlar².

Oqtepa 1 - Oqtepa 1 YUqoridagi tepalikdan 0,4 km uzoqlikda Kichkinasoyning o`ng qirg`og`ida joylashgan. tepalik oval shaklda, o`lchami 80x70 m, balandligi 2 m. sopol buyumlar parchalari qoraxoniylar davriga oid O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: XI-XIII asrlar³.

¹ Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

² Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

³ Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

Oqtepa (Qo`riqtapa) - Oqtepa (Bettasoy) Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Qo`riq qishlog`ida, Qo`riqsoyning o`ng qirg`og`ida joylashgan. oval shakldagi o`lchami 56x47 m, balandligi 14 m bo`lgan tsitadel va unga janub tarafdan tutash bo`lgan o`lchami 116x80 m bo`lgan maydondan iborat. Sopollari XIXIII asrlar bilan davrlashtirilgan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: XI-XIII asrlar¹.

Mozorqo`rg`on III - Mozorqo`rg`on III yodgorligi Qo`sinqand qishlog`iga qarashli yangi uchastkalar chegarasidan 150 m g`arbda, Xovos-O`ratepa avtomobil yo`lidan 250 m g`arbda tekis dasht hududida joylashgan. Uning topoplndlagi shakli ovalsimon dumaloq, ozroq shimol-janub yo`nalishida cho`zilgan, o`lchamlari 20x15 m, balandligi 2,5 m. Davriy sanasi noma`lum. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: noma`lum².

Qo`rg`onchatepa - Qo`rg`ontepa yodgorligi Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Mozorqo`rg`on II dan 1,0 km sharqda, Savat-Balandchaqir avtomobil yo`lining 5 km.da, yo`lning chap (shimol) tomonida joylashgan. U ovalsimon shaklda, SavatBalandchaqir avtomobil yo`li qurilishi paytida Qo`rg`onchaning qariyb yarmi-janubiy qismi surib tashlangan. Ushbu yo`lning o`ng (janub) yoqasida qisman saqlanib qolgan tepachalar qayd etildi. Qo`rg`onchaning o`lchamlari 40x40 m, balandligi 2,0-3,0 m atrofida. Davriy sanasi V-VI asrlarga doir. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi

¹ Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

² Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: V-VI asrlar¹.

Kampirdevol - Kampir devor yodgorligi Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Qo`shqand qishlog`idan 1,2 km shimol tomonda, sharq-g`arb yo`nalishi bo`yicha o`tgan. Uning sharqiy qismi qo`shni Tojikiston Respublikasining O`ratepa tumani hududidan boshlangan, g`arbiy qismi esa Hovatog`, Uchqo`rg`on, Eski Xovos qishloqlarini suv bilan ta`minlovchi Sho`rbuloqsoyga taqalgan va uzilib qolgan. Uning davomining ayrim bo`laklari Zomin tumanining Arja, SHo`rcha, Pishag`or qishloqlarining shimolidagi dasht – cho`l hududlarida aniqlandi. Mazkur devor Ravot qishlog`i atrofida saqlanib qolgan Jizzax vohasi Kampir devori bilan tutashgan va ushbu mintaqani qadimda ikkiga – o`troq dehqon va ko`chmanchi chorvador xo`jaligi asosida yashovchi aholi guruhiga bo`lgan. Qo`shqand Kampir devorining eni, uning yoyilib ketgan ko`tarma vali bo`yicha 7-8 m.ga, balandligi 0,7-1,0-1,2 m.ga teng. Yodgorlikning ba`zi joylarida yarim oysimon shakldagi harbiy burjlar izlari saqlanib qolgan. Davriy sanasi V-VIII asrlar. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: V-VIII asrlar².

Qo`shtepa - Eski Mozortepa yodgorligi Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Qo`rg`onchadan 1,5 km masofa sharqda, Pastkichaqir qishlog`ining yangi uchastkalar qurilayotgan mavzeidan 450 m sharqda, Savat-Balandchaqir avtomobil yo`lining Pastkichaqir qishlog`i markaziga burilish joyida, yo`lning chap (shimol) tomonida, o`rtacha balandlikdagi tabiiy qir ustida joylashgan. Uning topoplindagi ko`rinishi to`g`ri to`rtburchak shaklida bo`lib, o`lchamlari 200x150 m.ga, balandligi 2,0-3,5-5,0 m.ga teng. Eski mozortepaning asosiy qurilishlari uning shimol tomonida joylashgan, sharq-g`arb yo`nalishi bo`yicha cho`zilgan

¹ Аминдjanova M. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

² Аминдjanova M. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

“tsitadel”da va janub tomonda mavjud tuxumsimon shakldagi mavzeda bunyod etilgan. Mahobatli ushbu shaharmonand Yodgorlikning mudofaa devorlari ko`zga tashlanmaydi. Yodgorlikning butun hududi baland sim to`r bilan o`ralgan, qalin va baland o`t-o`lan qoplangan. O`tmishda uzoq davr mobaynida qabriston vazifasini o`tagan Yodgorlik hozir faoliyatidan to`xtagan. V-VIII, IX - XII asrlarga oid. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk va rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: V-VIII, XI-XIII asrlar¹.

Eski Rovottepа - Eski Ravot (CHakand) yodgorligi Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Qo`rg`onchadan 400 m janubda, CHakand qishlog`ining shimol tomonida, Savat-Balandchaqir avtomobil yo`lining o`ng (janub) tomonidagi shudgorlangan dala ichida joylashgan. Uning topoplardagi ko`rinishi to`g`ri to`rtburchak shaklida bo`lib, o`lchamlari – shimol -janub tomoni – 22 m.ga, sharq-g`arb tomoni 27 m.ga, balandligi 2,5 -3,0 m.ga teng. Eski Ravot yodgorligi faqat bir davrga tegishli “steril” holatdagi, alohida joylashgan uy kichik manzilgoh bo`lib, V-VI asrlar bilan davrlanadi. Uning g`arb tomonidan barcha tomonlaridan chuqur “transheya” qazilgan va chorva mollari uchun ochiq joydan qo`ra qilingan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: V-VI asrlar².

Eski Rovot 1 - Eski Ravot I (CHakand) yodgorligi Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Eski Ravotdan 800 m janubda, Savat-Balandchaqir avtomobil yo`lining o`ng (janub) tomonida, CHakand qishlog`ining shimolida joylashgan. Uning topoplardagi ko`rinishi aylanasimon to`g`ri to`rtburchak shaklida bo`lib, shimoljanub yo`nalishida cho`zilgan. Uning o`lchamlari 35x20 m, balandligi 2,53,0 m. Yodgorlikning g`arb va shimol qismida CHakandsoyning davomi o`tgan.

¹ Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

² Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

Ayni paytda Quruqsoyga aylangan suv o`zaniga bahor mavsumida suv keladi. Eski Ravot I o`tmishda alohida joylashgan uy, manzilgoh vazifasini o`tagan, V-VI asrlar bilan davrlangan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: V-VI asrlar¹.

YAlpoqtepa - YAlpoqtepa yodgorligi Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Eski Ravot II dan 160 m shimoliy-sharqda, CHakand qishlog`ining shimol tomonida, Savat-Balandchaqir avtomobil yo`lining o`ng tomonida, g`allazor dala maydonida joylashgan. YAlpoqtepaning topoplanyagi ko`rinishi Eski Ravot I ga o`xshab ketadi, o`lchamlari 27x20 m.ni, balandligi 2,0 m.ni tashkil qiladi. Mazkur Yodgorliklar o`tmishda faqat 1-2 avlod chorvador – yarim o`troq, yarim ko`chmanchi aholi uchun faoliyat ko`rsatgan. Ularning davriy sanasi ham bir davrga to`g`ri kelib, V-VI asrlar bilan davrlanadi. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: V-VI asrlar².

Mozorqo`rg`ontepa - Mozorqo`rg`ontepa yodgorligi Jizzax viloyati YAngiobod tumanida, Hovatog` MFYga qarashli CHangovul qishlog`ining janubiy chekka qismida, Balandchaqir – Qo`sinqand avtomobil yo`lining chap (g`arb) tomonida, o`rtacha balandlikdagi tabiiy qir ustida joylashgan. A. I. Bilalov tomonidan aniqlangan. Mozorbobotepaning topoplanyagi ko`rinishi ovalsimon to`g`ri to`rtburchak shaklida bo`lib, shimol-janub yo`nalishida cho`zilgan, o`lchamlari 70x60 m, balandigi 6 m. Asosiy qurilishlar shimoliy qismida joylashgan arkia`loda bunyod etilgan. Uning davriy sanasi V-VIII, X-XVIII asrlar bilan sanalanadi. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85

¹ Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980.

² Аминджанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk va rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: V-VI, X-XVIII asrlar¹.

Qorovultepa 3 - Qorovultepa 3 Mozorbobotepadan g`arbda joylashgan. 1987 yilda Sirdaryo otryadi tomonidan o`rganilgan. YUzasi shudgor qilingan. Oval shaklda o`lchamlari 18x12,5 m, balandligi qariyb 2 m. Sopollari ilk o`rta asrlarga oid. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Zomin arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: V-VI asrlar².

2§. O`lkada Choch arxeologiya Yodgorliklari

Nurota shaxar yodgorligi - Sayxunobod tumani SH.Raximov SFU hududida joylashgan. Xozirgi kunda Yodgorlikning katta qismi o`zlashtirib yuborilgan. Boshqa bir qismi qishloq erlariga qo`shib yuborilgan. Teginilmgan baland qismi 7,5 ga er maydoni qabriston uchun berib yuborilgan. V. F. Karavaev xartiasida belgilab qo`yilgan. M. E. Masson va V. A. Nilssen ishlarida eslab o`tiladi. YU.F. Buryakov rahbarligidagi 1970 yillardagi Choch – Iloq ekspeditsiyasi tadqiqotlarida 1984 yilda Sirdaryo otryadi sopol buyumlar, pishgan g`ishtlar namunalari va “1003-1004 yillarda ash SHoshda al-Odil Xon nomidan zarb etilgan” qoraxoniyl felssi,topilgan. 1987 va 1989 yillarda A. A. Gritsina tomonidan qazuv ishlari olib borilgan. SHaxarning umumiy maydoni 40—45 ga dan oshmaydi. Unda axoli juda qisqa vaqt oraig`ida – IX asr oxirlaridan XI asr birinchi yarmiga qadar istiqomat qilganligi taxmin qilingan. Ikkinchi istiqomat davri mo`g`ul istilosidan keyingi davrda boshlanganligi va o`rta asrlar Xushket shaxri ekanligi taxmin qilingan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85

¹ Аминдjanova M. Археологическая разведка в Зааминском районе // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980.

² Аминдjanova M. Археологическая разведка в Зааминском районе //ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: Фан, 1969. Билалов А. И. Из истории ирригации Уструшаны. Душанбе. 1980. Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992.

yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: IX-XI asrlar¹.

CHittitepa - Sayxunobod tumani Paxtakor MFY, 3 bo`limi hududida joylashgan. To`g`ri to`rtburchak shaklidagi formaga ega. O`lchamlari 66x63 m. SHimoliy-g`arbiy va Janubiy-sharqi burchaklarida tepaliklar mavjud. Markazida diametri 36 m, balandligi 6 m bo`lgan tepalik mavjud. Davri aniqlanmagan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: - Sanasi: aniqlanmagan².

Saritepa - Sayxunobod tumani Soxil MFY, 3 bo`limi hududida joylashgan. 1984 yilda Sirdaryo otryadi tomonidan nomsiztepa deb belgilangan. To`g`ri to`rtburchak shaklidagi formaga ega. O`lchami 55x42 m, balandligi 5 m. Sirlangan va sirlanmagan sopol buyumlari X—XII asrlarga oid. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: X—XII asrlar³.

Kindiktepa - Sayxunobod tumani Paxtakor MFY, 2 bo`limi hududida joylashgan. Balandligi 3-4 m bo`lgan ikkita tepalikdan iborat. Ulardan istiqomat belgilari topilmaganlig sababli qo`rg`on bo`lishi mumkin degan taxmin bor. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: - Sanasi: aniqlanmagan⁴.

Qal`atepa - Sayxunobod tumani SH. Raximov SFU hududida Nurota shaxar yodgorligidan 3 km janubiy-sharq tomonda joylashgan. V. F. Karavaev xaritasiga tushirilgan. 1984 yil Sirdaryo otryadi tomonidan o`rganilgan. Asosining o`lchamlari 77x70 m, balandligi 9 m. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi

¹ Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992., Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

² Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

³ Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992.

⁴ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992.

Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: - Sanasi: aniqlanmagan¹.

Quttiqiztepa - Quttiqiztepa Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani, Furqat MFY, Bog`ora maxallasi hududida joylashgan. Yodgorlik umumiy maydoni 17-18 ga bo`lib u an`anaviy formaga ega. Uning rel`efiga ko`ra ark, shaxriston va rabodlarga ega bo`lgan shaxar ekanligini taxmin qilish mumkin. Mustaxkamlangan ark qismiga ega, tsitadel o`lchami 60x48 m, balandligi 5 m bo`lib, janub va sharq tomonlardan aniq bo`lmagan o`lchamli hudud bilan tutashib ketgan. Er ustki ko`tarma materiallari asosan o`rta asrlarga qisman antik davrga oid. 2016 yilda o`tkazilgan qazuv ishlari Yodgorlikning shimoliy – g`arbiy hududlarida 5x7 m o`lchamda deb hisoblangan 48x60 o`lchamdagи maydonning mudofaa devori va yoki peshtoqi o`rnini topish maqsadida olib borildi. Kattaqiztepa yodgorligining nomlanishi shu atrofda qozoq ovullari yashaganligi va qozoqcha “Kutdiqiz”, “Quttiqiz” kabi nomlar bilan atalishini inobatga olgan xolda qozoq tilidagi “qutti” o`zbek tilida “qutlug`” so`ziga mos keladi degan fikrda ushbu shaxarning nomlanishi qadim o`tmishga borib taqalishi mumkin.

Manbalarda tilga olingen Vinkerd nasroniy qishlog`i bo`lishi extimoli borligi, nasroniy cherkovlarining joylashuvi masalasiga e`tibor qaratishni talab qiladi. 2016 yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalarining asosiy qismini sopol idishlar tashkil qiladi. Ular turlichcha bo`lib, asosan er usti ko`tarma materiallaridan iborat. Topilmalar davriy jixatdan turlichcha bo`lib asosan rivojlangan o`rta asrlar davrini o`z ichiga oladi (IX-XI asrlar). Umuman olib aytganda topilmalarining xarakteri Toshkent voxasi moddiy madaniyatiga yaqin ekanligini bildirib turadi. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: ilk rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: I—XI asrlar².

¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

² Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Буряков Ю.Ф., Грицина А. А. Мавераннахр на Великом шелковом пути. Самарканд-Бишкек.: МИЦАИ, 2006.

Puchuqtepa - Puchuqtepa Sirdaryo shaxrining shimoliy chekkasida, Xakikat SFU hududida joylashgan. V. F. Karavaev tomonidan aniqlangan. Yodgorlik kuchli darajada buzilgan. Saqlanib qolgan qismi o`lchami 75x53 m bo`lgan oval shaklda balandligi 3 m. tepalik buzilayotgan vaqtida guvox bo`lgan shaxs sirlanmagan sopol idishlar va taqinchoqlar topib olganligini aytgan. Davri aniqlanmagan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqtari. Tarixiy davri: - Sanasi: aniqlanmagan¹.

Qo`rg`ontepa - Qo`rg`ontepa Sirdaryo shaxrining chegarasida J.Mamanov SFU hududida joylashgan. To`g`ri to`rtburchak shaklidagi formaga ega. O`lchamlari 97x74 m, balandligi 3 m. shimoliy-sharqiy qismida arki joylashgan. Arkining o`lchamlari 45X40 m, balandligi 10 m. qabriston bilan band qilingan. YUqori qismida sirlanmagan sopol idishlar ilk o`rta asrlarga oid bo`lgan materiallar uchraydi. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqtari. Tarixiy davri: ilk o`rta asrlar. Sanasi: IV-VIII asrlar².

Uchtepa - Uchtepa uchta tepalikdan iborat bo`lib, ikkitasi J.Mamanov SFU Sirdaryo sil kasalliklari shifoxonasi hududida saqlanib qolgan. Ikkala tepalik xam kuchli emirilishga uchragan. Ulardan biri oval shaklga ega bo`lib, 39X20 m, balandligi 7 m. ikkinchi tepalik diametri 20 m balandligi 3 m. Yodgorlik V. F. Karavaev xaritasida ko`rsatib o`tilgan. Davri aniqlanmagan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqtari. Tarixiy davri: - Sanasi: aniqlanmagan³.

3§. Orliq zona arxeologiya Yodgorliklari

¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Буряков Ю.Ф., Грицина А.А., Пардаев М.Х., Тихонин М. Р. Работы Чач-Уструшанской экспедиции//АО М.: Наука. 1986 г. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

² Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

³ Грицина А. А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

Nomsiztepa 1. - Nomsiztepa 1—Guliston tumani Boyovut SFU hududida joylashgan. Yodgorlikning dastlabki tashqi ko`rinishi yo`qolgan. 1990 yilda olib borilgan Sirdaryo otryadi ekspeditsiyasida o`rganilgan. Saqlanib qolgan qismi 54x46 m, balandligi qariyb 4 m. er ustki ko`tarma materiallari X—XII asrlarga taalluqli. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: X—XII asrlar¹.

Ulkansoylik - Ulkan-Soylik Guliston shaxri chetida Ulug`obod maxallasi hududida joylashgan. V. F. Karavaev va M. E. Masson tomonidan eslab o`tiladi. Diametri 90 m, balandligi 12 m. Ushbu qo`rg`on Sirdaryo viloyatidagi eng katta qo`rg`on hisoblanadi. V 1990 yilda qazuv ishlari olib borilgan va X—XII asrlarga oid materiallar olingan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan o`rta asrlar. Sanasi: X—XII asrlar².

Og`ochli sardoba - Og`ochli. Saqlangan sardoba. Sardoba tumani A. Temur MFY hududida joylashgan. Bir qator sayyoxlар asralarida ma`lumotlar keltirilgan. A. I. Bilalov o`rta asrlar davri muarixlari ta`riflagan Xudoysora sardobasi deya ta`kidlaydi. Uning yaqinida aylana shaklidagi tepalik mavjud. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan va so`nggi o`rta asrlar. Sanasi: XVI—XVII asrlar³.

Mirzarabot sardoba - Mirzarabot Oqoltin tumani Mirzaqishloq MFY hududida joylashgan. Sayyoxlар tadqiqotchilar ishlarida bir necha bor ma`lumotlar berilgan. V. I. Masalbskiy ta`kidlashicha rvoyatlarga ko`ra Temur va yoki Abdullaxon tomonidan bunyod etilgan. Ikki qismdan iborat Mirzasardoba va Mirzatepa. Mirzarabot karvonsaroy qoldiqlari bo`lishi mumkin. Diametri 23 m, balandligi 3

¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992.

² Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

³ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914.

m. xozirgi vaqtda sardobadan faqatgina g`ishtlar uyumi qolgan. O`rganilish tarixi: O`zR Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining 1984-85 yillardagi Sirdaryo arxeologiya guruhi tadqiqotlari. Tarixiy davri: rivojlangan va so`nggi o`rta asrlar. Sanasi: XVI—XVII asrlar¹.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Amindjanova M. Arxeologicheskaya razvedka v Zaaminskem rayone // IMKU. Vyp. 8. Tashkent: Fan, 1969.
- Bilalov A. I. Iz istorii irrigatsii Ustrushany. Dushanbe. 1980.
- Buryakov YU.F., Gritsina A. A. Maverannaxr na Velikom shelkovom puti. Samarkand-Bishkek.: MITSAI, 2006.
- Buryakov YU.F., Gritsina A.A., Pardaev M.X., Tixonin M. R. Raboty CHach-Ustrushanskoy ekspeditsii//AO M.: Nauka. 1986 g.
- Gritsina A.A. Otchet o polevых issledovaniyakh Syrdar'inskogo otryada v 1989 // Arxiv Instituta arxeologii AN RUz. Samarkand, 1989. F. 6, o.1, d. 22.
- Gritsina A. A. Arxeologicheskie pamyatniki Syrdar'inskoy oblasti. Tashkent, 1992.
- Gritsina A.A, Ivanitskiy I.D., Raximov K. Raskopki na gorodishe Eski Xavas // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane – 2003 god. Vyp. 4. Tashkent, 2004.
- Karavaev V. F. Golodnaya stepь v ee proshlom i nastoymashem. Pg., 1914.
- Masson M.E. Problema izucheniya tsisternsardoba. Tashkent, 1935.

9 BOB. XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA MIRZACHO`L

1§. Mirzacho`lning tabiiy-geografik o`rni.

2§. Mirzacho`ldagi suv inshoatlari tarix

3§. XIX asr o`rtalarida Mirzacho`l hududida yashagan aholining ijtimoiy hayoti

¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдаринской области. Ташкент, 1992. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914. Массон М.Е. Проблема изучения цистернсардoba. Ташкент, 1935.

Tayanch iboralar: Qo`ng`irot urug`i qirg`izlari, o`zbek urug`i qaropchi, parchayuz, ko`chmanchi qozoqlarlar, chorvachilik, lalmi dehqonchilik, qirg`iz, qozoq ko`chmanchi aholi, Xalqako`l, Mayda jing`il manzilgohi, Xovos qishlog`i, Parcha, Oqquvoq, Qizilchang`il, Mulla bobo qudug`i, Qolgansir manzilgohi, Begavot, Langar, CHaqir, Namingon, Iskandar, Sarmich, Uvoq, Tarnov, Topqoq qishloqlari, Mirzacho`l, Xo`jand uezdi, Erjar, Uralsk, Sovot volostlari, Jizzax uezdi Ko`ktepa volosti, “Golodnosepsk” uezdi, Romanovskiy, Spassk, Sir-Dar`yo, Erjar, CHernyaevskiy, Slavyansk, Begovot volostlari, Tuyatortar kanali, O`rimboy ariq, O`rimboy-o`g`iz arig`i.

1§. Mirzacho`lning tabiiy-geografik o`rni.

O`lkaning XIX asr oxiri - XX asr boshlari davri tarixida Mirzacho`l muhim o`rin egallgan. SHu sababli biz ushbu bo`limda Mirzacho`lga to`xtalishga qaror qildik.

Mirzacho`l O`rta Osiyoning markaziy qismida Zarafshon vodiysining shimolida, Nurota tog`larining sharqiy va janubiy qismida joylashgan bo`lib, Qizilqum sahrosining shimoliy sharqiy bo`lagi hisoblanadi. Mirzacho`l janubda Turkiston tizmasi, janubiy g`arbda Nurota tog`lari, g`arbda Bolatog`, Pistalitog`, shimoliy g`arbda Qizilqum cho`li, sharq va shimoliy sharqda Sirdaryo bilan chegaralangan. Bugungi kunda O`zbekistonning Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, Qozog`istonning Janubiy Qozog`iston viloyati va Tojikistonning Zafarobod tumani hududlarini o`z ichiga oladi.

Arablar bosqinigacha bo`lgan davrda ushbu hudud “Marzicho`l” deb nomlangan bo`lib, ushbu so`zni “katta dashtning cheti” deb tarjima qilish mumkin. Arablar bosqinidan so`ng bu so`z o`zgarishga uchrab, “Mirzacho`l” deb atala boshlangan. “Mirza” so`zi arabchada “janob”, “saxiy” degan ma`nolarni bildiradi.

XIX asrga qadar Mirzacho`l Buxoro amirligi, Qo`qon xonligi va Toshkent o`rtasida bahsli hudud hisoblangan. Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingach, bu hudud dastlab Turkiston general-gubernatorligi Farg`ona viloyati Xo`jand

uezdi, 1886 yildan e`tiboran Samarqand viloyati tarkibiga kirgan. 1918 yil 4 iyulda Xo`jand uezdining Erjar, Uralъsk, Sovot volostlari va Jizzax uezdining Ko`ktepa volostining bir qismi hududlaridan mustaqil “Golodnostenesk” uezdi tashkil topadi. 1922 yildan esa Mirzacho`l deb qayta nomlangan. Uezd tarkibi Romanovskiy, Spassk, Sir-Darъyo, Erjar, CHernyaevskiy, Slavyansk, Begovot volostlaridan iborat bo`lgan.

Tabiiy geografik jihatdan olganda Mirzacho`l Sirdaryoning so`l qirg`og`idagi keng tekislik bo`lib, Sirdaryo, Turkiston va Nurota tog` tizmalari hamda Qizilqum o`rtasida, Toshkent va Samarqand vohalari oralig`ida joylashgan. Taxminan uch burchak shaklida bo`lgan Mirzacho`l bir million gettardan ortiq er maydonidan iborat. Mirzacho`l keng tekislikdan iborat bo`lib, bu jihatdan Markaziy Osiyoning boshqa rayonlariga qaraganda afzalliliklarga egadir. CHunki Markaziy Osiyoning hech qaerida sug`oriladigan, dehqonchilik uchun qulay bo`lgan bunday tabiiy keng er maydoni uchramaydi. Mirzacho`lda Ettisoy, Erjar, SHo`ro`zak, Mirzarabot, Sardoba, Arnasoy, Ag`och deb atalgan tekislik va pasttekislik joylar bor.

CHo`lning Ettisoy, Qaroy, SHo`ro`zak va Sardoba kabi ba`zi erlaridagina pastlik va cho`kmalar uchraydi. Mirzacho`lni janub va janubi-g`arbdan o`rab turgan tog`lar Turkiston tog` tizmalarining shimoliy qismi (Nurota tog`lari va boshqa balandliklar) bu arning tuprog`iga ma`lum darajada ta`sir etgan. Tog`lardan oqib tushadigan suvlar ming yillar davomida Mirzacho`l erlarida unumdar qatlamlarni vujudga keltirgan.

CHo`lning shimoliy va sharqiy qismi Sirdaryo sohiliga borib taqaladi. Janubiy tomoni esa Turkiston tizmalari orasidagi adirlarga singib ketadi. Bu hududlarda chorvadorlar uchun yaylovlari va ayrim adir oraliqlarida bog`dorchilik, dehqonchilik bilan shug`ullanish imkoniyati mavjud bo`lgan.

Mirzacho`lning sharqiy qismida uchraydigan shamollar iqlimga katta ta`sir ko`rsatgan. Garm sel tuproqni qovjiratib, haddan tashqari ko`p namlikni bug`latib yuboradi. SHuning uchun bu erda faqat sug`orish yo`li bilangina ekin ekish mumkin.

Mirzacho`lning fizik-geografik holati lyoss adirlardan iborat bo`lib, qum barxanlari deyarli uchramaganligi sababli sun`iy sug`orish tizimini yaratish orqali sug`orma dehqonchilikni rivojlantirish imkonni bo`lgan.

Mirzacho`l dengiz sathidan 230-380 metr balandlikda joylashgan. Uning sharqiy-janubiy qismi baland bo`lib, shimoliy-g`arbiy tomonga qarab pastlashib boradi. Sirdaryo bo`ylari to`qayzor, Arnasoyning nariyog`i qumlik cho`ldan iborat.

Umuman, Mirzacho`l hududi tuproq tarkibi jihatidan tog`, tog`oldi, Mirzacho`l lyoss tekisligi va daryo qismlariga bo`lingan.

Tog`li tomonga Turkiston tizma tog`larining Oqsuv daryosi g`arbidagi shimoliy yonbag`irlik qismi, Nurota tizma tog`larining shimoliy yonbag`irligidagi Qo`ytosh deb atalgan qismi (Baliqtov va Pistalitog` tog`lari) kiradi. Tog` qismining rellefi har xilligidan, ya`ni past-balandligidan sug`oriladigan dehqonchilik uchun yaroqsizdir. Bu erda suv ichmaydigan ekinlar ekiladigan, Shuningdek, yaylov sifatida foydalaniladigan maydonlar joylashgan.

Tog`oldi qismiga shimol tomoni chiqib turgan Mirzacho`l yassitog`ligi ham kirgan. Tog`oldi tekisligi asosan tog` materiallaridan, tog`lardan tushgan jinslardan iboratdir. Bu qismda o`zlashtiriladigan maydonlar nisbatan kam bo`lgan. Bu erda asosan lalmikor erlar va yaylovlar joylashgan.

Mirzacho`l lyoss tekisligi asosiy maydonni egallaydi. Bu maydon kaynazoy qatlamlaridan vujudga kelgan bo`lib, ustki qismi soz tuproqdan iborat va anchagina qalin bo`lgan. Ustki qatlami shag`al bilan qoplangan, bu erda to`rtlamchi davr qatlamlari keng tarqalgan. Bular doimiy suv oqimi va vaqtı-vaqtı bilan oqadigan suvlarning ta`siri natijasida paydo bo`lgan. Sirdaryoning yangi o`zanlari ham ana shu qatlamlardan vujudga kelgan. Mirzacho`lning bu qismida asosiy irrigatsiya inshootlari va sug`oriladigan erlar joylashgan.

Daryo qismi yoki ko`l (to`qay) qismida, Bekobod bilan Konnogvardeyskiy (hozirgi Guliston tumaniga qarashli “Uch qahramon” fermerlar uyushmasi) o`rtasida, Mirzacho`lning g`arbiy-shimoliy burchagidan shu daryo bo`ylab o`tgan maydonlardagi to`qayzorlardan mol boqiladigan yaylov sifatida foydalaniladi.

YUqoridagi qismlarning har biri o`ziga xos ob-havo sharoiti bilan bir-biridan farq qiladi.

Mirzacho`lni o`zlashtirish tarixi bilan shug`ullangan R.S. Egamberdiev va A.Razzoqovlar Mirzacho`l yirik karvon yo`llarining kesishgan joyida joylashgan bo`lsa ham, yozma manbalarda bu erdag'i biror yirik qishloq yoki shahar to`g`risida ma`lumot berilmaganligini ta`kidlaydilar¹. Mirzacho`lning atrofidagi shaharlardan VII asrda Jizzax, IX asrda Nurota tilga olinadi.

Arab sayyohi Ibn Xavqal (969 yil) o`z sayohatnomasida arablar bosqinidan avval Sirdaryoning chap sohili bo`ylaridagi, ya`ni Mirzacho`ldagi bir qator qishloqlar haqida ma`lumot bergen, bu qishloqlar orasida Vinkerd deb atalgan xristian qishlog`i ham mavjud bo`lgan. Bu qishloqning o`rnini taxminan XIX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho`lda tashkil topgan rus qishlog`i Nijniy Volinskiyning shimoliy qismiga to`g`ri keladi. Ammo, bu qishloqning keyingi asrlardagi tarixi haqida ma`lumotlar saqlanmagan.

Bu davrda Mirzacho`lda ekologik muhit aholi uchun qulay emas edi. Mirzacho`lning tabiatи va unda aholi joylashuvi shart-sharoitlari haqida N. N. Leonova, N. I. Leonovlar: «Mirzacho`l vohasi Turkiston tizmasining shimoliy yonbag`riga kelib adirliklar bilan aralashib ketadi. Bir zamonlar har bir adirlik oralig`idagi soylardan suvlar oqib, cho`l hududini ham sug`organ. Asta-sekin suv oqimi adirlik soylarida kamayib, aholi tog` atroflariga va daryo qirg`oqlariga borib o`rnashgan. Mirzacho`l hududida yaqin 90-yillardan avval hech qanday qishloq bo`lмаган. Faqatgina Toshkent-Jizzax-Samarqand-Buxoro savdo tarmog`i va karvonsaroylar mavjud edi, xolos» degan fikrlar bildirishgan².

1917 yilda Mirzacho`lni tadqiq etgan V.F.Karavaev yozadi: «CHo`lga kelib qolgan kuzatuvchining ko`z o`ngida hayotdan asar ham ko`rinmaydigan, quyosh jaziramasidan qovjirab qurigan giyohlarning sarg`ish-kulrang kengligi namoyon

¹ Эгамбердиев Р.С., Раззоқов А., Ўзбекистонда қўриқ ерларни суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи (Мирзачўл мисолида). Тошкент, Фан, 1984, 1965, 70 б.

² Леонова Н.Н., Леонов Н. И. Голодная степь (Историко-географический очерк).-Ташкент, 1957, с.73.

bo`ladi, ayrim joylarda oppoq dog`lar va ba`zida cho`l o`simliklarining butalari ko`zga chalinib qoladi¹»

Boshqa manbalarda ham Sirdaryo qirg`oqlaridagina ba`zi bir turar-joylar bo`lganligi, aholi chorvachilik, dehqonchilik bilan shug`ullanganligi qayd qilingan. Bir vaqtlar bo`lgan turar-joylarning xarobalari saqlanib qolgan. Mirzacho`lda turar joylarning kamligi sug`orish uchun suv etmaganligi va Sirdaryo suvini cho`lga chiqarish juda qiyin bo`lganligi bilan izohlanadi.

2§. Mirzacho`ldagi suv inshoatlari tarix

SHu o`rinda shuni alohida ta`kidlash joizki, o`lkaga suv olib kelish chor Rossiyasi bosqiniga qadar ham amalga oshirilgan. 1869 yilda Mirzacho`lga ekspeditsiya raxbari etib tayinlangan baron G.A.Aminov bu cho`lning CHinoz, Xo`jand va Jizzax oralig`idagi uchburchakni xaritaga tushiradi va o`z tassurotlarini quyidagicha bayon etadi: «Kamina tadqiq etgan cho`l o`zining “Och cho`l” nomiga juda munosib, bir qaraganda, xech bir qiziqish uyg`otmaydi. Biroq yaqinroq borib, unga razm solsangiz, ayrim etarlicha o`ziga xos maxalliy xolatlarni e`tiborga olmaganda, mana shu deyarli suvsiz, ayniqla, xozirgi vaqtda mutloqo yaroqsiz tekislik qachonlardir muqim yashagan axoli bilan gavjum bo`lganligini faxmlash qiyin emas, o`sha alomatlar xozirgacha saqlanib turibdi. Masalan, ular ko`xna imoratlarning xarobalari, tark etilgan xaydalma erlarning alomatlari va muximi, qadimgi sug`orish tarmoqlarini izlari saqlanib qolgan. Ariqlarning qoldiqlari, Mirzarabot karvonsaroyi xarobasi fikrimizni tasdiqlaydi. Tadqiqotchi sifatida meni o`sha ariqlarni yangilash imkoniyati masalasi qiziqtiradi²!»

Darhaqiqat, Mirzacho`l erlariga suv chiqarish va bu erda obod manzillar yaratishga ajdodlarimiz qadimdan qat`iy bel bog`laganlar. Ne-ne mashaqqatlar bilan bo`lsada, o`zlarining mehnati, tafakkuri bois bu erlarga suv chiqarganlar. Milodning boshlarida qazilgan va Mirzacho`lga suv olib kelgan **Tuyatortar** kanali fikrimizning isbotidir. Ushbu kanal suvni Zarafshondan daryoga to`g`on qurish

¹ Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. Петроград, 1914.

² Туркестанские ведомости Ташкент, 1873 10 июль

orgali olgan. Tuyatortar kanali Zarafshon daryosidan suv oladigan Bulung`ur kanalining bir qism suvini o`ziga oladi. SHundan keyin u Molguzar tog`lari etaklaridan o`tib, shimal tomonga buriladi. Keyin Sangzor daryosi bilan qo`shilib, Mirzacho`lga oqqan. Milodiy VI—VIII - asrlarda o`zaro urushlar natijasida vayron bo`lgan bo`lsa, XVI asrda Buxora xoni Abdullaxon II davrida qayta tiklangan. Tuyatortarning suvi bir necha ariqlarga bo`lingan. Ana shunday ariqlardan ikkitasi Qaroy va Mirza-Rabot deb nomlangan. Ularning suvi hozirgi Sirdaryo tumaniga qarashli “Malik” qishlog`i erlarigacha etib kelgan. U 1912 yilda Samarqand general-gubernatori tomonidan qisman qayta tiklangan. SHo`rolar davrida kanal qayta qazilgan. Kanalning uzunligi 108,2 km. Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi 34 ming gektardan ortiq ekin maydonlarini sug`organ. 1987 yilda kanal trassasida Qorovultepa suv ombori qurilgan¹. Akademik YA. G`ulomov fikricha, kanal qurilishida asosiy transport vositasi tuya bo`lganligi sabab, kanal Tuyatortar deb nomlangan.

O`rimboy ariq hozirgi Tojikiston Respublikasi So`g`d viloyati Spitamen tumani, Qo`sh-tegirmon qishlog`i yaqinida Sirdaryodan suv olgan. Ushbu ariqning izlari Guliston tumanidagi “Boyovut”, “Uch-qahramon” qishlog`i hududlarida saqlanib qolgan. Bu erdagи yoshi ulug` insonlarning xotirlashlaricha, ariq taxminan hozirgi Do`slik kanali bo`ylab g`arbga qarab, Mirzacho`lning ichkarisiga suv bergen. Uning yordamida 7000 gektar ernenг sug`orilishi mo`ljallangan. Rivoyatlarda aytishicha, hozirgi Sardoba tumanidagi XVI asrga oid “YOg`ochli” sardoba yodgorligi ham O`rinboy ariq yordamida suv bilan to`ldirilgan.

1870 yili injener, baron G.A.Aminov ham, 1917 yili tadqiqotchi V.F. Karavaev ham **O`rimboy-o`g`iz** arig`ini sohil bo`yidagi CHol-to`qay (qozoqcha nomi SHal-to`g`ay) degan joy yaqinida Sirdardan suv olgan deb yozadilar². Aslida esa, “O`rinboy-o`g`iz” arig`i “O`rinboy ariq”ning o`ng tarmog`i hisoblanib, uning boshlanish nuqtasi hozirgi Guliston tumani Uch-qahramon qishlog`idagi Ko`nchi

¹ Тутов А.В. История освоения Голодной степи. 1869-1917 гг. // Покорение Голодной степи. Ташкент. Узбекистан. 1976

² Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. Петроград, 1914

bozori ro`parasidan boshlanadi. Ariq shu erda, O`rinboy ariqdan o`ng tomonga ajralib, Sirdaryoga paralel ravishda oqadi. Va yuqoridagi CHol-to`qay (xozirgi Sirdaryo tumani Matonat qishlog`i hududi)gacha borib, bu erdan chapga burilib, CHordaragacha bo`lgan joylarni sug`organ. “O`rimboy-o`g`uz” ariqning hozirgi Sirdaryo tumanidagi Malik qishlog`i atrofida Tuyatortarning qo`yi oqimidagi ariqlar - Qaroy va Mirza-Rabotga juda yaqin borganligi, xattoki qo`shilganligi borasida taxminlar mavjud.

Mirzacho`l erlarida tadqiqotlar olib borgan V. F. Karavaev ariq nomidagi “o`g`uz” etnomiga asoslanib, ariq X-XII asrlarda qazilganligi borasida fikr bildiradi¹. Mirzacho`lda izlanishlar olib borgan injener A. Kursish fikricha ariq o`z faoliyatini XVIII asrlarda to`xtatgan, buni Sirdaryoning O`rinboy-ariqning Qo`shtegirmon qishlog`i yonidagi boshlang`ich nuqtasini yuvib ketganligi bilan izohlaydi². Boshqa bir qarashga ko`ra O`rimboy ariq Mirzacho`ldagi qumlar bilan to`lib qolganligi sabab qurigan deb taxmin qilinadi.

SHuningdek, Mirzacho`l hududida o`rta asrlarda bir nechta sardobalar ham bo`lgan. Ular karvon yo`llarida joylashgan va karvondagilarning suvga bo`lgan ehtiyojini qondirgan. O`rta asr arab geograflarining èzishicha, qadimda Mirzacho`lni kesib o`tuvchi uchta karvon yo`li bo`lgan. Ikkiasi Zomindan Xovos orqali Sirdarè bo`ylab SHosh (Toshkent)ga borgan bo`lsa, uchinchi karvon yo`li Jizzaxdan hozirgi “beton” yo`li bo`ylab SHoshga borgan. Uchinchi yo`l SHoshga olib boruvchi eng qisqa yo`l bo`lgan, biroq cho`lni kesib o`tganligi bois mashaqqatli bo`lgan. SHu sababli bu yo`lda uchta sardoba qurilgan. Birinchisi CHinozdan 40 km. janubda, hozirgi Qozog`iston Respublikasining “Slavyanka” manzilgohi yaqinida bo`lgan. Ushbu sardoba “Yakkasaroy” deb nomlangan. Ikkinchisi Yakkasaroydan 13 km. janubda, Oqoltin tumaniga qarashli Mirzaqishloq yaqinida bo`lgan. Ushbu sardoba “Mirzasardoba” deb atalib, uning yaqinida karvonsaroy ham bo`lgan. Ushbu karvonsaroy “Mirzarobod” deb

¹ Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. Петроград, 1914

² Курсиш А. Голодная степь. Очерк работ по орошению северо-восточной ее части. Спб., 1913, 70 с.

nomlangan. Uchinchi sardoba “Mirzasardoba”dan 30 km. janubda, Jizzaxdan 35 km. shimolda joylashgan, Sardoba tumani Gumbaz qishlog`idagi sardobadir. Ushbu sardoba XIX asr tarixchilari asarlarida “YOg`ochli (rus olimlari “Agachli” deb èzishadi) sardobasi” deb yuritiladi¹. YAxshi saqlangan ushbu me`moriy inshoat viloyat hududidagi ajdodlarimizdan bizga etib kelgan eng qadimgi obida hisoblanadi. SHu sababli ham uni o`rganish biz uchun alohida ahamiyatga ega. Bu boradagi izlanishlarimiz borasida biz yuqorida bat afsil bayon qilganligimiz bois, bu erda ortiqcha to`xtalmaymiz.

Xulosa qilib atganda, yuqoridagi suv inshoatlari - ariqlar va sardobalar o`lkamizda chor Rossiyasi bosqinigacha ham ajdodlarimiz bu erlarda hayot kechirishganini, bu joylar muhim savdo-karvonlari yo`li bo`lganligidan guvohlik beradi.

3§. XIX asr o`rtalarida Mirzacho`l hududida yashagan aholining ijtimoiy hayoti

XIX asr o`rtalarida Mirzacho`l hududida yashagan aholining ijtimoiy hayoti va iqtisodiy manbalari haqida ma`lumot, manbalarda to`liq va aniq berilmagan. Rus harbiy tarixchisi P.P.SHubinskiyning yozishicha, qadimda Mirzacho`l o`zlashtirilib, sug`orish ishlari olib borilgan. U o`lkaning butunlay bo`shab qolishiga Buxoro va Qo`qon o`rtasidagi tortishuvlar sabab bo`lgan, deb ko`rsatadi. CHo`l atrofidagi adirlarda qadimda yashagan aholi makonlarining izlari saqlangan. Aholi boshiga kelgan notinchlik tufayli o`troq aholi tog` oralariga va tinch vohalarga ko`chib ketishga majbur bo`lgan².

Turkiston hududiga ruslarning kelishi arafasida Sirdaryo sohillarida o`zbek, qirg`iz va qozoqlarning qishki ovullari mavjud bo`lgan. Qo`ng`irot urug`i qirg`izlarining Sirdaryo sohillariga kelib qolishi XVI-XVII asrlarga borib taqaladi. Mirzacho`ldagi o`zbek urug`i boshliqlari qaropchi va parchayuzlar hisoblangan. Mirzacho`lning ichki qismlarida va ko`l atroflarida ko`chmanchi qozoqlar o`tovlari

¹ Массон М. Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. Ташкент, 1935

² Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II, СПб, 1897

mavjud bo`lgan¹. Aholining aynan daryo sohillarida yashaganligi sababi bu erda yoz va qish mavsumida ham yashash imkonи bo`lgan. Aholi yozda chaylalarda, qishda esa yerto`lalarda istiqomat qilishgan. Ular chorvachilik va qisman lalmi dehqonchilik bilan shug`ullanishgan.

XIX asrning o`rtalariga oid manbalarda Sirdaryo sohillarida yashagan qirg`iz, qozoq ko`chmanchi aholisining aniq soni va joylashgan ovullari haqida bat afsil ma`lumot yo`q. Ular doimiy holatda ko`chib yurishgani uchun, ularning yashash joylari faqat chaylalardan iborat bo`lgan. Asosiy istiqomat markazi ovullar hisoblangan.

Musulmon qoidasiga ko`ra aholining ismi sharifi va aniq sonini sanab ko`rsatish an`anaga aylanmagan. Mahalliy oqsoqollar va xon hukumati vakillari faqat aholining mol-mulki, hosili haqida ma`lumot olishgan. SHu sababli ko`chmanchi aholining soni va tarkibi haqida aniq ma`lumot olish mushkul bo`lgan.

1872 yili rus tadqiqotchisi A.I.Maksheevning Mirzacho`lda yashagan urug`larning joylashgan o`rni, ovul va qishloqlar nomi, ulardagи o`tovlar soni borasida to`plagan materiallari muhim ilmiy qimmatga ega. Bu manbada Mirzacho`lga rus aholisining kirib kelishidan ilgari mahalliy aholining etnik tarkibi, joylashgan o`rni haqida bat afsil ma`lumot berilgan. Unda yozilishicha, o`zbeklarning qaropchi urug`iga mansub aholi Mirzacho`lning Erjar, Xalqako`l, Mayda jing`il, Qolgansir manzilgohlari va Begavot, Langar, CHaqir, Namingon, Iskandar, Sarmich, Uvoq, Tarnov, Topqoq qishloqlarida yashaganlar. Erjar manzilgohi Sirdaryo bo`ylab 12 verst masofaga cho`zilgan bo`lib, kengligi 4 verstni tashkil etgan. O`tovlar soni 19 ta bo`lgan. Xalqako`l manzilgohi Sirdaryoga yaqin joyda joylashgan bo`lib, uzunligi 4, eni esa 2 verstni tashkil etib, 7 ta o`tov joylashgan. Qolgansirda 5 ta o`tov bo`lib, bu xuddud Mayda jing`ilga yaqin joyda

¹ Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. -Тошкент, 2007, 17-20 бб.

joylashgan. Mayda jing`ilda eng ko`p, ya`ni 35 ta o`tov joylashgan bo`lib, u Sirdaryo bo`ylab 4 verst uzunlikda, eni 1 verstni tashkil etgan¹.

Parchayuz urug`iga mansub aholi qaropchilar bilan birga Xalqako`l, Mayda jing`il, Erjar manzilgohlarida va Xovos qishlog`i yaqinidagi dashtda Parcha, Oqquvoq, Qizilchang`il, Mulla bobo qudug`i nomli manzilgohlarda yashaganlar. Xalqako`lda ular 21 ta o`tovda, Mayda jing`ilda 7 ta o`tovda istiqomat qilishgan, qishlovnii shu erda qaropchilar bilan birga o`tkazganlar. Parchayuzlarning uyas urug`iga tegishli aholi Erjarda jami 27 ta o`tovda, Parchada 12 ta, Oqquvoqda 15 ta, Qizilchang`ilda 17 ta, Mulla bobo qudug`ida 6 ta, Xovos qishlog`i atrofida 50 ta o`tovda yashagan. Faqat Sovot qishlog`ida parchayuzlar doimiy ravishda istiqomat qilganlar.

Sovot va Namingon qishloqlarida o`zbeklar istiqomat qilib, Sovotda 8 ta ustaxona va do`kon, 5 ta tegirmon mavjud bo`lgan bo`lsa, Namingon qishlog`ida 4 ta do`kon va ustaxona, 2 ta tegirmon ishlab turgan. Xovos oqsoqolligiga Xo`jaqishloq, Qo`shkent, Itbuloq, CHangovul, Uchturg`on, Qipchoq, Xovos, Login qishloqlari qaragan. Eng yirik qishloq Xovos bo`lib, 120 ta xo`jalikdan iborat bo`lgan. Xo`jaqishloq, Itbuloq, Qipchoq qishloqlaridan boshqa barcha qishloqlarda do`konlar, tegirmonlar, hunarmandchilik ustaxonlari mavjud bo`lgan.

Xovosda ikkita, Qo`shkent, CHangovul, Uchturg`on, Qipchoq, Xovos, Login qishloqlarida bittadan maktab bo`lgan, faqat Xo`jaqishloq, Itbuloq qishloqlarida maktab bo`lmagan. Maktablarda o`quvchilar soni 5 nafardan 25 nafargacha bo`lgan.

Xovos oqsoqolligida 10 ta masjid bo`lib, har bir masjidda bir nafar imom diniy marosimlarni o`tkazilishini nazorat qilib turgan. Faqat Xo`jaqishloqda masjid ham, imom ham bo`lmagan.

Mirzacho`lning Sovot volostida o`zbek – qaropchilar (yuzlar) yashagan bo`lib, ular 7 uruqqa bo`lingan: turkman, qo`shtamg`ali, uyas, parchayuz, achamayli, boyovut, ettiurug`. Qaropchi qabilasining 7 urug`i o`z navbatida bir

¹ Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. Гулистан, 2011, 15 б

necha bo`g`inlarga bo`linib ovullarda yashaganlar. Ovullar bir necha o`n xo`jalikdan iborat bo`lgan. Ovul qanchalik katta bo`lsa, xo`jaliklar soni shunchalik ko`p bo`lgan. Gohida ovulga kelib chiqishi ularga yot bo`lgan o`tovlar ham kelib qo`shilgan, ammo ular vaqtincha birga istiqomat qilganlar¹.

Mirzacho`lda yashagan, yarim ko`chmanchilik bilan hayot kechirgan o`zbeklar XIX asrninng ikkinchi yarmida o`troq turmush tarziga o`ta boshlaganlar.

Erjar volostida yashagan qozoqlar ikki uruqqa bo`lingan, bular qo`ng`iroq (qorako`z) va romadon urug`lari bo`lib, qo`ng`iroq urug`i 3 bo`g`inga bo`lingan: bultay, xal`pe, jetim. Ular qishni Sirdaryo bo`yidagi to`qaylarda o`tkazganlar. YOzda yirik otarlarini tog`larga haydab ketganlar. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bug`doy noni bo`lgan, keyingi o`rinlarda tariq, sut va barcha turdag`i go`shtlar turgan. Qish kunlari go`shtni ko`p iste`mol qilganlar, asosan bo`yra to`qiganlar.

Mahalliy aholining qanday ekin turlari bilan shug`ullanganligi ilk bor rasmiy jihatdan aniq holatda 1908 yilda Turkiston o`lkasi Davlat mulki va er ishlari Boshqarmasi kichik topografi YU.I.Gopper tomonidan ro`yxatga olingan. Unda yozilishicha, mahalliy aholi chorvachilik, dehqonchilikdan tashqari baliqchilik va hunarmandchilik bilan ham shug`ullanganlar. Bog`lari bo`lmagan. Mahalliy hunarmandlar qo`y yungidan kiygiz, arqon, gilam, xurjun, chakmon to`qiganlar. O`zbeklar ham, qozoqlar ham yaylovlarni ijaraga bermagan, o`z navbatida ular ko`chib yurgan yaylovlar uchun hech kimga hech qanday haq to`lamaganlar².

Aholi ko`chmanchi va o`troq holatda mahalliy oqsoqolliklar boshqaruvida yashagan. Ko`chmanchi aholi o`zaro kelishuvga ko`ra, yangi yaylov va chorvachilik maydonlarini izlab ketgan.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, XIX asr o`rtalarida Mirzacho`l aholisi etnik tuzilishiga ko`ra xilma-xil bo`lib, o`zbek urug`lari, tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va qirg`izlardan iborat bo`lgan. Ular vohada o`troq, yarim-o`troq, ko`chmanchi holatda turmush kechirgan. CHorvachilik, lalmi dehqonchilik,

¹ Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси//Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари.-Тошкент,2007, 17-20 бб

² Ўша жойда ...

qisman sug`orma dehqonchilik va bog`dorchilik, hunarmandchilikning ayrim turlari, Sirdaryo sohillari va ko`l bo`ylarida baliqchilik bilan shug`ullangan. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Mirzacho`lda sug`orish inshootlari va temir yo`l tarmog`ining qurilishi bilan ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi aholi o`troq turmush tarziga o`ta boshlagan. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yangi barpo etilgan sug`orish inshootlari atrofida va temir yo`l stantsiyalari yonida yirik aholi manzilgohlari, shahar tipidagi posyolkalar vujudga kela boshlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Alibekov U. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sirdaryo viloyati demografiyasi // O`zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: Tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Toshkent, 2007, 17-20 bb.
- Egamberdiev R.S., Razzoqov A., O`zbekistonda qo`riq erlarni sug`orish, o`zlashtirish va melioratsiyalash tarixi (Mirzacho`l misolida). Toshkent, Fan, 1984, 1965. 70 b.
- Leonova N.N., Leonov N. I. Golodnaya stepь (Istoriko-geograficheskiy ocherk).- Tashkent. 1957. s.73.
- Omonjulov T., Mirzaeva N. Mirzacho`lning o`tmish tarixi. Guliston, 2011.
- Turkestanskie vedomosti Tashkent, 1873. 10 iyulь.
- Tutov A.V. Iстория освоения Голодной степи. 1869-1917 гг. // Pokorenie Golodnoy stepi. Tashkent. Uzbekistan. 1976.
- Karavaev V.F. Golodnaya stepь v eyo proshlom i nastoyaщem. Statisticheskiy ocherk. Petrograd, 1914
- Kursish A. Golodnaya stepь. Ocherk rabot po orosheniyu severo-vostochnoy ee chasti. Spb.,1913. 70 s.
- Masson M. E. Problema izucheniya tsistern-sardoba. Tashkent, 1935.
- SHubinskiy P.P. Buxarskie posolstva pri dvore Ekateriny II, SPb, 1897

10 BOB MIRZACHO`L CHOR ROSSIYASI MUSTAMLAKASI DAVRIDA

1§. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Mirzacho`lning Chor Rossiyasi tomonidan o`zlashtirilishi

2§. Mirzacho`lda rus qishloqlarining paydo bo`lishi

Tayanch iboralar: general-ad`yutant K. P. fon Kaufman, Sirdaryo viloyati uezdlari – Kazalinsk, Perovsk, CHimkent, Avliyoota, Qurama, Xo`jand va Jizzax, Golodnosterp`sk (Mirzacho`l) uezdi volostlari Ramanovskiy, Spasskiy, Sirdarinskiy, Erjar, CHernyaevskaya, Slavyanskaya, Begovot, "Kaufman anhori", «paxta bezgagi», "TSarъ-platina"-“SHox to`g`on”, Buxor ariq, Xiva arig`i, Romanov kanali, SHimoliy Mirzacho`l kanali, Kirov nomli kanal, “Do`slik” kanali, Rus qo`rg`onlari Zaporozje, Nadejdinskiy, Romanovskiy, Nikolaevskiy, Obetovanniy, Verxne-Volinskiy, Nijne-Volinskiy, Konnogvardeyskiy, Duxovskoy, Spasskiy, Naxalovka, Samsonovka, Veliko-Alekssevsk, Knyajevsk CHernyaev.

1§. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Mirzacho`lning Chor Rossiyasi tomonidan o`zlashtirilishi

Rus chorizmi Turkistonni bosib olgach, Mirzacho`lga alohida e`tibor qaratadi. Buning sababi, Mirzacho`lning Toshkent bilan Samarqandni bog`lovchi muhim strategik yo`lda joylashganligidadir. Bu yo`lda xavfsiz va bemashaqqat qatnovni ta`minlash uchun bu erlarda aholi manzilgohlarini barpo etish lozim edi. Aholi manzilgohlarini barpo etish uchun esa, bepoyon cho`lga suv chiqarish talab etilardi. Ikkinchidan Mirzacho`lga suv chiqarish orqali bu erda Rossiya sanoati uchun o`ta zarur bo`lgan paxta xom ashyosini etishtirish mumkin bo`lardi.

Imperiya ma`murlaridan biri A.Kushakevich Mirzacho`lning o`zlashtirilishi Turkiston general-gubernatorligining janub, janubiy-sharqiy qismiga olib boruvchi savdo va harbiy yo`li atrofida aholining zikh joylashuviga olib keladi, deb hisoblardi. Uning fikricha, bu erga dastlab ko`chmanchilar ekin ekish uchun kelib o`rnashadilar, so`ngra ular asta-sekinlik bilan o`troq turmush tarziga o`ta boshlaydilar, foydalanilmay yotgan unumdor erlarda yangi qishloqlar paydo bo`lib,

ular savdo va sanoatning rivojlanishiga turtki bo`lishi kutilgan edi¹. SHu sababli ham chor Rossiyasi ma`murlari Mirzacho`lning foydalanimay yotgan imkoniyatlarini yuqori baholab uni “Ikkinchi Turkiston” deb atashgan.

SHu sababli ham chor Rossiyasi ma`murlari Mirzacho`lda suv inshoatlarini qurishni bu erdan boylik olishning muhim omili deb xisoblaganlar. Jumladan, bu ishning muhimligini anglagan Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman 1869 yilda Mirzacho`lni sug`orish masalalarini o`rganish, bu erda topografik nivilirovka va hududning xaritasini ishlab chiqish masalalarini amalga oshirish uchun harbiy topograf, injener, baron G.A.Aminov boshchiligidagi guruhni Mirzacho`lga yuboradi. SHu bilan birga guruh tomonidan Mirzacho`ldagi qadimgi o`troq aholiga tegishli bo`lgan manzilgohlar xarobalari va qadimgi suv inshoatlarining izlari ham o`rganiladi. Uning boshchiligidida 1870 yilda tuzilgan loyiha ko`ra Mirzacho`lni Zarafshon daryosi suvi bilan sug`orish foydaliroq deb topiladi. Biroq, Zarafshonda suvning kamligi tufayli bu loyiha qabul qilinmaydi².

Kaufman bu safar Mirzacho`lni Sirdaryo suvi bilan sug`orish yo`llarini izlash uchun 1871 yilda injener N.Ul`yanovni Mirzacho`lga yuboradi. 1872 yilda N. Ul`yanov tomonidan Mirzacho`lni Sirdaryo suvi orqali o`zlashtirish loyihasi taqdim etiladi. Loyihaga ko`ra kanalning bosh to`g`oni qurilishi, Sirdaryoning eng baland nuqtasi bo`lgan, Begovot yaqinidagi Parmon Qo`rg`on qishlog`i yonida kanalni boshlanishi ko`zda tutiladi. Taqdim etilgan ushbu loyiha chor ma`muriyati tomonidan qabul qilinadi. 1872 yilning oxirida loyiha tasdiqlangach, kanalni qazish ishlari boshlangan. Kanalni “Kaufman kanali” deb atashgan. Biroq, mablag` etishmasligi tufayli, kanal qurilishi tez orada to`xtagan. 1874 yilda kanal qurilishi qayta tiklanadi. To`rt yil mobaynida (1874-1878 yy) atigi 13 verst (1 verst taxminan 1 kilometr 67 metrga to`g`ri keladi) masofada qazish ishlari amalga oshirilgan. Kanal qurilishi o`ta darajada sekin borgan va oxir-oqibatda 1879 yilda butunlay tashlab qo`yilgan. Buning sababi kanal qurilishida ishtirok etayotgan ishchilarga to`lanayotgan pulning kamligi bilan izohlanadi. Bir ishchiga bir kunda

¹ Кушакевич А. Сведения о Ходжентском уезде. - Спб., 1875. 20 с.

² Туркестанские ведомости. Ташкент. 1873. 10 июль.

5 tiyin to`langan. Turgan gapki, bu ishchilarning noroziligiga sabab bo`lgan. 1892 yil Kaufman vafot etgach esa kanal qurilishi tamoman unutiladi.

1883 yili Turkistonda paxtaning Amerika navlari etishtirila boshlandi. Sifati yaxshilanayotgan O`rta Osiyo paxtasiga talab va ehtiyoj kuchaya boradi. Paxta etishtirish serdaromad biznesga aylanadi. Bu bilan hatto Rossiya podshosining yaqin qarindoshi, ulug` knyazъ Nikolay Konstantinovich Romanov ham jiddiy shug`ullana boshlaydi. 1883 yili Turkiston o`lkasida sug`orish ishlari va dehqonchilik xo`jaliklarini yuritish aynan unga topshiriladi. U Mirzacho`lning ichki qismiga suv chiqarish uchun Bekobod qishlog`idan 7 verst yuqoridan to`g`on qudiradi. Qo`shtegirmon qishlog`idan bir verst pastda joylashgan Farhod qoyasi yonida, qamishdan va tosh uyumlaridan ko`tarilgan ushbu to`g`on “TSarъ-plotina”–“SHoh-to`g`on” nomini oladi. Va shu erda Mirzacho`lga suv berishi kerak bo`lgan kanalning boshlang`ich nuqtasi belgilanib, qazish ishlari boshlanadi. “Buxora ariq” deb nomlangan ushbu kanal 1885-1890 yillarda, olti yil davomida qaziladi. Uning 1891 yil 9 may kuni (chor Rossiyasi qo`s Shinlarining Buxora amiri qo`s Shinlar ustidan 1866 yil 9 may kuni Sirdaryo sohilida qozonilgan g`alabaning 25 yilligi) ishga tushushi belgilangan bo`lsada, kanaldan suv yurmaydi.

SHundan so`ng knyazъ “Buxora ariq”ni tashlab uning quyi qismi tarmog`ida Begovot stantsiyasidan 1,5 verst yuqorida Sirdaryodan suv oladigan yangi kanal “Xiva arig`i” ni qurishni boshlab yuboradi. SHu o`rinda buyuk knyazъ tomonidan qazilgan kanallarga O`rta Osiyoning qadim shaharlari nomi berilishi sabablariga to`xtalib o`tsak. Ayrim manbalarda, knyazъ tomonidan qazilgan kanallarga qadimgi shaharlarimiz nomining berilishi sababi deb ushbu ariqlarning mahalliy aholi tomonidan qazilganligi deb ko`rsatiladi. Nazarimizda, kanallarning qadim shaharlarimiz nomlari bilan atalishini buyuk knyazning shuhratparastligi bilan izohlash to`g`ri bo`ladi. Knyazъ kanallarni qadim shaharlarimiz nomi bilan atab o`z nomini ulug`lamoqchi bo`lgan. SHuni alohida ta`kidlash lozimki, “Buxoro arig`i”ni qazishda muvaffaqiyotsizlikka uchragan knyazъ bu safar mahalliy oqsoqollar maslahatiga qoloq tutib, kanalni qadimgi O`rinboy arig`i izlari o`rnidan qazitadi. Natijada, 1895 yil 1 sentyabrda Mirzacho`lga ilk bor suv chiqadi.

Kanalning umumiy uzunligi 84 verst bo`lib, uning 36 versti Sirdaryo bo`ylab oqqan bo`lsa, shundan so`ng g`arbgan burilib Sardoba botqog`igacha borgan. Yo`lda temir yo`lni ham kesib o`tgan. 1897 yili kanaldan suv olgan "TSarevna" arig`i yordamida Romonovskiy (hozirgi Guliston tumani markazi Dehqonobod shaharchasi) qishlog`i erlari sug`orilgan. Romonovskiy qishlog`i Mirzacho`lda Sirdaryo suvi bilan erlari sug`orilgan birinchi rus qishlog`i xisoblanadi.

Temir yo`lning qurilishi temir yo`l va Sirdaryo oralig`ini zudlik bilan sug`orish va bu erlarda Rossiya sanoati uchun paxta etishtirishni kun tartibiga dolzarb masala qilib qo`yadi. Dastlab, "Xiva arig`i", keyinchalik "Nikolay I kanali" va nihoyat 1913 yil 18 martdan boshlab "Romonovskiy kanali" deb nom olgan ushbu kanal agar har yili tozalansa, 7 ming desyatina erni sug`orishi mumkin edi. 1908-1909 yillarda "Nikolay I kanali"da tozalash ishlari o`tkazilgach, kanal 12 ming desyatina erni sug`orish imkoniga ega bo`ldi. Kanal qurilishida asosiy kuchni mahalliy dehqonlar tashkil etgan, ammo N.K.Romanov kelajakda Mirzacho`lda mustamlaka tuzum tayanch-manzillarini yaratish maqsadida, kanal qurilishiga ko`proq Rossiyadan ko`chib kelganlarni jalb qilishga harakat qiladi. SHu maqsadda knyazъ rus guberniyalaridan ko`chib kelganlarni Mirzacho`lda ish va er bilan ta`minlayman, degan va`dalar beradi. SHuni aytish kerakki, kanal texnik jihatdan nomukammal bo`lib, bu erda muntazam ravishda ta`mirlash ishlarni olib borish lozim edi. Ammo N.K. Romanov bu ishlarga mablag` sarflashni istamaganligi oqibatida, 1899 yilda kanal qirg`oqlari o`pirilib ketadi. Oqibatda, ekinlar suvsiz qurib qolgan, yangi xo`jaliklar katta talofot ko`rgan. SHu sababli, irrigatsiya inshootlarini knyazъ qo`lidan davlat ixtiyoriga o`tkazish zarur, deb topiladi. "Nikolay I kanali" 1899 yilda davlat ixtiyoriga o`tkazildi.

"Turkestanskiy sbornik" to`plamida 1906 yili "Nikolay I kanali"da er ishlarini amalga oshirish huquqini SHank arteli qo`lga kiritganligi va asli kasbi injener bo`lgan SHank bu ishlarga O`rta Osiyo temir yo`lining ishsiz sobiq xizmatchilarini jalb etish istagida ekanligi haqida xabar berilgan.

1901 yil 25 sentyabrda kanal qaytadan qazila boshlandi. Kanal qurilishi 1913 yilga qadar cho`zilib ketdi, hatto dastlabki 7 yil mobaynida tugallangan loyihaning

o`zi ham yo`q edi. Mablag`ning etishmasligi, kreditlarning kech o`tkazilishi, bunday katta loyihani amalga oshirish uchun mavjud texnikaning qoloqligi, Shuningdek, loyihadagi ayrim kamchiliklar kanal qurilishi bo`yicha ishlarni juda sekin borishining asosiy sabablari edi.

Ushbu davrga kelib, Mirzacho`lda paxta etishtirish uchun amerikalik biznesmenlar ham jiddiy kurash olib boradilar. 1903 yili Turkistonda Amerika "ilmiy" ekspeditsiyasi paydo bo`ladi. Rasman olganda, bu ekspeditsiya "arxeologik ekspeditsiya» deb atalgan edi. Vaholanki, uning tarkibida bitta ham arxeolog qayd etilmagan. Ekspeditsiyaga ma`lumoti bo`yicha tog`-kon ishlari muhandisi R.U.Pompelli rahbarlik qiladi. Ekspeditsiya a`zosi V.M.Devis esa Amerikada fizika-geografiya bo`yicha yirik mutaxassis sifatida ma`lum va mashhur edi. Ekspeditsiya Sirdaryoda suv miqdorini o`rganadi, Mirzacho`l tajriba maydonida bo`lib, bu erdagи tuproqdan va etishtirilayotgan paxtadan tahlil uchun namunalar oladi va yana Amerikaga jo`nab ketadi. Ekspeditsiya faoliyatining natijasi shu bo`ldiki, ular o`z yurtlariga borgach, "Osiyo qit`asi quriyapti", deb shov-shuv ko`tarishadi. Ular tomonidan butun Osiyo qit`asi sahroga aylanishi bashorat qilinadi.

Amerikalik olimlarning «Osiyonining qurishi nazariyasi» chorizm ma`muriyatining oliy doiralarida, agarda Osiyo quriydigan bo`lsa, Mirzacho`ldagi sug`orish inshoatlari qurilishiga mablag` ajratish kerakmi? degan ikkilanishlarning paydo bo`lishiga olib keladi. Bunga javoban rus olimi L.S.Berg "Mirzacho`lda har yili 200-300 mm. yog`ingarchilik bo`ladi. Mazkur miqdor bug`lanib ketadi, lekin bundan ortiq bug`lanish yo`q. Agarda namliroq kelgan yillarda ko`proq yog`ingarchilik bo`lsa, bug`lanish miqdori ham ortadi; quruq kelgan yillarda esa aksi bo`ladi. Qisqasi, bu erda jadal qurish yo`q" deb javob qaytaradi¹.

Voeykov iqlimi va jo`g`rofiy joylashuvi jihatidan Mirzacho`lni sun`iy sug`orish va paxtachilikni rivojlantirish uchun risoladagidek viloyat deb hisoblaydi. SHu o`rinda bir narsani ya`ni Mirzacho`lni egallash uchun Amerika va

¹ Воейков А.И., "Известия русского географического общества", т. 44, выпуск 111, стр. 135

Rossiya o`rtasida raqobat ketganligini ta`kidlash o`rinlidir. “Osiyon qurishi” degan nazariya ham katta ehtimol bilan amerikalik yirik ishbilarmonlarning rejasi bo`lishi mumkin. Bunday deyishimizga yuqoridagi “Osiyoning qurishi nazariyasi”ga qaramasdan, Amerikalik yirik sarmayador D.Gammondning butun Mirzacho`lni qo`lga kiritish uchun Rossiya hukumati bilan muzokaraga kirishganligi asos bo`ladi. Biroq, Rossiya sarmoyadorlari tayziqi ostida chorizm ma`murlari Gammond bilan muzokarani uzishga majbur bo`ldi. CHor Rossiyasi xukumatining “Er qurilishi va dehqonchilik bosh boshqarmasi” boshlig`i A.V.Krivoshein 1912 yil may oyi oxirida telegraf orqali Gammondga er ajratish bo`yicha uning iltimosi rad etilganini xabar qiladi. SHu tariqa, Amerikalik sarmoyadorlarning manfaatidan kelib chiqib, ish yuritgan “arxeologik” ekspeditsiyaning “Osiyoning qurishi” nazariyasi amalga oshmadi.

Xalqaro bozorda paxtaga bo`lgan talabning oshib borishi, amerikalik biznesmenlarning Mirzacho`lni egallash borasidagi xatti-harakatlari sabab chor hukumati kanal qurilishiga qo`shimcha mablag` ajratishga majbur bo`ladi. 1911 yilda kanal qurilishining yangi loyihasi tasdiqlandi. Va nihoyat, 1913 yil 5 oktyabrda (eski hisob bo`yicha) “Xilkovo” (hozirgi Bekobod temir yo`l vokzali hududi) stantsiyasi yaqinida qurilgan ko`prikda uzunligi 100 kilometr bo`lgan kanalning ochilishi bo`ladi. Uning yordamida Mirzacho`lda 45000 desyatina er o`zlashtirilgan. Unga yuqorida ta`kidlanganidek, dastlab, “Romanov kanali” nomi beriladi. Kanal 1917 yildan boshlab “SHimoliy Mirzacho`l” kanali deb yuritilgan bo`lsa, 1936 yil sovetlar davlatining yirik namoyondalaridan biri S. Kirovning vafotidan so`ng, kanal uning nomi atalgan, mustaqillikka erishganimizdan so`ng “Do`stlik” kanali deb nomlandi.

Mirzacho`lda yangi sug`orish tarmoqlarining barpo etilishi qo`riq va bo`z erlarni o`zlashtirish imkonini berdi. Buning natijasida yangi ekin maydonlari vujudga keldi, vohaning ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi aholisi o`troq turmush tarziga o`ta boshladi. Mirzacho`lda aholisi asosan sug`orma dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug`ullanuvchi dastlabki rus qishloqlari paydo bo`ladi.

SHu bilan bir qatorda chor Rossiyasi mustamlakachilari Mirzacho`l erlarini qisman o`zlashtirib, ba`zi natijalarni qo`lga kiritgan bo`sada, o`zlashtirilgan erlar nazoratdan chetda qoldirildi, ularning meliorativ holatini yaxshilashga jiddiy e`tibor berilmay, qarovsiz tashlab qo`yildi.

Natijada Mirzacho`l erlarining melerotiv ahvoli yomonlashgan. Sug`orma dehqonchilik ishlaridan bexabar bo`lgan rus dehqonlari suvdan foydalanishni bilmaganlar. Sug`orma dehqonchilik sohasida ko`p yillik tajribaga ega bo`lgan mahalliy dehqonlar esa Mirzacho`lga ko`chib kelish huquqidan mahrum edilar. CHor ma`murlari foya ketidan quvib, sug`orish shoxobchalarini tegishli tartibda saqlashga, kanal va zovurlarni tozalashga e`tibor bermaganlar. Buning natijasida, ilgari unumdar bo`lgan erlar sho`rxok, botqoq erlarga aylana boshladi, chivinlar ko`payib, bezgak epidemiyalari tarqaladi.

2§. Mirzacho`lda rus qishloqlarining paydo bo`lishi

Mirzacho`lda rus qishloqlarining paydo bo`lishi sabablari borasida nazarimizda, chor Rossiyasi xukumatining “Er qurilishi va dehqonchilik bosh boshqarmasi” boshlig`i A. V. Krivoshein bildirgan fikrlarini keltirish o`rinlidir. Uning yozishicha, o`lkada paxtachilikni kengaytirish markaziy masala bo`lib, uning bitta emas, uchta asosiy tomoni bor. Bir tomoni “paxta” bo`lsa, ikkinchi tomoni –“sug`orish”, uchinchi tomoni, eng muhimi “ruslarni joylashtirish” bo`lgan¹. Demakki, CHor Rossiyasi Turkistonda, shu jumladan, Mirzacho`lda rus qishloqlarini tashkil etish orqali bu erda mustamlakachilik tuzumining tayanch manzilgohlarini yaratish va shu bilan bu erda o`zlarining xukmronliklarini ushlab turishni maqsad qilganlar.

Mirzacho`l tarixiga tegishli arxiv hujjatlari va matbuot materiallari asosida dastlabki rus qishloqlarining tashkil topishi sanasini A.V.Stanishevskiy quyidagicha keltiradi: «Nadejdinskiy» (1886), «Romanovskiy» (1887), «Nikolaevskiy» (1891), «Obetovanniy» va «Verxniy Volin`skiy» (1896),

¹ Кривошеин А. В. Записка главноуправляющего землеустройством и землеведением о поездке в Туркестанский край в 1912 г. – СПб, 1912. – с.4.

«Konnogvardeyskiy» (1897), «Duxovskiy» (1898), «Spasskiy» (1907), «Naxalovka» (1909), «Alekseevskiy» (1913).

Mirzacho`lda irrigatsiya ishlarining amalga oshirilishi jarayonida Sirdaryoning chap sohilida knyazъ N. K. Romanov tashabbusi bilan 8 ta rus qishlog`i tashkil etilgan. Bular «Nikolaevskiy», «Konnogvardeyskiy», «Romanovskiy», «Nadejdinskiy», «Obetovanniy», «Verxniy Volinьskiy», «Nijniy Volinьskiy» va «Zaporojskiy» qishloqlari edi.

Mirzacho`l hududidagi birinchi rus qishlog`i “Zaporojskiy” 1885 yilda N. K. Romanov tomonidan Sirdaryodagi “shoh-to`g`on” yonida tashkil etilgan. Kanal qurilishida doimiy ish kuchiga ega bo`lish uchun birinchi galda ishchilarni turar-joy bilan ta`minlash zarur edi. SHu sababli, N. K. Romanov Bekobod yaqinidagi Qo`shtuyoq qishlog`i atrofida qishloq qurish maqsadida oqsoqollikdan 50 desyatina erni ekin maydoni sifatida va 19 desyatina erni qurilish uchun sotib olishga qaror qiladi. Erni ma`lum qismiga naqd pul beradi, qolgan qismi uchun “Buxor ariq”ni ishga tushirishga va 5 ta tegirmon qurib berishga va`da beradi. Qishloq aholisi ko`chirib keltirilgan Zaporojье kazaklaridan iborat bo`lganligi uchun qishloq “Zaporojskiy” nomi bilan atalgan. «Zaporojskiy» qishlog`i mavjud bo`lgan 11 yillik davr mobaynida bu erga 300 ta xo`jalik kelib-ketib yashab turgan. N. K. Romanov «Zaporojskiy» qishlog`ida yirik qo`rg`on qurdirgan. Knyazъ qo`rg`oni atrofida xom g`ishtdan qurilgan 86 ta uy mavjud bo`lib, uylardan 20 tasi yashash uchun mo`ljallangan, 12 ta uyda knyazъ ishchilari oilasi istiqomat qilgan. Qishloqda savdo markazi, cherkov, qishloq aholisining farzandlari uchun o`yin maydonlari mavjud bo`lgan. 1896 yilda kanal qazish ishlari to`xtatilishi munosabati bilan aholi ish izlash, pul topish maqsadida hududni tashlab keta boshlagan. 1899-1913 yillarda qishloq butunlay bo`shab qolgan.

N.K.Romanov tashabbusi bilan CHolto`qay degan joyda (hozirgi Guliston tumanidagi “Beshbuloq” qishlog`i hududi) - Sirdaryo sohilida ham kichik qishloq tashkil etilgan. Bu erga dastlab 3 ta oila kelib o`rnashgan. 1886-1888 yillar davomida qishloq 30 ho`jalikdan iborat bo`ldi. 1892 yilga kelib 50 xonadonga etgan. Knyazъ ajratgan pul mablag`i evaziga bunyod etilgan bu qishloq

««Nadejdinskiy»» deb nomlangan. 1899 yilda rasmiy ruxsatnama bilan yashayotgan aholi qishloqda 215 nafarni tashkil etgan. 1903 yilga kelib qishloqda 60 ta hovli barpo etilgan. 1907 yilda qishloqdagi mavjud 95 ta xo`jalikda 401 nafar kishi istiqomat qilgan. 1907-1914 yillar davomida qishloqda xo`jaliklar soni 109 tagacha etgan. «Nadejdinskiy» qishlog`ining ahli dastlab «TSarevna» deb nom olgan ariqdan o`z erlarini sug`organlar.

1887 yili Sirdaryoning chap sohilida yaqinida N.K.Romanov tomonidan 13 oiladan iborat “Romanovskiy” (hozirgi Guliston tumani markazi – Dehqonobod shaharchasi hududi) nomli qishloq barpo etilgan. 1892 yilga kelib, ularning soni 20 taga ko`paydi. 1899 yili general-gubernator S. M. Duxovskiyning tashabbusi bilan qishloqqa 42 ta xo`jalik joylashtirilgan. SHu yilda ruxsatnama va tegishli hujjatga ega bo`lgan 81 nafar ko`chib keluvchilar ro`yxatga olingan. “Nikolay I kanali”dan foydalana boshlagan «Romanovskiy» qishlog`i aholisi bog`dorchilik va qishloq xo`jalik ishlari bilan muntazam shug`ullana boshlagan. 1907 yilgi ma`lumotlarga ko`ra qishloqda mavjud 106 xo`jalikda 350 nafar kishi istiqomat qilgan.

1891 yili Buyuk Knyaz tashabbusi bilan «Nikola-Ok» yoki «Nikolaevskiy» qishlog`i tashkil etiladi. Qishloq Sirdaryo sohilidagi Uyas-ko`l va Qiyot-ko`l qirg`oqlari oralig`ida (hozirgi Bekobod tumani Achamayli qishlog`i hududi) joylashgan. 1891 yilda qishloq aholisi jami 663 nafarni tashkil etib, 159 xo`jalikdan iborat bo`lgan bo`lsa, 1899 yilda qishloqdagi aholi soni 216 nafarni tashkil etgan. 1907 yilda qishloqdagi 27 xo`jalikda jami 197 nafar kishi istiqomat qilgan.

«Obetovanniy» qishlog`i (hozirgi Sayxunobod tumani Guliston qishlog`i hududi) 1888 yilda N. K. Romanov tomonidan tashkil etilgan. 1896 yilda bu erga Orenburg kazaklaridan 15 xo`jalik ko`chib kelib (ular 1886 yildan buyon «Zaporojskiy» qishlog`ida istiqomat qilar edilar), chorvachilik bilan shug`ullana boshlagan. Dastlab kazak oilalari mahalliy qozoqlar bilan aralash yashaganlar. Ular o`zлari qurgan vaqtinchalik turar-joylarda istiqomat qilishgan. 1899 yilda 89 nafar rasmiy hujjatga ega bo`lgan kishi istiqomat qilgan. 1907 yilda qishloq aholisi 149 nafarni tashkil etgan. 1912 yilda Samarqand viloyatining harbiy gubernatori

general-mayor I. Z. Odishelidze bu erda bo`lib, Mirzacho`ldagi bu qishloq aholisining boshqa rus qishloqlariga nisbatan nihoyatda nochor ahvolda ekanligini ta`kidlab, zudlik bilan ularga yangi joy ajratishni taklif qiladi. CHunki toshqin bo`lgan vaqtda qishloq va ekin maydonlari suv bosib ketishi xavfi bo`lgan.

1896 yilda Rossiyaning janubiy qismida yuz bergan qurg`oqchilik va ocharchilik tufayli kubanliklar najot so`rab Turkistonga kelishdi. Kuban oblastidan kelgan ko`chma aholi sektant (pravoslaviedagi diniy oqim vakilari)lardan iborat bo`lib, ular «Obetovanniy» qishlog`idan 6-7 versta (7 km.cha) pastga - Sirdaryo bo`yiga kelib o`rnashgan. Qishloq (hozirgi Sayxunobod tumani markazi hududi) dastlab «Volin`skiy» deb atalgan. Keyinchalik qishloq aholisi orasida diniy kelishmovchiliklar yuz Berganligi sababli aholining bir qismi bu erdan ketib, «Nijniy Volin`skiy» qishlog`ini tashkil etgan. SHundan so`ng bu qishloq «Verxniy Volin`skiy» deb atala boshlagan. Kubanliklar lalmi dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg`ul bo`lgan, chigirtka ofatidan so`ng qishloq aholisi pul topish maqsadida turli ishlar bilan shug`ullangan. «Verxniy Volin`skiy» nomini olgan kubanliklar qishlog`ining aholisi baliqchilik va chorvachilik bilan hayot kechirganlar. Ular mahalliy aholining lalmi bug`doyzorlarida qo`l kuchi bilan bug`doy o`rganlar va sut mahsulotlarini sotish bilan shug`ullangan. 1899 yilda rasmiy ruxsatnomaga ega bo`lgan qishloq aholisi 215 nafarni tashkil etgan. 1907 yilda «Verxniy Volin`skiy»da 89 kishi istiqomat qilgan. Aholining tarkibidagi bunday keskin kamayishini chigirtka ofati sabab qishloq aholisining boshqa qishloqlarga ketib qolishi bilan izohlash mumkin.

YUqorida ta`kidlanganidek, “Verxniy Volin`skiy” qishloq aholisi orasida diniy kelishmovchiliklar yuz Berganligi sababli aholining bir qismi bu erdan ketib, 1897 yilda Sirdaryo oqimi bo`ylab 4-5 verst masofada “Nijniy Volinsky” qishlog`ini tashkil etishadi. N. K. Romanov ruxsati bilan 10 ta xo`jalik uchun joy ajratilgan. Asosiy aholisi baptistlardan iborat bo`lgan qishloqda xukumat ruxsatnomasiga ega 76 nafar kishi bo`lgan. Qishloq ahli Kavkaz va Rossiyaga xat yozib, u erdagи maslakdoshlarini ko`chib kelishga da`vat etgan. Bir yil o`tgach, «Nijniy Volin`skiy» qishlog`i aholisi 64 ta ho`jalikdan iborat bo`lgan. 1904 yilda

xo`jaliklar soni 105 taga etgan. Ular sug`orma dehqonchilik bilan endi shug`ullana boshlaganliklari tufayli kun kechirishlarining asosiy manbai chorvachilik va baliqchilik bo`lgan. 1907 yilda bu erda jami 240 nafar kishi istiqomat qilgan.

N. K. Romanov tomonidan tashkil etilgan so`nggi qishloq «Konnogvardeyskiy» bo`lib, qishloq (hozirgi Guliston tumani “Uch-qahromon” qishlog`i hududi) 1897 yili Nov va CHinoz o`rtasidan o`tuvchi katta yo`l kesishgan joyda qurilgan. Bu qishloq «Nikolaevskiy» qishlog`idan 12 verst Sirdaryo bo`ylab pastda joylashgan. YAngi ko`chib kelgan aholi dastlab, “Orliniy” va “Sokoliniy” nomli ko`l bo`yidan er olishgan. 1899 yilda qishloqda 83 nafar rasmiy ruxsatnomaga ega bo`lgan aholi istiqomat qilgan. 1907 yilda 111 nafar kishidan iborat bo`lgan. 1914 yilgacha bo`lgan ma`lumotlarda qishloq aholisi 28 xo`jalikdan iborat ekanligi ko`rsatilgan.

1898 yili hukumat va er xo`jaligi boshqarmasi boshlig`i S. YU. Rauner tashabbusi bilan katta yo`l yoqasidagi temir yo`l stantsiyasi (“Golodnaya stepь”) yaqinida general-gubernator Duxovskiy sharafiga 70-100 xo`jalikga mo`ljallangan qishloq qurish ishlari boshlab yuborilgan. Rejaga ko`ra, «Duxovskiy» qishlog`ida (hozirgi Guliston shahar 1-2-mavze hududi) dastlab 70 xo`jalikka mo`ljallangan davlat uylari qurilgan. SHaroitning og`irligi, sug`orish ishlarining to`g`ri yo`lga qo`yilmaganligi va qishloqning ma`lum qismida balchiq va ko`l zahi mavjudligi sababli, 1906 yilgacha qishloqda yashovchi aholining soni ko`paymagan. Faqatgina temir yo`l ishchilari sifatida 10 ta xo`jalik yashagan. 1907 yilda qishloq aholisi soni 52 nafardan iborat bo`lgan. SHu yilda boshqa rus qishloqlaridagi ayrim dehqonlar, xususan «Nijniy Volinskiy» qishlog`i dehqonlari «Duxovskiy» qishlog`i yaqinida ularga er ajratib berishni iltimos qilishgan. 1908 yilga kelib bu qishloqdagi xo`jaliklar soni 65 tani tashkil etgan.

1906 yilda hukumat mavjud vaziyatni o`rganib, Mirzacho`l temir yo`l stantsiyasi yaqinidagi tajriba erlaridan 10 desyatina er maydonini aholi ehtiyojlari uchun ajratishga ruxsat berdi. 1907 yili «Spasskiy» nomini olgan qishloqqa (hozirgi Guliston shahar Do`slik qo`rg`oni hududi) 65 ta oila kelib joylashgan. 1908 yilda esa 86 ta oila ko`chib kelgan va 56 ta uy qurilgan. “Nikolay I kanali”

atrofidan ko`chib keluvchilar uchun 150 ta desyatina er maydoni ajratib berilgan. YAngi er va hovli oluvchilar uch yil mobaynida har bir desyatina er uchun 4 rubl 40 kopeyka miqdorida to`lashlari kerak bo`lgan. 1909 yilda «Spasskiy» qishlog`ida yangi xo`jaliklar soni 140 taga etgan.

Keyinchalik «Spasskiy» va «Duxovskiy» qishloqlari ma`muriy jihatdan birlashgan va shahar tipidagi qishloq paydo bo`lgan. 1911-1914 yillarda tashkil etilgan yagona qishloq ma`muriy hujjatlarda «Spasskiy» nomi bilan tan olingan. Bu vaqtda qishloq aholisi 302 ta oiladan iborat bo`lgan. 1905 yildan boshlab esa qishloq temir yo`l stantsiyasi nomi bilan “Golodnaya step” deb atala boshlagan. 1917 yilgi aholini ro`yxatga olish ma`lumotlariga ko`ra shaharda 6977 nafar kishi istiqomat qilgan. Mana shu tarzda bugungi Sirdaryo viloyatining markazi Guliston (1961) shahri shakllangan.

1905-1907 yillarda Rossiyada bo`lib o`tgan siyosiy voqealar rus dehqonlarining vohaga ko`chib kelish jarayonini kuchaytirgan. Mirzacho`lda yangi rus qishloqlari paydo bo`la boshlagan, ko`chib keluvchi aholining bir qismi davlat uy-joy bilan ta`minlash boshqarmasi tomonidan ko`rsatilgan erlarga joylashtirilgan.

Rossiyadan kelgan rus dehqonlarining bir qismi ma`muriyat ruxsatini kutmasdan bo`sh davlat erlarini o`zboshimchalik bilan egallab olib, yangi qishloqlar tashkil etgan. 1908 yilda 4 ta xo`jalik «Nijniy Volinskiy» qishlog`i yaqinidagi «Axmonko`l» ko`li atrofiga baliq ovlash va sotish bilan shug`ullanish maqsadida ruxsatsiz ko`chib kelgan. 1909 yilning bahorida 104 oila ko`chib kelgach Samarqand viloyati harbiy gubernatori general-leytenant Galkin ularga bu erda vaqtinchalik yashash uchun yerto'lalar qurishga ruxsat bergan. 1909 yilda Farg`onadan yana 4 ta oila ko`chib kelib, bu erga o`rnashgan. Ular ko`l atrofida 130 xo`jalikka mo`ljallangan, har biri 1 desyatinden iborat er maydonlarini o`zboshimchalik bilan ajratib olgan. 1909 yilning boshlarida bu erda 120-150 xo`jalikdan iborat katta qishloq mavjud bo`lgan.

O`zboshimcha holda kelgan bu xo`jaliklar 1909 yildan e`tiboran ma`muriyat ruxsatisiz davlatga tegishli erlarda o`zlariga uylar qura boshlagan. SHu sababli bu

qishloq nomi «Naxalovka» deb yuritila boshlangan. “Turkestanskie vedomosti”da yozilishicha esa, Sirdaryo stantsiyasi yaqinida va undan 15 versta uzoqlikda, «Ahmonko'l» ko`li atrofida o`zboshimchalik bilan ikkita qishloq tashkil etilgan bo`lib, ulardan biri stantsiya qishlog`i - «Naxalovka», ikkinchisi esa ko`l yonida joylashgan bo`lib, «Axmankulovka» deb atalgan.

1913 yilning kuzida Sirdaryo temir yo`li qishlog`ining qarama-qarshisida yirik savdo ishlab chiqarish markazi tashkil etilgan. Bu qishloq general-gubernator Samsonov nomi bilan «Samsonovka» deb yuritila boshlangan.

«Naxalovka» qishlog`i va “Samsonovka” deb nomlangan savdo ishlab chiqarish markazi bugungi Sirdaryo shahrining asosini tashkil etadi.

Sirdaryo sohili yaqinida savdo-sanoat markazi sifatida 1907-1908 yillari «Sirdarbinskiy» qishlog`i tashkil topadi. Qishloq aholisi temir yo`l stantsiyasi ishchilari va dehqonlardan iborat bo`lgan. 1908 yilda bu qishloq 25 ta xo`jalikdan iborat bo`lgan bo`lsa, 1913 yilda 32 taga etgan.

1913 yil mart oyida «Veliko-Alekssevskiy» qishlog`i tashkil etilgan. Qishloq Sirdaryo temir yo`l stantsiyasidan “Golodnaya stepъ” temir yo`l stantsiyasi tomon 12 verst uzoqlikdagi hududda tashkil etilib, 1913 yil 25 noyabrda unga chor Rossiyasi shahzodasi Aleksey nomi berilgan. Qishloqda 1914 yil boshlarida 62 ta xo`jalik bor edi.

Mirzacho`lda joylashgan Laylakko'l atrofida 1914 yilda rus qishlog`i tashkil topgan bo`lib, bu qishloq (Guliston tumanidagi hozirgi Soyibobod qishlog`i) 1912 yilda Turkiston o`lkasida bo`lgan chor mustamlakachi ma`muri nomi bilan «Krivosheino» deb nomlangan. Dastlab qishloqda 138 nafar kishi istiqomat qilgan.

SHu yilda Sirdaryo temir yo`l stantsiyasidan uncha uzoq bo`lmagan joyda «Slavyanskiy» qishlog`i tashkil topgan bo`lib, Spasskiy volosti tarkibida bo`lgan. Qishloq aslida 344 xo`jalikka mo`ljallangan bo`lsa-da, 1916 yilda qishloqda 124 xo`jalik istiqomat qilgan.

1916 yilda tashkil topgan «Saratovskiy» qishlog`ida faqat birinchi jahon urushidan yarador bo`lib qaytganlar va Georgiy ordeni kavalerlari yashashgan. Qishloq aynan ular uchun tashkil etilgan edi. 1917 yilda «Saratovskiy» qishlog`ida

ro`yxatga olingan 31 oiladan faqat 2 tasi istiqomat qilgan. Qolganlar xizmatda bo`lgan yoki bir necha yuz rublъ uchun o`zlariga qarashli er maydonlarini ijaraga bergen.

“Golodnaya stepъ” temir yo`l stantsiyasi atrofida ishlab chiqarish markazi yuzaga kelgan. Bu qishloq asosan N. K. Romanovga qarashli erda tashkil topganligi tufayli «Knyajeskiy» qishlog`i deb atalgan. 1914 yilda qishloq aholisi 342 ta jondan iborat bo`lgan. Qishloqdagi savdo rastalari 62 nafar o`zbek, 19 nafar rus 15 nafar arman, 7 nafar fors va boshqa millat vakillari savdogarlariga tegishli bo`lgan.

«CHernyaev» qishlog`i (Xovos stantsiyasi o`rnida) O`rta Osiyo temir yo`l tarmog`ida yuzaga kelgan yirik sanoat qishloqlaridan biri bo`lgan. Qishloq tashkil etilgan 1899 yilda xususiy shaxslarga 103 ta er maydoni sotilgan, 55 ta er maydoni esa iste`fodagi quyi lavozim amaldorlariga va Rossiyaning ichki guberniyalaridan kelgan dehqonlarga bepul berilgan. 1913 yilda «CHernyaev» qishlog`i 100 dan ortiq xo`jalikdan iborat bo`lib, aholining 70% ini xizmatchilar, savdogar va hunarmandlar esa 30 % ini tashkil etgan.

1917 yil boshida Mirzacho`lda 24 ta rus qishlog`i mavjud bo`lgan. Mirzacho`lda rus qishloqlari paydo bo`lishini uchta asosiy bosqichni ajratib ko`rsatish mumkin. Birinchi bosqich 1885-1896 yillarni qamrab olib, bunda rus qishloqlarining tashkil topishi, Mirzacho`lni o`zlashtirish ishlarini kengayishi bilan bog`liq. Ikkinci bosqich 1896-1910 yillarni o`z ichiga olib, bu bosqich Mirzacho`lni o`zlashtirish ishlari davom ettirilishi, boy rus dehqonlarining imtiyozli shartlar bilan vohaga ko`chib kelishlarini rag`batlantirish, temir yo`l tarmog`i qurilishining boshlanishi va hukumat ruxsatisiz ko`chib kelganlar tomonidan yangi rus qishloqlarining paydo bo`lishi bilan xarakterlanadi. 1910-1917 yillarni qamrab olgan uchinchi bosqichda vohada o`ziga ham siyosiy, ham iqtisodiy tayanchni vujudga keltirish maqsadini ko`zlagan chor hukumati rejasid asosida yangi rus qishloqlari tashkil etilgan. Agar XIX asrning 70-80 yillarda Rossiya guberniyalaridan Mirzacho`lga ko`chib kelgan aholi kelib-ketib yashagan

bo`lsa, 90-yillardan boshlab esa ular muqim yashay boshlashgan, ularga hukumat tomonidan ssudalar ajratilgan, xonadonlar soni ko`paygan.

Rus qishloqlarining hammasi ham «qonuniy», ya`ni o`lka ma`muriyati ruxsati bilan tuzilmagan. Qonuniy ravishda faqat «Spasskiy» va «Veliko Alekseevskiy» qishloqlari tuzilgan. Qolgan rus qishloqlari hukumat ruxsatisiz tashkil etilgan bo`lib, hukumat asosiy e`tiborni qonuniy ravishda tuzilgan qishloqlarni obodonlashtirishga qaratgan. Maxsus topshiriqlar olgan chor ma`murlari vohaga kelib, faqat obodonlashtirilgan qishloqlarni o`rganish bilan shug`ullanishgan. Hukumat ruxsatisiz tuzilgan qishloqlar haqida esa “mavjud” deb aytib o`tishgan, xolos. Bunday ahvol o`zboshimchalik bilan tuzilgan qishloqlarning obodonlashtirilishiga o`z ta`sirini o`tkazmay qo`ymagan. Bu qishloqlar dastlabki paytda taqdir taqozosiga tashlangan edi.

Mirzacho`lda bosh magistral kanal qurilishi bilan ham rus qishloqlari-ning suvdan foydalanish muammosi oxirigacha hal qilinmagan. Mirzacho`lda suvni sug`orish tarmoqlari orqali olgan dastlabki qishloq «Romanovskiy» bo`lib, qishloq aholisi 1897 yilda suvni TSarevna arig`i orqali olgan. Davlat o`z zimmasiga mayda ariqlarni qazish majburiyatini olmagan, ariqlarni qazish ko`chib kelganlarning o`ziga yuklatilgan. Bunday ahvol ularning xo`jalik yuritishlariga og`ir ta`sir etgan. Etarli mablag` va vositalarga ega bo`limganliklari sababli ular o`z vaqtida sifatli qilib sug`orish ishlarini amalga oshira olmagan, natijada ekin maydonlari uzoq vaqt davomida suvsiz qolgan.

Dastlab «Romanovskiy» va «Nadejdinskiy» qishloqlari, keyinchalik esa boshqa rus qishloqlari aholisi dehqonchilik bilan shug`ullana boshlagan. Ko`chib kelgan rus dehqonlari asosan bug`doy, arpa, sholi, suli, jo`xori, maxsar, kunjut, kanop, no`xat, tariq, sabzavot va qovunlar etishtirganlar. 1900 yilgacha Mirzacho`ldagi rus qishloqlari aholisi paxta ekmagan. 1911 yildan Mirzacho`lda paxtachilik rivojlana boshlagan. Rossiya markaziy viloyatlarida to`qimachilik fabrikalarini xomashyo bilan ta`minlash uchun paxta xomashyosiga bo`lgan talabning ko`tarilishi, narx–navolarning o`sishi, paxtakorlarga beriladigan kredit tizimining keng rivojlanishi, Mirzacho`lda yangi sug`orish tarmoqlarining qurilishi

va boshqa qator holatlar bunga imkon tug`dirgan. “Spasskiy” qishlog`i Mirzacho`lda eng ko`p paxta maydonlariga ega bo`lgan qishloq xisoblangan. Rus dehqonlari chigitni seyalka bilan ekib, er haydash va yumshatishda frantsuz boronasidan keng foydalanganlar.

Temir yo`l stantsiyalari yonida tashkil topgan rus qishloqlari aholisi asosan, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug`ullangan.

Sirdaryo bo`yidagi to`qayzorlar yaqinidagi rus qishloqlarida chorvachilik ham rivojlangan bo`lgan. Bu erlarda ot, yirik shoxli mol, qo`y, echki, cho`chqa, va boshqa hayvonlarni boqishgan.

Mirzacho`l hududidagi birinchi sanoat korxonasi – paxta tozalash zavodi 1910 yili zavodchi boy Vadъyaev tomonidan, hozirgi temir yo`l stantsiyasining shimolida quriladi. Zavod dastlabki yili Rossiyaga 16 vagon, jami 105 tonna paxta jo`natadi. 1914 yil noyabръ oyi oxirlarida knyazъ Romanov tomonidan ikkinchi paxta tozalash zavodi qurilishi boshlanadi.

Mirzacho`lni o`zlashtirishda mahalliy boylar ham ishtirok etishgan. Masalan, Gadoyboy, aka-uka Ahmadjon va Ne`matjon boylar shular jumlasidandir. Gadoyboy ariq qazib cho`lga suv chiqarishga uringan bo`lsa, aka-uka Ahmadjon va Ne`matjon boylar sopol buyumlar ishlab chiqarishni yo`lga quyganlar.

Mirzacho`l uchun 1908 yil – “ofat yili” sifatida tarixda qolgan. Sababi o`sha yili Mirzacho`lni chigirtka balosi bosadi. 1908 yilda 534 desyatina erga ekilgan kuzgi bug`doyning 459 desyatinasini chigirtka eb ketadi. Spassk qo`rg`onidagi dehqonlar biror tup ham g`o`za ko`kartira olmaydi. Bunday og`ir ahvolda qolgan mirzacho`lliklar o`z qishloqlarini tashlab boshqa joylarga ko`chib ketishga majbur bo`ladilar. Bu haqda o`sha yillari chop etilgan “Turkistanskie vedomosti” gazetasi 1908 yil 26 apreldagi sonida shunday yozilgan: “Mirzacho`lda...22 aprelda chigirtka hamma yoqqa tarqalib, Konnogvardeysk qishlog`i atrofini, Spassk qishlog`iga yaqin joylarni, buyuk knyazъ Nikolay Konstantinovich nomidagi podsholik ekinlariga yaqin joylarni bosdi...”.

Dehqonlar maslahat so`rab Mirzacho`lda “Tajriba dala”sini tashkil etgan olim M. M. Bushevga murojat qilishadi. Uning maslahati bilan dala atroflarida chuqur handaqlar qazilib, ularda g`alla o`ramlari yoqiladi va shu tariqa chigirtka balosidan qutilishadi. SHu o`rinda Mixail Mixaylovich Bushev haqida qisqacha ma`lumot berib o`tish o`rinli. M. M. Bushev 1900 yilda Rossiyadan ko`chib keladi va Mirzacho`lda ilmiy asosda faoliyat olib boradigan “Tajriba dala”sini tashkil etadi. Unda Mirzacho`l iqlimi va tuprog`iga mos yangi paxta navlari yaratiladi. Shuningdek, o`g`it solish va almashlab ekish orqali paxta hosildorligini oshirish borasida ham tavsiyalar ishlab chiqadi. Bundan tashqari, M. M. Bushev “Golodnaya stepъ” stantsiyasida qishloq ho`jalik asboblarini ijara berish punktini ochib, dehqonlarga haydov plugi, akuchnik, tirna-FH4. chigit ekadigan seyalka, barona, mola, ketmon, panskha, omoch, belkurak singari qishloq ho`jalik qurollarini ijara berishni yo`lga qo`yadi. M. M. Bushev tomonidan mahalliy gazetalar olib kelinib, aholiga o`qish uchun berilgan, 1906 yili M.M. Busheaning uyida ovozsiz kino qo`yilgan.

Mirzacho`ldagi «Tajriba dala»siga paxtachilikni o`rganish niyatida turli joylardan yosh mutaxassislar kela boshladilar. SHu sababli M. M. Bushev 15-16 yoshlik mahalliy va rus bolalarini yig`ib, ularga qishloq ho`jalik bilimlarini o`rgatadi. “Tajriba dala”sida esa nazariy bilimlar amaliy mashg`ulotlar bilan uzviy olib boriladi.

1911-1914 yillarda Mirzacho`lda g`alla ekiladigan maydonlar qisqartirilib, o`rniga paxta ekila boshlandi. Natijada mahalliy aholi oziq-ovqatdan kiynala boshlagan. Bundan foyda ko`rish maqsadida chor Rossiyasi boylari Rossiyadan keltirilgan bug`doyni yuqori narxda sota boshlaydilar. Mirzacho`lda g`alla maydonlarini qisqartirish ataylab amalga oshirilgan. Buning sababini biz yirik rus amaldorlaridan biri A. V. Krivosheyinning qo`yidagi so`zlaridan bilishimiz mumkin: “Turkiston bug`doyining har pudi rus va Sibir bug`doyi uchun raqobat bo`lsa, Turkiston paxtasining har pudi Amerika paxtasi uchun raqobatdir.

SHuning uchun o`lkaga qimmat narxda bo`lsada, Rossiyadan g`alla keltirib, undagi sug`oriladigan erlarni paxta uchun bo`shtish yaxshiroqdir”¹.

G`alla maydonlarining qisqartirilishi g`alla narxining oshishiga, bu esa shundoq ham nochor ahvolda hayot kechirgan mahalliy aholi orasida ocharchilikka olib keladi. Bu ham etmagandek, chor ma`murlari paxtaning narxini sun`iy ravishda arzonlashtiradilar. Bozorda har pudi 30 so`m bo`lgan paxta narxi 24 so`mga tushiriladi. Bunday siyosatdan norozi bo`lgan mahalliy aholining chiqishlari chor Rossiyasi tomonidan “tartibsizlik va banditlar xujumi” deb baholanib, ularni jinoiy javobgarlikka tortadilar. Mirzacho`lda shunday ayblov bilan 1911 yilda 3.487 nafar, 1913 yili 5.394 nafar kishi javobgarlikka tortiladi. Xoshim ismli mahalliy yigit boshchiligidagi 11 nafar yigitlar esa uzoq Sibirga surgun qilinadi. Umr yo`ldoshlarining jinoiy javobgarlikka tortilganliklaridan, Sibirga surgun qilinganliklaridan norozi bo`lgan xotinlar norozilik harakatlarini boshlaydilar. Ayollar Mirzacho`l bozorida savdogarlarning do`konlarini tor-mor qiladilar. Bundan norozilik xarakatlari 1916 yil fevraly, mart oylarida Xovos va Krivosheyno (Mirzacho`l) temir yo`l stantsiyalarida sodir bo`ladi.

Rus qishloqlari tashkil topgan dastlabki vaqtarda bu erlarda faqat ruslar istiqomat qilgan bo`lsa, vaqt o`tishi bilan qishloqlarning milliy tarkibi o`zgargan. Masalan, 1906 yilda «Nikolaevskiy» qishlog`ida ruslar bilan birga 14 nafar o`zbeklar ham istiqomat qilgan. SHu tariqa sekin-asta rus qishloqlarida o`zbeklar, tojiklar, tatarlar, polyaklar, armanlar, ukrainlar, beloruslar istiqomat qila boshladilar. Bu millatlar o`zaro madaniy va iqtisodiy aloqada bo`lib, bir-birlaridan juda ko`p narsalarni o`zlashtirib olganlar.

Ko`chib kelgan rus va mahalliy dehqonlar bir-birlarining dehqonchilik madaniyatini o`zaro boyitgan. Rus dehqonlari sug`orma dehqonchilik usullarini mahalliy aholidan o`rgana boshlagan. O`z navbatida rus dehqonlari mahalliy aholina ilgari ma`lum bo`lmagan ekinlarni etishtirish usullarini olib kelgan. Bundan tashqari ular mahalliy aholina chorva ozuqasini g`amlab qo`yishni

¹ Кривошеин А.В. Записка главноуправляющего землеустройством и землеведением о поездке в Туркестанский край в 1912 г. – СПб, 1912. – с.4.

o`rgatishgan. Xashak tayyorlashda mahalliy aholi ruslardan o`zlashtirilgan chalg`idan foydalana boshlagan.

Mirzacho`l sharoitida suvdan oqilona foydalanmaslik og`ir oqibatlarga olib keladi. Mirzacho`lda sug`orish inshoatlarini qurban chor Rossiyasi ma`murlari buni yaxshi tushinib etmaganliklari natijasida Romanovsk qo`rg`oni suv o`rtasida qoladi. Sardoba botig`ida katta ko`l paydo bo`ladi, dalalarni qamishzorlar bosadi, to`qayzorlar paydo bo`ladi, bezgak chivini ko`payadi, odamlarning bezgak bilan kasallanishi avj oladi. SHo`ro`zak mavzeidagi erlar sho`rlanib, botqoqlana boshlaydi. Bularning natijasida rus dehqonlari o`z qishloqlarini tashlab keta boshlaydilar. G. K. Rizenkampf Alekseevsk qo`rg`onida 70% er sho`rlanganligi, ommaviy bezgak epidemiyasi tufayli nafaqat alohida xutorlar, balki ko`plab qo`rg`onlarning aholisi ko`chib ketganligi, shimoli-sharqiy irrigatsion tizimlarga putur etganligini qayd etadi¹

Bo`sab qolgan qishloqlar mahalliy millat vakillari xisobiga to`ldirila boshlagan. Mahalliy millat vakillari qo`shni O`ra-tepa, Zomin volostlaridan, Jizzax uezdi, Ursatbevsk stantsiyasi, Qo`qon uezdlaridan kelishgan². Elshunos T.Salimovning to`plagan ma`lumotlariga ko`ra, Spasskiy, Veliko-Alekseevskiy qo`rg`onlariga Turkiston tog` tizmasining oldi qismi aholisi ko`chirilgan³. Natijada XX asr boshlariga kelib Mirzacho`l aholisining yarmidan ortig`ini mahalliy millat vakillari tashkil etgan⁴.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Alibekov U. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sirdaryo viloyati demografiyası // O`zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: Tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Toshkent, 2007, 17-20 bb

¹ Ризенкампф Г.К. К новому проекту орошения Голодной степи. Ч. 1, Л., 1930 г. 83-стр.

² Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари.-Тошкент,2007, 17-20 бб

³ Древний Замин.Т.,Фан, 1994, 76 бет

⁴ Р.Эгамбердиев, А.Раззоков. Ўзбекистонда қўриқ ерларини суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. Т. “Фан”.1984 й. 82-83 бетлар

Voeykov A.I., "Izvestiya russkogo geograficheskogo obshchestva", t. 44, vypusk 111, str. 135/

Drevniy Zamin.T.,Fan, 1994.

Kushakevich A. Svedeniya o Xodjentskom uezde. - Spb.,1875.

Krivoshein A. V. Zapiska glavnoupravlyayushchego zemleustroystvom i zemlevedeniem o poezdke v Turkestanskiy kray v 1912 g. – SPb, 1912.

Turkestanskie vedomosti Tashkent, 1873. 10 iyulъ

Rizenkampf G. K. K novomu proektu orošeniya Golodnoy stepi. CH. 1, L., 1930.

Egamberdiev R., Razzoqov A.. O`zbekistonda qo`riq erlarini sug`orish, o`zlashtirish va melioratsiyalash tarixi. T. “Fan”.1984 y.

XULOSA

Qadimgi Sirdaryo hududining o`ziga xosligi shundaki, bu erda qadimdan dehqonchilik bilan shug`ullangan xalq bilan – ko`chmanchi chorvachilik bilan shug`ullangan qabilalar yonma-yon yashashgan. Sirdaryo ularni ajratmagan aksincha birlashtirgan. Ko`chmanchilarning o`troq aholi mahsulotlariga ehtiyoji va o`z navbatida o`troq aholining chorvachilik mahsulotlariga bo`lgan talabi bu aloqalarning doimiy bo`lishini taqoza etgan. Qadimdan bir tanu bir et bo`lib yashagan bu xalqlar ko`xna tarix davomida birgalikda ne-ne qiyinchiliklarni birgalikda engib, umumiyl dushmanlariga qarshi yurt ozodligi va o`z erklari uchun ittifoqchilikda kurash olib borganlar.

Arxeologik tadqiqotlar o`lkamizning qadimgi aholisi o`ziga xos moddiy madaniyatga ega bo`lganliklari borasida guvohlik beradi. Demak, qadimgi sirdaryoliklarning o`z madaniyati bo`lgan. Fanda bu madaniyat Nurtepa madaniyati deb atalmoqda. Bu o`ziga xos madaniyat bir tomonidan qadimgi Chochning Burg`ulik, Farg`onaning Eylatan, Qayroqqum, So`g`dning Qadimgi So`g`d madaniyatlar ta`sirida bo`lgan bo`lsa, ikkinchi tomonidan yuqoridagi madaniyatlar ham o`z navbatida qadim ajdodlarimiz madaniyatining ayrim ko`rinishlarini o`zlarida aks ettiradi. Ushbu madaniyatga tegishli Eski Xovos, Nurtepa, Xontepa, Sag`anaktepa, Sag`anaktepa 1, Xtoytepa singari bugungi kunda viloyat hududida 10 ga yaqin aholi manzil- gohlari aniqlangan.

Sirdaryo hudud jihatidan kichkina viloyat bo`lsada, o`rta asrlarda viloyat hududi ikkita tarixiy-geografik viloyat tarkibiga kirgan. Viloyatimiz hududining janubiy qismi o`rta asrlarda Ustrushona deb nomlanuvchi tarixiy-geografik viloyatning shimoliy qismi tarkibiga kirgan bo`lsa, viloyatimizning shimoliy hududidagi, o`rta asrlarda Choch deb nomlangan tarixiy-geografik o`lka tarkibiga qaragan. Ustrushona hududida Sabat va Xovos singari Yodgorliklar bo`lgan bo`lsa, Sirdaryo viloyatining shimoliy qismida, SHoshga qaragan, bugungi kunda YUNESKO tasarruvidagi mashhur SHohruhiya shahri egizagi bo`lmish, o`rta asr yozma manbalarida **Xushkent** deb nomlangan shahar joylashgan bo`lgan. Bu

Yodgorliklar qadim Farg`ona, Choch va So`g`dda savdo va harbiy harakatlar yo`nalishlari chorrahasidagi qulay va muhim manzil vazifasini bajargan.

Rus chorizmi Turkistonni bosib olgach, Mirzacho`lga alohida e`tibor qaratadi. CHorizmning Mirzacho`lga qiziqishi ortishi sabablaridan biri Toshkent bilan Samarqandni bog`lovchi muhim strategik yo`lda joylashganligidadir. Bu yo`lda xavfsiz va bemashaqqat qatnovni ta`minlash uchun eng muhimi o`zlarining mustabi tuzumlarini ushbu hududda tayanch maskanlarini yaratish uchun bu erlarda aholi manzilgohlarini barpo etish shart edi. Aholi manzilgohlarini barpo etish uchun esa, bepoyon cho`lga suv chiqarish talab etilardi. Ikkinchidan Mirzacho`lga suv chiqarish orqali bu erda Rossiya sanoati uchun o`ta zarur bo`lgan paxtani etishtirish mumkin bo`lardi. SHu sababli ham chor Rossiyasi ma`murlari Mirzacho`lning foydalanilmay yotgan imkoniyatlarini to`g`ri baholab uni “Ikkinchi Turkiston” deb atashgan.

Sovet hukumati O`zbekistonda paxta etishtirishni yanada ko`paytirish maqsadida qo`riq, bo`z erlarni o`zlashtira boshladi. SHu maqsadda 1956 yil 6 avgustda sobiq sovet xukumati “Paxta etishtirishni yanada ko`paytirish uchun O`zbekiston SSR va Qozog`iston SSRdagi Mirzacho`lning qo`riq erlarini sug`orish va o`zlashtirish to`g`risida” qaror qabul qiladi.

Qo`riq erlarga suv chiqarish va ularni o`zlashtirish, yangi paxtachilik tumanlarini yaratish, paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirish paxta yakkahokimligining yanada kuchayishiga olib keldi. Bu hol, o`z navbatida, oziq-ovqat va ekologik muammolarning hal qilishni yanada qiyinlashtirdi. Er osti sizot suvlarining sathi ko`tarilib, unumdor erlar sho`rlandi va botqoqqa aylana boshladi. Paxtani hosildorligini oshirish maqsadida unga beriladigan mineral o`g`itlar va zaharli ximikatlar miqdori yildan yilga ko`payib bordi. Bu o`z navbatida qishloq aholisi uchun fojiali oqibatlarga olib keldi. Aholi o`rtasida turli-tuman kasalliklar avj oldi.

Bir tomondan iqtisodiy etishmovchilik, ikinchi tomondan paxta monokulturnasi sabab, ortiqcha berilgan ximikatlar tufayli aholi ayniqsa yosh bolalar o`rtasida keng avj olgan sariq kasalligi, uchunchi tomondan boshlanib

ketgan millatlar o`rtasidagi urush xalqni ruhiyatiga ta`sir qilib, unda kelajakka ishonsizlikni o`yg`otgan edi. Bu girdobdan xalqni faqatgina mustaqillikgina saqlab qolishi mumkin edi.

Mustaqillik yillarida bir vaqtlar agrar viloyat bo`lgan va doimo davlat dotatsiyasida bo`lgan Sirdaryo viloyati har tomonlama rivojlandi, uning shahar va qishloqlari obod bo`lib, aholining turmush farovonligi oshdi. Ayniqsa, so`nggi uch yilda hududda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasida qurilish, qishloq xo`jaligi tarmoqlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Bir vaqtlar odam yursa oyog`i, qush uchsa qanoti kuyadi deb ta`riflangan Sirdaryo tom ma`noda bugun Mirzagulistoniga aylandi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуллаев Х.С., Берикбаев Р.Б. Сирдарё области. Тошкент, Ўзбекистон. 1976. Б. 15-16.
2. Абдунабиев А. Борьба за увеличение земель. Т. “Узбекистан”. 1966.
3. Аширбоева З.Х. XIX аср охири – XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Автореферат. т.ф.н. Т. 2008 й.
4. Алимова Д., Голованов А., Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: Сиёсий ва мафкуравий тазиик оқибатлари, Т., 2000;
5. Аминжанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе. // ИМКУ. Вып.8. –Т.: Фан.1969. С.137-142.
6. Арриан Флавий. Анабасис Александра или история паходов Александра Великого. Пер. с древнегреч. М.Е.Сергеенко. -М.-Л., Изд. АН СССР. 1962.
7. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. // Соч. Т.І. М.: 1963.
8. Бабушкин Л.Н. Агроклиматическое районирование хлопковой зоны Средней Азии / Гл. упр. гидрометеорол. службы при Совете Министров СССР, Среднеазиат. науч.-исслед. гидрометеорол. ин-т. -Ленинград: Гидрометеоиздат, 1960. - 135 с.
9. Бетгер Е.К. Извлечение из книги "Пути и страны" Абу-л Касима ибн Хаукаля. // ТСАГУ. Вып. CXI. -Т., 1957. С. 13-40.
10. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.II. -М.-Л., Изд. АН СССР. 1950. с.272.
11. Буряков Ю.Ф. Бассейн Среднего Яксарта в древности и раннем средневековье. // Т.: 1987. С. 33.
12. Буряков Ю.Ф., Грицина А. Мавераннахр на Великом шелковом пути. 2006. 208 с.
13. Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. -Душанбе: Дониш. 1980. с.81.
14. Беляева Т.В. Архаический, античный и раннесредневековый Ходжент по данным письменных и археологических источников. // 1986. С. 82-100.

15. Беляева Т.В. Исследование Нуртепе в 1981г.//АРТ(1979). Душанбе: 1988. С. 31.
16. Беляева Т.В. К исторической топографии городов Уструшаны.// Древняя и средневековая археология Средней Азии. Т.1990. С.76-81.
17. Беляева Т.В. О работах Нуртепинского отряда в 1984г. // АРТ (1984). Душанбе: 1993. С. 51-57.
18. Беляева Т.В. О раскопках на Нуртепе и в Ходженте. // АРТ (1985).. Душанбе. 1994. С. 20-21.
19. Гайдукевич В.Ф. Работы Фархадской археологической экспедиции Узбекистана в 1943-1944гг. // КСИИМК. Вып. XV. - М.-Л: 1947. с.92-109.
20. Гайдукевич В.Ф. Керамическая обжигательная печь Мунчактепе. // КСИИМК. Вып. XXVIII. - М.-Л., 1949. С. 77-82.
21. Геродот. История. Перевод и примечания Г.А.Стратановского. (В 9 кн). – М.: 2002.
22. Грицина А.А. Археологические исследования в Северной Уструшане. // Т.: 1988. с.33-35
23. Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в н.э. АКД. Самарканд, 1990.
24. Грицина А.А. К сложению городов и поселений на древних путях Северной Уструшаны.//На среднеазиатских трассах ВШП. Т.1990. С.18-22.
25. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарыинской области. – Т.: 1992.
26. Грицина А.А. Нуртепинская культура Уструшаны //Буюк ипак йўлидаги Марказий Осиё шаҳарлари. Самарканд. 1994. б. 30-32.
27. Грицина А.А. Уструшанские были. -Т.: 2000. С.148.
28. Древний Заамин / Т.: Фан. 1994. С.35.
29. Омонжулов Т., Мирзаева Н.Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи.Гулистон. 2011.
30. Смирнова О.И. Археологические разведки в Уструшане 1950г. // -М.-Л., 1953. С.189-230.

31. Пардаев М.Х. Қадимги Фарғона ва Уструшонанинг моддий маданий алоқалари // Самарқанд. 1994. Б. 66-71
32. Пардаев М.Х. Шимолий-ғарбий Уструшона қишлоқ курилиши меъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айрим хусусиятлари. // ЎММТ. 28-нашри. Самарқанд. 1997. Б. 142-148.
33. Пардаев М., Суюнов С. Шимолий-ғарбий Уструшонаинг сурорилиш тарихидан.//Ўзбекистон қадимда ва ўрта асрларда.Самарқанд.1993.Б.49-53.
34. Пьянков И.В. Александрия Крайняя в известиях античных авторов. - Душанбе. 1986. С.77- 92.
35. Массон М.Е. К вопросу о северных границах государство "Великих Кушан". 1975. С. 44.
36. Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. Тошкент. 2016.
37. Негматов Н.Н. О работах Ходжентско-Уструшанского отряда в 1955г. // – Сталинабад., 1956. С.61-69.
38. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. – Сталинабад. 1957.
39. Негматов Н.Н. Из опыта изучения городской жизни Ходжентско-Уструшанского региона. // - Л., 1970. С. 8-11.
40. Негматов Н.Н. О работах СТАКЭ в 1976г. // АРТ XVI. Душанбе: 1982. С. 236-237.
41. Негматов Н.Н. Ходжент. Основные этапы истории. // Душанбе: 1986. С. 3-4.
42. Негматов Н.Н., Беляева Т.В., Мирбабаева А.К. Начало исследований городища Нуртепе. // АРТ XX. Душанбе: 1987. С. 310-330.
43. Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Исследование Нуртепе в 1981г.// АРТ (1981) XXI. Душанбе: 1988. С. 19-31.
44. Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Общий отчет об исследованиях Нуртепе в 1980-1985гг и продолжения работы по дальнейшему изучению и сохранению памятника.//АРТ(1985). Душанбе:1994.С. 23-27.

45. Негматов Н.Н., Рахимов Н.Т. Уструшано-Ходжентский узел ВШП. // Формирование и развитие трасс ВШП в древности и средневековье. Т. 1990. с.118-120.
46. Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв). – Т.: 1966.
47. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. – Новосибирск. 1989. с.78.
48. Мухаммаджонов А.Р. Сирли тошлар изидан. // Фан ва турмуш. -1957. -№ 1. Б. 16.
49. Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып. I. -М.: Наука, 1973. с.18-26.
50. Кабанов С.К. Археологические находки на Фархадстрое. // ИАН Уз.ССР. -№ 5. Т., 1948. С. 71-81.
51. Кошеленко Г.А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. -М., 1979. С.222-249.
52. Кошеленко Г.А. Уструшана. /Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. / - М.: 1985. С. 200.
53. Литвинский Б.А. Саки которые за содом. // ТИИ АН. Тадж.ССР. Т. СХХ . Душанбе. 1960. С. 94-96.
54. Ўзбекистоннинг янги тарихи, 2-китоб [Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида], Т., 2000;
55. Кудратов С. Сардобалар ўлкаси. – Т.: Фан. 2001.
56. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари, Т., 2001;
57. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости., Т., 2000;
58. Ражабов Қ, Хайдаров М., Туркестон тарихи (1917-1924 йил), Т., 2002;
59. Шамсутдинов Р., Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари, Т., 2001;
60. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожиаси: жамоалаштириш, кулоклаштириш, сургун, Т., 2003;

61. История Узбекистана а источниках. Т.: Фан, 1984..
62. История Ўзбекистона (1917-1991 гг.), 2-изд., Т., 2005;
63. Фаязова М.М. Отпечатки тканей на керамике из Нуртепе. // конференция молодых историков Средней Азии и Казахстана. Душанбе. 1984. С. 132-133.
64. Фрейман А.А. Согдийские документы с горы Муг. Вып.1. -М.: 1962.
- 65.** Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (Социально-экономический аспект). Т.: «Фан», 1983.
66. Яйленко В.П. Основания и начальная история Александрии Крайней. –Т.: 1989. С. 66-69.